


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“MADANIYAT VA DIN”
MADANIYATSHUNOSLIK
fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o’quv-uslubiy
qo‘llanma**



NAMANGAN – 2016

SH. Abdullayev, N.Valiyeva
Madaniyat va din. O'quv qo'llanma 2016. ____bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada Madaniyat va dinning o'zaro aloqadorligi milliy va jahon dinlarining madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ochib berilgan. Unda qadimgi zamонлардан to hozirgi kunlargaча davrda jahon xalqlari madaniyati taraqqiyoti, mustaqil O'zbekistonda ma'naviy tiklanish jarayoni va madaniyat ravnaqi masalalari yoritilgan.

O'quv qo'llanma Namangan davlat universiteti qoshidagi Oliy o'quv ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2016-yil ____aprel ____-son majlis bayoni).

Mas'ul muharrir: t.f.n. N. G'ofurov

Taqrizchilar: f.f.n. D.Rahimbayeva
f.f.n. A. Hakimov

Namangan Davlat universiteti "O'zDJQNA" kafedrasining 2016 yil _____ mart ____-yig'ilishida muhokama qilingan.

Xulosa

Mustaqilligimiz sharofati bilan xalqimiz o‘zligini chuqur anglay boshladi. Vatanimiz o‘tmish madaniyatini mukammal o‘rganishiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Yangi jamiyat qurilishi ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va manaviy sohalarda chuqur o‘zgarishlarni taqozo etadi. Bu o‘zgarishlarni asosiy mezoni milliy-manaviy qadriyatlar, sharqona ruhiyat va madaniyat hisoblanadi.

"Xalqning ma’naviyati-degan: I.A Karimov - uning haqiqiy tarixi va uning xosligini qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo‘lidan muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljishda hal qiluvchi tabir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir".

Madaniyatshunoslik kursi jahon Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyoti qonunlari, o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari, madaniyatning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni va roli to‘g‘risida baxs yuritadi. Milliy ma’naviyat, qadriyatlar madaniy meros va an’analarga tayangan xolda kishilarning madaniyatni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Talabalar bu kursni o‘rganish jarayonida o‘zbek xalqi va buyuk allomalarimiz,

Mazkur fan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi, milliy madaniyat, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar haqida keng yoritishni o‘zoldiga asosiy maqsad qilib olgan.

O‘z navbatida demoqratik, xuquqiy, insonparvarlik jamiyatini barpo etishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Har bir talabada madaniyat tushunchasi, uning nazariy asoslari to‘g‘risida obektiv ma’lumotlar olishda bu seminar ishlanmasi katta ahamiyatga ega.

Ushbu madaniyatshunoslik fanidan seminar mashg‘ulotlari uchun tayyorlangan o‘quv-uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan 2011 yil 17sentyabr kuni tasdiqlangan namunaviy o‘quv rejasi 2011 yil 8 kuni BD – 105 son bilan ro‘yhatga olingan "Madaniyatshunoslik" fanidan namunaviy o‘quv dasturi asosida ishlangan.

Har bir amaliy mashg‘ulotga pishiq puhta tayyorgarlik ko‘rish jarayonida talabalar darsliklardan tashqari Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlaridan, Respublika hukumati, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan muhim qonun, qaror va farmoyishlardan keng foydalanib borish tavsiya etiladi.

Ushbu qo‘llanma universitet talabalari va o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, "Madaniyatshunoslik" kursini o‘rganishda dastlabki harakatdir. Qo‘llanma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalar mualliflar tomonidan bajonidil e’tiborga olinadi.

**Din inson onginging eng yuksak va
so'nggi sohasidir. U shunday sohaki,
inson unga mutloq haqiqat olamiga
kirgan kabi qadam qo'yadi.**

F. Gegel.

Kirish

Inson o'zligini tanishi bilan , tabiatda nimadir xamma narsani xarakatga keltirishi va Borliqqa sabab bo'lishini tushunib , yararuvchi manba sifatida Iloxiy kuch – Xudoni tan oladi va unga sig'ina boshlaydi Iloxiy kuch tushunchasi turli xalqlarda muayan muxitga yarasha ma'no kasb etib, bir avlod umri davomida shakllangan g'oya o'zga avlod xayotida o'z ma'nosini yo'qotishi xam mumkin. Diniy e'tiqodlarning yuzaga kelishida tabiiy va inson omillaridan tashqari, davlatchilikning turi ham ahamiyatga ega bo'lgan. Shunisi diqqatga sazovorki, davlatchilik taraqqiy eta borgani sari diniy e'tiqodlar xam murakkablashib, markazlashib borgan. Diniy ramzlar kichik sodda shakllardan yirik maxobatli ma'budxona va ibodatxonalar miqyosiga ko'tarilgan. Bu jarayonlar albatta odamlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatgan, natijada ba'zi etiqodlarning ramz va marosimlari zamonlar o'tishi bilan urf odatga aylanib, xatto o'zining diniy moxiyatini ham yo'qotadi, ayrimlari ertak va afsonaga aylanadi, boshqalari esa vaqtı-vaqtı bilan qayta tiriladi ham yoki asrlar davomida nafaqat moxiyatini balki shaklini ham o'zgartirmaydi. Chunki ota bobolarning udumlari, an'ana va qonun sifatida xalq ongiga singib o'tadi. Ana shunday jarayonlar natjisida madaniyat va din uyg'unligi asosida diniy madaniyat shakllanadi va rivojlanib boradi. Xususan qadimda mamlakatimiz xududida turli madaniyatlar va diniy e'tiqodlar mavjud bo'lib, ayrimlari olov uchqunidek bir chaqnab ko'xna tarix qa'rida nom-nishonsiz so'ngan bo'lsada, ularning qoldiqlari u yoki bu ko'rinishda hozirgi kungacha yetib kelgan. Masalan ibridooya e'tiqodlarda shakllangan ajdodlarga sig'inish, ularni xotirlab taom tortish odati zardushtiylikda ham saqlangan va keyinchalik islomga o'tadi. Eng qizig'i, hozir xalqimiz bu odatlarni islom dini kiritgan deb o'ylaydi. Har bir davrning o'ziga xos xalq e'tiqodi mavjudligi va ana shu e'tiqod namoyon bo'lgan iloxlari va ramzlari aynan shu davr uchun xosligi barchaga ma'lum. Bu jarayonda esa har bir xudduda turli xalqlarning kirib kelishi yoki boshqa sabablar bilan turli e'tiqod va madaniyatlar kirib kelgan. Yurtboshimiz Islom Karimovning "Tatixiy xotirasiz kelajak yo'q" risolasidagi "Tariximiz kabi, qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruhlar, el-elatlar o'z ulushini qo'shgan. Bu tabiiy hol. Chunki, hech qachon, hech qayerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo'lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko'pdan – ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining maxsulidir. Bir so'z

bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi¹.

Ta'limning demokratlashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashib borishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining muhim yutug' idir. Bugungi kunda gumanistik ideallarni, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni tiklash umumbashariy ahamiyatga ega. Madaniyatning nazariy muammolari va tarixiga umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazardan, har bir davr va har bir xalq madaniyatiga hurmat nuqtayi nazardan yondashuvchi madaniyatshunoslik fani «madaniyatlararo muloqot»ni amalga oshirishga, gumanistik g'oyalarning uyg'onishiga yordam beradi.. Aynan shu fan madaniy-ma'naviy sohalardagi unutilgan qarashlarni, zo'ravonlarcha poymol etilgan qadriyatlarni aniqlash, qayta tiklash va yangi ma'no-mazmun bilan boyitish kabi faoliyatga ko'maklashadi.

Fanning tadqiqot obyekti turli xalqlarning ko'p asrlik madaniy hayoti, o'ziga xos jihatlari va umumiy ildizlarini, Sharq va G'arb madaniyatining taraqqiyot bosqichlari, o'ziga xos xususiyatlari va mushtarakligini, milliy va mintaqaviy madaniyat-ning jahon madaniyati ravnaqiga ta'sirini, madaniyatning tarkibiy tuzili-shi, madaniyatlararo muloqot muammolari, ularning insoniyat hayotidagi rolini o'rganishdan iborat. Qolaversa dinning jaholat, aqidaparastlik, o'zgalar fikriga toqatsizlik, ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuch ekanligi haqidagi noto'g'ri tasavvurlarga qarshiligi to'g'risidagi ijtimoiy fikrni shakllantirishga, talaba yoshlarda falsafiy-nazariy dunyoqarashni shakllanishiga erishmog'imiz darkor. Chunki dinlar - xoh islom dini, xoh xristian dini bo'lishidan qat'iy nazar insonlarni ezgulikka, poklikka, Vatanga, yaqinlariga muhabbat va sadoqatga o'rgatadi. Mazkur qo'llanmada qadimgi va o'rta asrlarda madaniyat va diniy e'tiqod uyg'unligi xamda san'at, adabiyot, me'morchilik, xalq og'zaki ijodi va boshqa soxalarda ushbu uyg'unlik aks etgan jarayonlarning nafaqat shakli balki mazmunini xam ochib berishga xarakar qilinadi. Tarixda din xalqlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Insonlarni ahloqiy jihatdan sog'lom, pok, diyonatli bo'lishlikka chaqiruvchi dinlar har doim ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekistonda millatlar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda barcha imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash va dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

¹ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: O'zbekiston. 1998.-B-20-21.

1-Mavzu. IBTIDOY DAVRDA DINIY MADANIYATNING SHAKLLANISHI.

Diniy tasavvur va e'tiqod ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi davrlarida shakllanib, ayrim unsurlari o'rtal paleolit davrlarida vujudga kelgan. Ibtidoiy odamlar atrofidagi hodisalarning sabablarini tushuna olmagan. Tabiatdagi turli hodisalarning sir-asrорlari ularga ma'lum bo'lмаган. Bu hodisalar negizida sirli, g'ayritabiyy kuchlar yashiringan deb tushunib, shu g'ayritabiyy kuchlarga e'tiqod qilingan. Ibtidoiy odamlar turli mintaqalarga tarqalib, turli xil tirikchilik bilan shug'ullana boshlaydi. Tabiatning va tirikchilikning xilma-xilligi turli e'tiqodlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lган. Tabiat va jamiyat hodisalarga bog'liq g'ayritabiyy kuchlarga ishonish ibtidoiy e'tiqod deyiladi. Uning totemizm, animizm, sehrgarlik, fetishizm kabi turlari ibtidoiy jamoa tuzumi davrida keng tarqalgan.

Totemizm-jamoanining hayvon yoki o'simlik turi bilan g'ayritabiyy qarindoshlik aloqasiga ishonishi bo'lib, ovchilik va termachilik rivojlangan davrda paydo bo'lган. Bu e'tiqodda totem-hayvon yoki o'simlik nihoyatda hurmat qilingan. Totemizmning ilk bosqichida hayvon muqaddas sanalib, uni o'ldirish yoki go'shtini iste'mol qilish ta'qiqlangan. Faqat urug'ning urf-odat marosimlaridagina bu hayvon go'shti iste'mol qilingan.

Animizm -«rux», «jon» ma'nosini bildirib, bu dunyoda ruhlar, jonlar shaklidagi g'ayritabiyy kuchlarnig borligiga ishonish. Tabiatdagi narsalar, odam va boshqalarning ruhlari- shular jumlasidandir. Urug'chilik jamoasining rivojlanishi bilan urug' boshliqlar, harbiy yo'lboshchilar ruhiga-ajdodlarga sig'inish paydo bo'lган. Matriarxat davrida ruhlar ayollar nomi bilan atalgan. Xo'jalik shakllari paydo bo'lgach tabiatdagi narsalar (quyosh, suv, yer) ning ruhiga topinish kuchayadi. Sehrgarlik-odamning g'ayritabiyy kuchlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga asoslangan amallardir. Bu ibtidoiy san'atda ham o'z ifodasini topgan. Qoyatosh tasvirlaridagi yaralangan hayvon ifodasida ovchilar bo'lg'usi ovning baroridan kelishini ko'zlab, hayvonlarni sehrlanganligini kuzatish mumkin.

Gominidning uch million yillik evolyutsiyasi nihoyasidagi kuchli evrilish natijasida anglash, nutq, din, san'at vujudga keladi. Arxaik madaniyatning xususiyati haqida uni haqli ravishda «homo sapiens» yaratganligiga etnografik va arxeologik ma'lumotlarga asoslanib tasavvur qilish imkoniyatlariga egamiz. Birinchi navbatda biz, ibtidoiy odamning o'ziga xos fikrlash xususiyati haqida hukm chiqarishimiz mumkin. Ibtidoiy odamning fikrashi aniqlik, ta'sirchanlik, butunlikda farqlanadi. Ibtidoiy odam asta-sekin turli tashqi hodisalarni sezalboslaydi. U issiq va sovuqni, to'q va ochlikni, yaxshi va yomonlikni his qiladi, yorug'lik va qorong'ulikni ajratadi. Hodisalarning ro'y berishini kuzata boshlaydi. O. Freydenbergning fikricha, unda kuzatish ta'suroti ustun bo'lган. Ibtidoiy odamning ta'sirchan, aniq tasavvuri hali hodisalarni umumlashtirish qobiliyatidan yiroq edi. U tevarak-atrofdagi voqeа hodisalarning mohiyatini tahlil qilmasdan faqat yuzaki qayd qiladi, narsa va jarayonlarga, ularning xususiyatiga bir xil yondoshgan. Ibtidoiy tafakkur uchun sababiy bog'lanishlar o'ta shartli bo'lib,

qandaydir hodisaning sababi tez-tez qaytarilib turilishi natijasida vaqt o‘tishi bilan idrok qilingan. A.N. Ramonovning ta’kidlashicha, «yozuvsiz madaniyatning o‘ziga xos xususiyati-nutqning nokategorial shaklidir». Bu mustaqil faoliyatning ijodiy manba’larini cheklovchi jarayon hisoblanadi. Insonga kerakli barcha yangilik va bilim faqat faoliyat jarayonida namoyish qilish usulida berilgan. Shuning uchun ibtidoiy madaniyatda marosimga o‘xhash shakllar ustunlik qiladi. A. Ramonov aytganidek, marosim- aniq va maqsadli faoliyat bo‘lib, uni amalga oshishi ijtimoiy guruhlar nuqtai nazarida ishlab chiqarish faoliyati kabi hayotini saqlash uchun ham o‘ta muhim hisoblanadi. Marosim pragmatikona va faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ularga berilayotgan ma’lumot to‘liq holda bo‘lib so‘z orqali izohlanmaydi. Unda ishlab chiqarish faoliyati ham, bilim ham, sehr- jodu ham, san’at ham aralash holda bir butunlikda namoyon bo‘ladi. So‘nggi paleolit davrida animistik e’tiqodlar va sehr-jodu ma’naviy madaniyatning negizi sifatida qat’iy rasmiylashdi. Qadimgi e’tiqodlarning shakllanishi manbaida tabiatning tashqi ko‘rinishi va odamlar jamoasi haqida tasavvurlarning uyg‘unlashib ketishi ibtidoiy odam uchun xos bo‘lgan inson va tabiatning sub’ekti va ob’ekti birligi ta’sirida, ehtimol jamoa nima bilan shug‘ullansa o‘shanga bog‘liq bo‘lgan hayvonlar, o‘simliklar, toshlar, ya’ni uning faoliyati doirasida nima mavjud bo‘lsa barchasi uchraydi. Dunyoda yashayotgan aholining ko‘plab ruh va jonlar bilan munosabatda bo‘lish vositasi sifatida sehrgarlikni keltirib chiqardi. Sehrgarlikning eng qadimgi turlaridan biri ovchilik sehrgarligi bo‘lib, o‘lja yaqinlashishi bilan uni tutish mashqini o‘rganadi. Biroq barcha harakatlar faqat mashq bilan tugamaydi. Uni amalga oshirish jarayoni asosiy masala hisoblanadi. Dastlabki sehrgarlik harakatlari mazmunida totemizm-hayvonlar ajdodiga topinishni keltirib chiqardi. Ibtidoiy jamoa turmushi, ovi, urushi, hayvonlarni tutib eyishi, tug‘ilish va o‘limini – umuman inson hayotini totemistik, ya’ni, totemlar kurashi va to‘qnashishi orqali tasavvur qiladi. Bu tasavvurlar oqibatda kosmogonik manzaraga asos soladi, qayerda har bir totem-koinot borki, yo‘qoladi va tiriladi, qari koinot o‘rniga yoshlari keladi. Ularning o‘rin almashishi va yosharishi yoki tirilishning borligi o‘limdadir. Sehrgarlikka o‘xhash hayot nafaqat paydo bo‘layotgan tushunchalarni o‘zida jamladi, balki madaniyatning eng qadimgi shakli bo‘lib qoldi. Undan hozirgi vaqtgacha olamni o‘zida aks etgan din, san’at, fan sohalari paydo bo‘ldi. Barchasi suyakka chizish va naqsh solish, kichik haykaltoroshlik, belgi – muhr bosish, bo‘yoqli hoshiyalar chizish, g‘or devorlariga betartib chiziq shakllar solishdan boshlandi va natijada mashhur Altamir, Lasko, Montospan va boshqa g‘orlardagi tasvir galereyasi vujudga keladi. G‘or tasvirlari tabiiy, aniqrog‘i hayotiy aks ettirilgan. G‘or tasvirlarining dastlabki bosqichida jonvorlar tasviri alohida o‘rin tutadi: otlar, yovvoyi qoramol, mamontlar o‘ta yorqin tasvirlangan. Paleolit kishisining tasvir faoliyatida nafosat uyg‘unligi yoki rasm yozuvlar (piktografiya) emas, balki tasvirni «fotografik» tarzda ifodalash ustun bo‘lgan. Bu tasvirlar marosim tafsilotlaridir. Mashhur san’atshunos A. Arnxeymning ta’kidlashicha, paleolit davrida san’at hayotiy zarur vazifani bajargan. U kishiga mislsiz kuch baxsh etib, tirik mavjudod va narsalardagi ma’nisizlikka “sehr baxsh” etish imkonini yaratgan. Ibtidoiy odam chizilgan tasvirga jonivorlarning joni o‘tadi, shu tufayli ularga ta’sir

qilish mumkin deb o'ylagan. Arxaik san'at insonni hayvonlar ruhiyati bilan qiziqishida alohida vosita bo'lib, unda haqqoniyat va marosim uyg'unlashib ketadi.

O'zbekiston hududida so'nggi paleolit davriga oid qoyaga solingan tasvir namunalari uchramasada, ushbu davrga tegishli 30 dan ortiq manzilgohlar o'r ganilgan, jumladan Samarqand manzilgohi, Ohangarondagi tosh quollar, tayyorlangan «ustaxona», Ko'kbuloq va Oqtosh manzilgohlari.

O'zbekiston hududidagi ibridoiy tasviriy san'at namunalarini eng qadimgisi mezolit-neolit davrlariga oid bo'lib, ular jahon tasviriy san'at tarixining ajralmas qismidir. Shuningdek, bu tasviriy san'at tarixi bir qator alohida ko'rinish, o'ziga xoslik va farqlik jihatlarga ega bo'lib quyidagi bosqichlardan iborat:

1. G'orlar, qadimgi toshlar va turli qoyalarda saqlanib qolgan ibridoiy tasvirlar yaratilgan davr.

2. Loy, ganch, tosh va yog'ochdan ishlangan qadimgi haykallar namunalari va turli hunarmandchilik buyumlaridagi tasvirlar yaratilgan davrlar.

Mamlakatimiz tog'lik tumanlarida keng tarqalgan qoyatosh tasvirlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil: bir xillari bo'yoq (ohra) bilan, ikkinchi xillari esa o'yib-ishqalash-chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogliflar).

O'zbekistondagi qoyatosh tasvirlarining eng nodir namunalarini Zarautsoy, Sarmishsoy, Beronsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabi yuzdan ziyodi topilgan. Bu qoyatosh tasvirlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami turlarini kuzatish mumkin. Bular ibridoiy sher va yo'lbarlar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayronlardir. O'zbekistondagi qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatidan xilma-xil. Unda odamlar, ov, yirtqich hayvonlar to'qnashuvi manzaralari tasvirlangan. Bu tasvirlar orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat quollarini bilib olish mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlari qadimgi ajdodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'r ganishda muhim ahamiyatga ega. Negaki, ibridoiy odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, sodda tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov quollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar. Ko'hitang tog'inining yuqorisida joylashgan g'orni «Oltin olov qoyasi» yoki «Oltin olov darasi» deb atashgan. Chunki zar-oltin, o't-olv ma'nosida bu yodgorlik «Zarautsoy» deb atalgan. Zarautsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarni hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilish bilan birga ibridoiy badiiy madaniyatning o'ziga xos jihatlarini anglashga yordam beradi. Ibtidoiy odamlarning tirikchilik manbai bo'lgan ov manzarasini kuzatish orqali ovchilik ilmining ayrim qirralarini o'r ganamiz.

Tasviriy san'atning ibridoiy davrga mansub namunalaridan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomli toshdagagi tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan. Qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi «Sarmishsoy» tasvirlarida esa ibridoiy rassomlar ijodi o'z aksini topgan. Bu ibridoiy tasviriy san'at asarlari Sarmishsoy darasining ikki

yuzida qad ko'targan qoyatoshlarning silliq yuzasiga solingan. Sarmishsoy qoyalarida yovvoyi buqalar, shoxdor bug'i va qulonlar, elib borayotgan tog' takasi, ohu, to'ng'iz, bo'ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va honaki hayvonlar, shuningdek, ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan. Qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik, shakl va chiziqlar orqali bo'layotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatları ko'zga tashlanadi. Qoyatosh, daralar va g'orlardagi rasmlar mazmunan boy bo'lishi bilan birga xilma-xildir. Ularda turli manzaralar o'z aksini topgan. Umuman bu tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg'ulari yuzaga chiqqanligini ko'ramiz. Bu rasmlarda har bir belgi, qoralama yoki shakl o'ziga xos fikrni, hatto sehru jodularni ifodalab berishi bilan qiziqarlidir. Shulardan ko'rindiki, ajdodlarimiz hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o'rin tutgan. Ma'lumki, inson o'z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan muvaffaqiyatlar urf-odat, udum, marosim, an'ana va bayram- xursandchilikni vujudga keltirgan. Madaniyatshunoslar fikricha bayram va marosimlar eng qadimgi davrdayoq mavjud bo'lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muhim rol o'ynagan. D.M. Genkining fikricha, «marosim va bayramlarning chuqur ildizi insoniyatning «go'daklik» davriga borib taqaladi». M. M. Baxtining ta'kidlashicha, «Bayram insoniyat madaniyatining boshlang'ich shaklidir». Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun kechirgan davrlarda yaqqol sodir bo'la boshlagan. Yuqorida tilga olgan tasvirlarda asosan hayvonlar, ov qilish, ovchilar raqsi (ba'zan hayvonlar niqobida) kabi tasvirlar qadimi odamlarning o'z mehnati (ovi) natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik marosim – udumlari muhim o'rin tutgan. Ovchilik marosimlari ovdan oldin ham ovdan keyin ham o'tkazilgan. Shuningdek, ovchilik marosimlari-ovga tayyorgarlik, yoshlarni ovga o'rgatish va ovdan keyingi tantanalarni ifodalab, tasvirlarda aks etgan. Buni biz Zarautsov va Saymalitosh rasmlarida nafaqat totemlarga sig'inish, balki ov marosim-bayramlari ham aks etganligini ko'ramiz. Ilk bor mahsus uyushtirila boshlangan marosim- bayramlar totemlarga bag'ishlangan. Ya.P. Belousovning fikricha, «Eng qadimi va ommaviy marosimlar qatoriga zoofalik marosimlarni kiritish mumkin». Bu marosimlarda turli joylarda totem hisoblangan turli hayvonlar-ayiq, yovvoyi echki, sigir, bug'u, ot, bo'ri kabilarga topinganlar. o'rtal Osiyoda ilon, buqa, qo'y, ot, tuya, sher totemlari keng tarqalgan. Buni biz qazilma yodgorliklardan topilgan amaliy san'at buyumlari misolida kuzatishimiz mumkin. Mehnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning ishlab chiqaruvchi ho'jalikka (neolitda) o'tish natijasida yangi sohalarga oid marosim va bayramlar vujudga kela boshladi. Bu «Mehnat marosimlari» bo'lib, u ham o'z o'rnida madaniyat va san'at (teatr, raqs, pantamimo san'atining primitiv ko'rinishlari) ning rivojlanishiga zamin yaratdi. G. Chayldning ta'kidlashicha, bundan 10 ming yilcha oldin neolit yoki agrar inqilob sodir bo'ladi. U eng avvalo, Old Osiyo va Yaqin Sharqda sodir bo'lib, bu dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi bilan bog'liq. o'troq turmush tarzi ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishi uchun sharoit yaratdi. To'qimachilik, kulolchilik, uy-joy qurilish paydo

bo‘ldi. Tabiiy tanlanish o‘simlik navlari va hayvonlar zotining o‘zgarishiga asta – sekin, an’anaviy takrorlanuvchi muvofiqlikni paydo qildi. Agrar soha astronomik kuzatishlarni tartibga solishni talab qildi. Bu davrda insoniyat tafakkurining rivojlanishi mifologiyani shakllantirdi. Mif va mifologiya eng avvalo antropomorfizm-tabiatdagi narsalarga ham odamga xos deb qarashni va xudolarni odam qiyofasida tasavvur qilishni ifodalaydi. Mif va mifologiyani qadimgi e’tiqodlardan farqi, olamdagи barcha mavjud munosabat va qadriyatlarni izohlashni o‘ziga oladi. Bu o‘sha davrlarni bilishning o‘ziga xos nazariy asosi va mahsus shaklidir. Negaki bilim-yorqin rang-baranglik, ifodalilik, jo‘shqinlikdir. Mifologiya dastlabki bosqichda kishilar uchun bilim o‘rganish va mustahkamlashning yagona manbai va usuli emasligi dargumon. Biroq, L.S. Vasilevning ta’kidlashicha, bilimni mustahkamlash bu–mifni o‘rganish yo‘li bilan emas, balki uning udumlari, marosimlarining amalda takrorlanib tarqalishida sodir bo‘ladi. Mif va marosim arxaik madaniyatning go‘yoki ikki tomoni, ya’ni – so‘zdagi va harakatdagi, nazariy va amaliy. Mifologik bilim ilmiy haqiqatga ma’lum miqdorda dahldordir. Mifologik bilimning ikkita asosiy ijtimoiy vazifasi bor:

1.Ushbu umumiyliking asosiy vazifalarini, ularning odatiy mavjudligini kishilar ongiga kirgizish va mustahkamlash, xususan, shakllangan qoidalarni tasdiqlash, qonuniylashtirish va hatto jamoani tiklash va barqarorlikni ta’minalash uchun ularni an’anaga aylantirish;

2. Jamoani qo‘rquvidan xalos qilish maqsadida va ruhiy halovatni kafolatlashda atrof-muhit bilan, butun tashqi olam bilan mustahkam aloqa o‘rnatish va ta’minalash.

Mif olamni mavhum g‘oyalardan buzilgan tarzini o‘zida namoyon qilib, noaniq va quruq muhokamalarning shakllanishiga imkon beradi ya’ni, dastlabki davrda insonni uni chulg‘ab turgan aniq kundalik ishlardan fikrini chalg‘itib, hayoliy poetik olamga olib kiradi. Mif olamni jamoa bo‘lib an’anaviy his qilishdir, negaki, shu alfozda u har doim ilk diniy tasavvurlar majmuining negizi hisoblangan. Mif-dastlabki dunyoqarashning zaruriy, muqarrar shaklidir. Umum tasavvurlar mifning shakllanishiga sabab bo‘lolmaydi va hissiy tajriba-kuzatishlar uchun ham, noaniq-mavhum mulohazalarga ham asos bo‘lolmaydi. Guruhlar tushunchasi eng avvalo butun borlikni o‘ziga qo‘shib hissiy qayg‘urishga tayanadi. Axborotlar hajmini behad o‘sayotganligi uni uzatishning yangi kanallarini yaratishni talab qildi. Miflarning paydo bo‘lishi mavhum tushunchalar vujudga kelganligi haqida, insonning nutqi rivojlanayotganligi haqida guvoh beradi. Bunga bir misol – tasviriy san’atning rivojlanishidir: rasmlar bir qadar aniqlashib, soddalik va shartlilik kuchayib boradi. Tasvir ko‘proq ramziylik belgi xususiyatini kasb etib, buning yordamida axborot berish mumkin bo‘ladi. Topilgan petrogliflar (toshbitiklar) insonlar jamoasining hayot hodisalari haqida etarli, mufassal hikoyalarni o‘zida saqlab kelgan. Bunday tasvirlarga misol qilib Surxandaryoning Zarao‘tsoy darasidagi qoyatosh rasmlarini ko‘rsatish mumkin. Bilimlarni saqlash va uzatishning yana bir vositasi jamoaning alohida a’zolari, boshqa kundalik ishlardan ozod qilinib, faqat ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va uzatish bilan shug‘ullangan. Bunday kishilar shamanlarga (sehrgarlarga) aylangan. Shamanlarni

ko‘pi yoshi ulug‘, hayotiy bilim va tajribaga ega, tabiatni kuzatib o‘zlashtirgan, marosim va udumlarni biluvchi kishilar bo‘lgan. Masalan, Shimoliy Amerika hindularning adjibve qabilasi shamanlari o‘zi yashayotgan joyning ov qilish shartlarini, hayvonlarning o‘ziga xos fe’lini puxta o‘rganadi, ovdan qaytgan ovchilardan har doim surishtirib o‘z bilimini oshiradi. Uzlashtirgan ma’lumotlari shamanga to‘g‘ri qaror chiqarish imkonini berib, shu tariqa u qabila va urug‘ a’zolari ichida obro‘ga ega bo‘lishiga va natijada sehrgarlik udumlarini bajaruvchi asosiy ijrochisiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo mintaqasida Neolit davri ancha oldin boshlangan. Bunga mil. av. VI ming yillikda Kopetdog‘ etagida vujudga kelgan Joytun madaniyati guvohlik beradi. O’troq dehqonlar va chorvadorlarning bu madaniyati asosan, samonli loydan qurilgan uylardan iborat manzilgoh bo‘lib Eron va Mesopotamiya xalqlari madaniyati bilan yaqin aloqada shakllangan Joytunliklarning ma’naviy madaniyatini rivoji haqida katta umumiylibodatxona devorlariga ishlangan rangtasvir dalil bo‘ladi. Mil. av. IV-III ming yillikda Xorazm xududida neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati shakllandi. Neolit inqilobi mohiyatiga ko‘ra arxaik madaniyatning oxiri hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatining yangi turi-dehqonchilik va chorvachilikka o‘tish bilan inson tabiatda mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyatini namoyon qildi, bu insonning ijtimoiy va ma’naviy g‘alabasi edi. Agar arxaik madaniyatda jamoat fikri etakchilik qilib, urug‘ a’zosi, urug‘ manfaatlari doirasida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, endi individual ong va qiziqish kuchaya boshladi. Neolit davrining oxiri va jez asrida arxaik madaniyat barham topdi. Bu davrda jamoa mulki o‘rniga xususiy mulk vujudga kelib, hunarmandchilik ajralib chiqadi va mahsulot ayrboshlash shakllanadi. Ijtimoiy tuzum shakli murakkablashadi. Mustaqil xo‘jalik yuritishda muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurati, ko‘pincha jamoaning boshqa a’zolari yoki qabila oilalar bilan qarindoshlik aloqalarining bog‘lanmaganligi maxsus boshqaruv apparatini tuzishni talab qildi. Endi oqsoqollar va qabila yo‘lboshchilar qig‘inining ahamiyati sezilarli oshdi, bu qabila yo‘lboshchilariga sig‘inishni shakllantira boshladi. Yo‘lboshchi qabilaning baxt-saodat sohibi, ajdodlar ruhi unga tuhfa qilgan mahsus fazilat «omad»egasi sifatida demokratiya belgilariga hurmat saqlaydi. Yo‘lboshchilarga sig‘inishda yo‘lboshchining jamoa hayotida tutgan muhim o‘rnini e’tirof qilish ifodasi turadi: U nafaqat qabila xududini qo‘riqlashni tashkil qilib qolmay harbiy yurishga boshchilik qiladi ham, shuningdek, muhim jamoat ishlarini bajarish uchun xonadanlarni birlashtiradi va jalb qiladi (kanal qazish, muhofaza to‘sig‘lar o‘rnatish; yaylov, o‘rmon, daryolar kabi umum foydalanadigan mulklar uchun). Bilimning oshishi natijasida murakkab buyumlar yaratila boshlandi. Qayiq va elkanli kemalar, taqvim, hisob va o‘lchov tizimi vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning paydo bo‘lishi huquqning shakllanishiga olib keldi. Ayrimlari hozirgacha saqlanib kelayotgan an’analar va qadimgi folklor namunalari vujudga keladi (miflar, dostonlar, hikoyalar, marosim qo‘shiqlari), yozuvning ilk tizimi shakllanadi; piktografik (rasm-yozuv), belgi yoki hindularning tugunli yozuvlari. Monumental me’morchilik ham vujudga keldi. Ilk monumental inshoatlar katta tosh bo‘lak va tosh plitalardan qurilgan megalitlar hisoblanadi. Megalit inshoatlarning turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, mengirlar baland toshdan iborat bo‘lib, balandligi 20 metrdan oshadi, ular alohida

yoki xiyobonlarga qator qilib qurilgan. Dolmenlar (tosh maqbaralar) tosh plitalardan sag‘ana yoki maqbara (kulba) shaklda qurilgan. Kromlexlar esa atrofiga toshlar yotqizilgan inshoatlardir. Eng mashhur kromlex buyuk Britaniyadagi Stounxendj hisoblanadi. (mil. avv. II ming yillik boshlariga oid). Megalitlar sajdagoh va ibodatlar joyi sanalsada, aslida ular boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan. Megalitlar xalqlarni birlashtirib, jamoaning barcha kuchlarini jipslashtirishga, yangi ijtimoiy tuzum vujudga kelayotgan hollarda insonlarni umumlashtirish (sotsalizatsiya) maqsadlariga xizmat qildi. Negaki, davlat tuzilishi jarayonida turli ijtimoiy qatlamlarning bo‘linishi sodir bo‘ladi; boshqaruvchilar, ma’naviy madaniyat va bilim egalari kohinlar va oddiy bajaruvchilar. Uzbekiston xududida jez davri mil. avv. II ming yillik boshlarini o‘z ichiga oladi. Xuddi shu davrda ikki turdagи mustaqil madaniyat shakllanib aniq ajraladi: o‘troq dehqonchilik vohalaridagi madaniyat; ko‘chmanchi dashtliklar madaniyati. o‘troq dehqonchilik madaniyati dastlab Surxondaryo vohasidagi Sopollitepa, Jarqo‘ton madaniyatları, Farg‘ona vodiysidagi Chust madaniyati, ikkinchisi- Zamombobo, Tozabog‘yob, Suyargan va Amirobod kabi joylarda vujudga keldi. O‘zbekiston janubi-Surxondaryo viloyatida hozirda ham mashhur bo‘lgan ustalar, zargarlar va san’atkor – quruvchilar yaratgan madaniyat eng qadimgi madaniyatdir. Mil. avv. XVIII-X ming yillikka oid Sopollitepa va Jarqo‘ton manzilgohlarida qadimgi sharq turidagi ilk shaharnoma sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni kuzatiladi. Sopollitepa labirintnoma (qasr) to‘g‘ri burchakli ko‘cha tarmog‘i va istehkom tizimi bo‘lgan manzilgohlar majmuidan tashkil topgan. Jarko‘tonda ham monumental me’morchilik xom g‘ishtdan qurilgan. Markazda qal'a joylashgan, uylar xom g‘ishtdan baland ko‘tarib qurilgan. xar bir guzarda binoning o‘rtasida yumaloq o‘choq shaklida devor tokchasida olov mehrobdan iborat sig‘inadigan markazi bo‘lgan. Ikkala manzilgohda jez eritish, to‘qimachilik, kulolchilik, zargarlik; suyak, tosh, yog‘ochga ishlov berish gullab-yashnagan. Turli kulolchilik buyumlarini kulolchilik dastgohida pishirib sifatli tayyorlanganligi, shaklining chiroyliligi kulolchilik sohasining texnika va texnologiyasi yuqoriligidan dalolat beradi. Topilgan namunalardan ma’lum bo‘lishicha Ozbekistonning Janubida yashovchi aholi qadimgi sharq, ayniqsa hind vodiysidagi Xarappa sivilizatsiyasi namunalari bilan keng hamkorlikda bo‘lgan. Buni Sopollitepa va Jarko‘ton shuningdek, Uzbekistonning boshqa dehqonchilik madaniyatida ham uchratish mumkin. Bronza davrida shakllangan «ko‘chmanchi chorvadorlar» madaniyati mil. avv. III ming yillik oxiri-II m. y. boshlariga oid bo‘lgan Buxoro vohasidagi Zamombobo manzilgohida o‘rganilgan. Zamombobo aholisi katta yarim erto‘lalarda yashab, bronza va tosh quollar ishlatishgan. Kulolchilik dastgohisiz qo‘lda ishlangan tagi yumaloq, yassi sopol idishlardan foydalangan. Jez davrida madaniyat yodgorliklari Amudaryo va Zarafshonning qo‘yi oqimidan, Toshkent vohasi, Farg‘ona vodiysi, Samarcand viloyatidan topilgan. Ular chorvador qabilalar madaniyatining vujudga kelishi haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Chorvador qabilalar jez davrida o‘troq turmush tarziga o‘ta boshladi, qisman dehqonchilik bilan shug‘ullanadi, keyinchalik ko‘chmanchi chorvadorlarga aylanishgan. Arxaik madaniyat o‘rniga qadimgi sivilizatsiya madaniyati o‘rnatildi: murakkab-ijtimoiy tizimga ega bo‘lgan dastlabki davlatlar, diniy va qonunchilik

shakllarining rivojlanishi, shahar va yozuvlar. Biroq arxaik madaniyat izsiz yo'qolmadi. Uning ayrim qirralari jahon xalqlari miflarda, folklerida, inson ruhiyatining chuqur «arxetiplari» da saqlangan. K. Yungning nazariyasiga ko'ra arxetiplar- «ongsiz jamoaning» ruhiy tuzumidir. Ular zamondan tashqarida namoyon bo'lib, shunga muvofiq tarzda qiyofalar, yashagan va yashovchi kishilarning tuyg'usi va fikri shakllanadi, ramziy tasvirlarda, miflarda aks etgan jamoaga xos bo'lgan tarixiy tajribada olamni anglashning ibtidoiy shakllari saqlangan. Kishilar ko'pincha o'zлari payqamagan holda u yoki bu an'analar bilan, ulardagi arxetipik ramzlardan ajralgan holda yashaydilar. Barcha zamonaviy madaniyatlar asosidagi bu chuqur negizni sezish va o'rganish hozirda sodir bo'layotgan jarayonlarni yaxshi tahlil qilishimizga, ma'lum ma'noda kelajakka nazar tashlashimizga yordam beradi.

Tayanch so'z va iboralar

Madaniyat, manaviyat, individium, sotsium, qonuniyat, ziyolilik, intellekt, funksiya, mentalitet.

Mavzu bo'yicha takrorlash uchun savollar

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. T.: «Yangi asr avlodi», 2001 y.
2. Madaniyatshunoslik. Ma'ruza matni. Gulmetov Ye. va boshqalar. T.: DITAF, 2000 y.
3. Ma'naviyat yulduzları. T.: 1998 y.
4. Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug'at. T.: 1998 y.
5. Umarov Ye. «Madaniyatshunoslik». Yangi asr avlodi 2005 y.
6. Xayrullayev M. O'rta Osiyo uyg'onish davri madaniyati. T.: «Fan», 1995y.

II-Mavzu. Qadimgi Sharqda madaniyat va din uyg'unligi.

Sharq nafaqat eng qadimiy sivilizatsiya balki barcha jaxon dirlari beshigidir. Biz budavrni o'rganishdan avval din tushunchasi , uning o'ziga xos tomonlariga qisqacha ta'rif berib o'tsak. Olimlar fan taraqqiyoti jarayonida ma'lum metodlarga asoslanib izlanishlar olib borgan va bu izlanishlarning natijasida muhim xulosalar shakllangan. Talabalar diqqatini mana shu xulosalarga qaratish maqsadga muvofiqdir:

jarayondir. Din so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, isnonmoq ma'nosini bildiradi. E'tiqod so'zi ham arab tilidan kirib kelgan, chuqur va mustahkam ishonch ma'nosida ishlataladi. Demak, diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslak, ishonish tushuniladi.

Qadimgi Sharq hududida mil. avv. X-VII ming yillikda insoniyat sivilizatsiyasi va madaniyati rivojlanishining ibtidosi bilan bog'liq bo'lgan eng muhim jarayonlar ro'y beradi. Bu davrda SHarqda madaniy faoliyatning turli shakllari va sohalari

vujudga keladi. Yozuv, adabiyot, san'at, fan, birinchi jahon dini- buddizm paydo bo'ladi. Bu boshlang'ich jarayonsiz insoniyat madaniyatining keyingi barcha taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin.

Qadimgi Sharq tushunchasi, Sharq haqidagi hozirgi tasavvurlarga mos kelmaydi. Negaki, qadimgi Sharq er sharining Misrdan to Xitoygacha bo'lgan keng mintaqasini o'z ichiga olib, bu erda mil. avv. VII ming yillikdan boshlab insoniyat tarixida dastlabki sivilizatsiya vujudga kela boshladi. Madaniyatning shakllanishi eng yirik daryolar – Nil, Dajla va Frot, Xind va Gang, Xuanxe va Yanszi vodiysida, ya'ni dehqonchilik rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud bo'lgan joylarda ro'y berdi. Xuddi shu joylarda dastlabki davlatchilik tuzilmasi, siyosiy, diniy va savdo markazi sifatida shaharlar, yozuv vujudga kelgan. Bu erda dastlab ma'naviy madaniyat ishlab chiqaruvchi mehnat faoliyatidan bevosita ajralib mustaqil faoliyatga aylanadi. Jamiat hayatida alohida kishilar qatlami boshqaruv, ta'lim, ma'lumotlarni to'plovchi va uzatuvchi sohalarda shug'ullanuvchilar ajraladi va ko'payib boradi.

Misr, Mesopotamiya, Xind va Xitoy sivilizatsiyalari eng ko'hna va yirik madaniyatlar edi. Bu madaniyatlar ta'sirida Urartu, Finikiya, Xett, Elam sivilizatsiyalari shakllanib, insoniyat madaniyati tarixida sezilarli ta'sirga ega bo'ldi.

I.P. Veynbergning ta'kidlashicha, qadimgi Sharq madaniyati «ilk kashfiyotchi va asoschi sifatida ulkan missiyani» bajardi; yozuvni ishlab chiqish va davlatchilik poydevorini qurish, o'zining etnik, kasbiy, mulkiy va ijtimoiy ahvoli bilan farqlanuvchi kishilarning birga yashashlari uchun sharoit yaratdi. Agar boshqa madaniyatlar ibtidoiy va qadimgi Sharq madaniyatining tajriba va yutuqlaridan foydalangan bo'lsa, qadimgi Sharq madaniyatining o'zi esa ibtidoiylikning bir tarzida shakllandi. Ibtidoiy muhitning ta'siri kuchli va doimiy bo'ldi. Ibtidoiy davrdan meros bo'lib mifologik fikrlash usuli, nutq va faoliyat o'tdi. SHu bilan birga qadimgi Sharq madaniyati namunalari o'z dunyosining «boshlovchisi», «yangiliklarini» o'ziga xos jiddiy his qildi. Misr, Mesopotamiya, Xind va Xitoy miflarida nafaqat «dunyoning yaratilishi» (osmon, er, jonivorlar, inson) mavzui, balki, bu rivoyatlar olamida ibtidoiy dunyodan keskin farqlovchi «madaniylarning yaratilishi» mavzui ham katta o'rinn egallaydi. «Enklar va koinot» (Mesopotamiya), tangri Ptax haqida (Misr), Xitoyning afsonaviy hukmdori haqidagi miflarda xudolar va ilk ajdodlar dehqonchilik va hunarmandchilik kashfiyotchilari, ilk shaharlar bunyodkori, davlatchilik va dinni o'rnatuvchilar, qonun va yozuv ijodkorlari sifatida ya'ni, ibtidoiylikdan farqlanuvchi sivilizatsiyaning barcha yutuqlarini yaratuvchilar bo'lib tasvirlanadi. SHuningdek, miflarda bir-biriga mos kelmaydigan, qarama-qarshi va bu ikki dunyoning dashmanligi mavzui ham tasvirlanadi. qadimgi Sharq xalqlarining urf-odatlari va e'tiqodlari haqida ma'lumotlar turli manba'larda, adabiyot va san'at yodgorliklarida saqlanib qolganki, bular bizning tasavvur dunyomizni keskin farq qiluvchi olamga boshlaydi. qadimgi Sharq madaniyatining shakllanishida mifologik tafakkur katta rol o'ynagan.

Mifologik tafakkur-bu predmetlik-hissiy, jonli tafakkur etarli rivojlanmagan mavhum tushunchalarga xos bo'lib, bunday tushunchalarni ishlatish va so'zda

ularni ifodalashning sustligi va qiyinligidir. (Shumerliklar «o'ldirish» deyish o'rniqa «boshiga tayoq bilan urish» deyishgan). qadimgi SHarq kishisi sababli natija munosabatlarni tushungan va farqlagan, biroq ularni mujmal va qonunga mos bo'limgan hodisa sifatida, ko'pchiligi esa shaxsiy qudrat sifatida ongli va ixtiyoriy idrok qiladi. Sabablarni izlashda «qanday» deb emas, balki «kim» deb so'rashadi («hodisada kim aybdor»), «ixtiyoriy, aniq maqsadda harakat qilganni» izlashgan. «Sabablarni» bunday idrok qilish oqibatida mifologik tafakkur ayrim va butuncha, bir-biriga o'xshash har qanday tashqi moslikni qabul qiladi. Funksional aloqadorlik sifatida makon va zamondagi har qanday bog'liqlik so'zi bilan mifologik tafakkurning fikran bog'liqligi haqida gapirishga imkon tug'iladi. Fikriy bog'liklik bilan o'xshash tafakkur ham aloqador. qandaydir yangi narsani ko'rib inson o'ziga deydi: «Bu yangi narsa nimaga o'xshaydi?»- va unga o'xshash narsani o'zidan va ajdodlari tajribasidan izlaydi. Xususan, «asl namuna» tamoyili keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra hayotdagi barcha muhim narsalar (ehrom, podsho hokimiyati, inson) ilohiy qudratning «asl namunasiga» muvofiq yaratilgan.

Olamni mifologik tasavvur qilish uning nihoyatda tartibli, qat'iy ierarxik qurilishida ifodalanib, uning asosi turli xil oppozitsiyalar tizimi hisoblanadi. Aynan shular mifologik ramziy tasniflashdagi dastlabki «poydevor» hisoblanadi (qarama-qarshi tiplar: yuqori-qo'yi, o'ng-so'l, osmon-er, mag'rib-mashriq, kun-tun, bizzular, katta-kichik, er-xotin, hayot-o'lim va boshqalar). SHuningdek, o'ng, yuqori, katta, yaqin, o'z, yorug' taomilga ko'ra qarama-qarshilikning musbat-ijobiy tomonini, sul, quyi, kichik, uzoq, begona, qorong'i esa salbiy jihatini tashkil qiladi.

Mifologik tafakkurning muvofiq va o'xshash jihatlari uning an'anaviylici bilan bevosita bog'liq. An'ana bir-biriga yaqin, biroq mohiyatan boshqa bo'lgan hodisalar urf-odat, marosim, ibodat, udum, odob singari faoliyatda namoyon bo'ladi. Bularning bari u yoki bu sinuatsiyadagi aniq axloq dasturiga ega bo'lib, harakatning to'g'rilagini kafolatlaydi, noto'g'ri harakatlarni ogohlantiradi, negaki an'analar negizida sotsiumning katta tajribasi mujassamdir. qadimgi SHarq madaniyatida an'analarga asoslanish ustun turadi. Ajdodlar an'anasi, tajribasi mutloq haqiqat kabi baholangan. Mutloq haqiqat hukmronligi bilan, D.S. Lixachev ta'kidlashicha «odobililik» bog'liq bo'lgan. qadimgi Sharq kishisining axloqi harakat va faoliyatda muqaddas an'analarni qayta tiklashga qaratilgan « ilohiy o'rnatilgan» me'yor va qoidalarga borib taqaladi. A.Ya. Gurevich shunday deydi: «Kishilar harakatining ko'kdagi ilohiy timsolga talpinishi ularni iloh bilan bog'lab, axloqda voqelikka aylandi». Kishilarning barcha faoliyati (ishlab chiqarish, jamoatchilik, oilaviy) muqaddas marosimlarda qanchalik ishtirok etishi bilan mazmun kasb etadi. An'anaviy jamiyatda «qadimgi» va «yxaxshi» so'zleri sinonim bo'lib, qadimgi-ezgulikning kafolatidir. SHuning uchun uy va anjom, kiyim va oziqa ming yillar davomida kam o'zgardi, shuning uchun adabiy janrlar, san'at janrlari ham barqaror bo'lib kelmoqda, yangi ehromlar nafaqat eskisining o'rnida qad rostladi, balki ularning «asl namunasini» qaytadan tikladi. I.V. Klochkov yozishicha, yangi zamon kishilari dunyonи harakatda, rivojlanishida ko'radi, «Evolusiya», «taraqqiyot» tushunchalari dunyo qiyofasini yaratish uchun yo'l ochuvchi tasniflar hisoblanadi. Bundan barcha yangilikka zamonaviy jamiyatning ochko'z qiziqishi boshlanadi. Dunyoning boshqacha qiyofasi an'anaviy jamiyat

kishilaridan tashkil topadi: qadimgi dunyo yashaydi, biroq o'zgarmay qoladi. Rivojlanish g'oyasi (taraqqiyot yoki inqiroz) ko'rinishidan, uning anglanishishi mutlaqo begona. Dunyo juda qadimdan xudolar belgilagan o'zgarmas tartib bo'yicha yashaydi.

Mifologik tafakkurning o'ziga xos xususiyati shundaki, qadimgi sharq kishisi o'zini har doim sotsiumning bir qismi deb his qilgan, sotsium esa koinot kuchiga bog'liqlikda, tabiatga aralashgan holda ko'rindi. Garchi, qadimgi Sharq madaniyatining turli qirralarida shaxsni individuallashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ular har doim individning turmush sharoitlarini belgilovchi asosiy sohalarga nisbatan ikkinchi darajali hisoblangan. qadimgi Sharqda makonning paydo bo'lishi chegaralanishi alohida o'rin tutadi. qadimgi Sharq mifologiyasida kosmogenez jarayoni Xaosning ajralishi sifatida namoyon bo'ladi (Misol uchun, hindlarda Indra haqida mif, Mesopotamiyada Marduq haqida). Tartibli uyushgan makon, betartib makonga qarama-qarshi qo'yiladi. Tabiiyki, tartibli, tashkiliy jihatdan uyushgan makon- «yaxshi», «o'z» makonning, undan tashqarida «begona», «uning» betartib, tashkiliy uyushmagan «xunuk» makoni-ko'chmanchilik, ibtidoiylik dunyosi joylashgan. Shuning uchun san'at asarlarida boshqa xalqlarning o'ziga xos kiyimi, sochi, turmushi o'ta diqqat bilan aniq xuddi o'ziday tasvirlanadi – barcha qirrasida qarama-qarshi olamning farqi ta'kidlanadi.

«O'zining» makonida ijobjiy xususiyatga ega bo'lishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Shuni ta'kidalsh joizki, qadimgi sharqda davlat oddiy siyosiy hokimiyat sifatida o'zini namoyish qilmadi, davlat din bilan uyg'unlikda siyosiy-diniy birlik majmuida muqaddaslik xususiyatiga ega bo'ldi. Mohiyatan ma'naviy faoliyat davlat monopoliyasi hisoblanib, u bilan go'yoki ilohiy yoki fidoiylik martabasiga ega bo'lган zodagonlar, kohinlar va hukmdorning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Shoh er va osmon o'rtasidagi bosh vositachi yoki Neb xudosining o'g'li bo'lган, yoki xudolarning o'zidan boshqarishga «mandat» olgan. Bobil shohi yangi yil bayramida bosh xudo Marduk ibodatxonasiga borgan. Ibodatxonaga kirishda kohin shohning barcha narsalarini olib qo'yib (toji, hassasi, shohlik libosini), uni kamsitgan va urgan, shundan so'ng oyoq kiyimsiz, oddiy juldur kiyimda ibodatxonadan chiqishga ruxsat bergen. YA'ni, dastlab shoh oddiy odamga aylanishi, ibodatxonada esa uni xudo Marduk yana keyingi yil uchun hukmdor qilib tayinlagan. Faqat, Misr fir'avini uning otasi- Xudo Amon-Raga, Xitoy imperatori «Nebning o'g'li»- Nebga sajda qilishi bilan bog'liq asosiy udumlarni o'tkazish huquqiga ega bo'lган. Shohning asosiy majburiyatları fuqorolarga bog'liq ishlar bo'lган: mamlakatda tartib va osoyishtalik, moddiy farovonlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash. qadimgi Misrdagi «Gerakliopol shohining o'z o'g'li Merikarga nasixatlari» da aytishicha: «Xaqiqat o'rnat va erda uzoq yashaysan. SHunday qilki, yig'layotganni ovut, bevaga jabr qilma, insonni otasining mol-mulkidan benasib qilma». Yana hukmdor zaminda tartib-intizom bo'yicha yuksak missiyani bajarib, gohida behad katta hajmdagi qurilish-xo'jalik faoliyatini amalgalashgan. Ulug' va bahaybat Misr piramidalari, Buyuk Xitoy devori, Baolbek ehromi, Persepol saroyi qurilishlari xudolar oldidagi hukmdorlarning «ijobjiy» xususiyatlaridan dalolat beradi.

Diniy aqidalar hukmronligi kishilar hayotini belgiladi. Inson qaerda osmon bo‘lsa- xudolar dunyosi va erni- odamlar dunyosi deb bildi. Ular doimo o‘zaro munosabatda, bir butunlikda olam daraxtining tanasi va shoxlari kabi viqor bilan yashashgan. Xudolar insonlar hayotining barcha sohalariga faol aralashgan, uning tug‘ilishi, o‘limini va o‘limidan keyingi taqdirini belgilagan. o‘sha darvlarda diniy ta’limotdan tashqari hech qanday boshqa dunyoqarash bo‘lmagan. Inson xudolardan hatto arzimas narsalar haqida maslahat so‘ragan va unga xatlar yozib ibodatxonaga olib bergen. Misol uchun, qadimgi Bobil aholisining maktubidan birida shunday so‘zlar bitilgan: «Mening otam, Xudo ayt! Sening quling Apil-Adat shunday deydi: Nimaga sen menga e’tibor qilmaysan? Sendan boshqa kim ham bor? Seni sevuvchi xudo Mardukka yoz: mening gunohimdan o‘tsin».

Barcha qadimgi Sharq sivilizatsiyalari tabiiy-ilmiy bilimlarni to‘plab ulkan natijalarga erishdi va jahon fani rivojlanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. Ibtidoiy jamoa zamonlarida odam atrofdagi tabiatdan ustunlikni ham sezmagani, o‘zni uning egasi deb xisoblamagan va hayvonot dunyosidan hali ajralib chiqmagan edi. Har bir urug‘ yoki qabila o‘zining nasl – nasabini qanday bo‘lmasin bir hayvon, qush, baliq va hatto biron hashorat bilan bog‘lagan.. Quldorlik davlati sharoitida xudolarning ko‘pchiligi antropomorfik (odamsimon) qiyofaga kirgan.

Ikkinchisi tomondan matriarxatning patriatxat bilan almashinishi diniy ideologiyada o‘z aksini topgan. Eng qadimiy zamonlarda ayol xudolar, aftidan ustunlik rolini o‘ynagan bo‘lsalar kerak. Ibtidoiy suv ofati ma’buda Tnamay shaklida tasavvur etilganligi beziz emasdir. Keyinchalik, kohinlar diniy tasavvurlarni sistemaga solgan va Panteon vujudga keltirilgan (hamma xudolarga atab ibodatxona qurilgan) bir vaqtida undagi xuquqlarning ko‘pchiligi erkaklarda ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Ma’budalar esa garchi samoviy kengashda ishtirok etsalar ham, ammo bunda ikkinchi darajali rol o‘ynaydilar. Shunday qilib, patriatxat prinsiplari diniy sohada ham, garchi bir muncha kechikib bo‘lsa ham g‘alaba qozonadi. Ikkidaryo oralig‘ida qadrlangan xudolar soni juda ko‘p bo‘lgan. Har bir shahar, har qaysi shahar mahallasi, har bir kattaroq qishloq o‘zining xomisiysiga ega bo‘lgan. Bir xil xudolar butun mamlakatda izzat qilingan, boshqalari mahalliy xudolar xisoblangan. Tabiatdagi qonuniyatlar, hodisalar xuddi xo‘jalik hayotidagi o‘zgarishlar kabi xudolar hayotidagi voqealar bilan izohlanadi. Qadimgi shumerliklar kosmogoniya (olamni paydo bo‘lishi qadimgi ta’limot). konsepsiyasiga binoan, ulkan ayol qiyofasidagi birlamchi stixiyasi bo‘lgan. Okean tagida g‘oyat katta tog‘ shaklida qattiqlik paydo bo‘lgan, osmon xudosi AN uning cho‘qqisi hisoblangan, gardishsimon yassi tagi esa er ma’budasini KI deb tasavvur etilgan. Har ikkala xudo bir – biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ana shu ilohiy juftdan havo xudosi Enlil tug‘ilgan. U o‘sib o‘lg‘aygach, bu joy unga torlik qilib, birlamchi tog‘ni nigoh bilan kesib otasini (osmon) va onasini (Er) abadiy ajratib qo‘ygan. O‘sha vaqtdan boshlab Enlil Erni idora qiladigan bo‘lgan va xudolar avlodini vujudga keltirgan.

Bobil Ikkidaryo oralig‘ining bosh markaziga aylangach, olam haqidagi afsona qaytadan ishlangan. Yangi poytaxt homiysi hisoblangan xudo – Mardux olamning markazida turganligi ma’lum bo‘lgan. Marduxning (yosh bo‘lishiga

qaramay) obro'sini ko'tarish maqsadida, o'z xudosining ko'rsatgan alohida xizmatlari tufayli boshqa xudolardan ustunligi huquqini asoslab berish niyatida yangi afsona to'qib chiqaradilar. Afsonaga ko'ra okean ma'budasi Tiamat Bobil rivoyatida yovuz va yirtqich bahaybat ro'dapo maxluq qilib tasvirlangan. U o'z zaminida yuzaga kelgan barcha xudolarni yo'q qilishga urinadi. Xudolar ichida eng jasur va dov yuragi bo'lган Mardux jangga kirib Tiamat ustidan g'alaba qozonadi. Shundan keyin yosh xudo kuchdan toygan ro'daponi osongina mag'lubiyatga uchratgan va uning tanasini ustki qismidan osmonni, pastki qismidan esa erni yaratgan. So'ngra hamma vujudlarni bunyodga keltirgan. Shumerliklar va akkadliklar tabiat bilan bo'lganda erishilgan barcha yutuqlarni, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni qo'shishga o'rgatish, hunarning paydo bo'lishi va shu kabi juda katta xo'jalik o'zgarishlarini osmonning irodasiga bog'laganlar, odamlarni esa osmonning oldindan belgilab qo'ygan bo'ryuqlarini faqat ko'r-ko'rona ijro etuvchilar deb hisoblaganlar. Azob chekkan xudolar ibrati sabr-toqat va yuvvoshlik tavozening bo'lishi muqarrarligi va zarurligini targ'ib qilish uchun foydalanilgan va bundan hukmron sinf manfaatlari uchun bemalol foydalanish mumkin bo'lган. SHuningdek, tabiiy ofatlarni odamlarning itoatsizligi uchun xudolar tomonidan yuboriladigan jazo deb tushuntirib berishga intilishda ham yuvvoshlikni (mo'minlikni) targ'ib qilish ko'rinar edi. Qullar va quzdorlar o'rtasidagi ziddiyatning keskinlashuvi munosabati bilan, Oliy xudo cheksiz hokimiyatga ega bo'lib qoladi. Xudolar sharafiga qurbanliklar berilgan. Eramizdan avvalgi III-ming yilliklarda endi odamlarni qurban qilish o'mniga qo'zilar qurban qilinadigan bo'lган. Bayramlar vaqtida but (sanam)lar tantanali marosimda kanallar bo'yab olib borilgan, mo'zika asboblari chalinib, duolar o'qilgan. Kadimgi Misr ilk sivilizatsiya o'choklaridan biri sifatida o'ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi. U Afrikaning shimoli-sharkida joylashgan. Nil –dunyodagi eng katta daryolaridan biri bo'lib, u Markaziy Afrikadan boshlanib, Misrni kesib o'tib, O'rta er dengiziga ko'yiladi. Misrda ilk dehkonchilikning paydo bo'lishi ham eng avvalo shu daryo bilan bog'lik bo'lган. Kadimdan Misrda tabiatni issik, hayvonot, o'simlik dunyosi va er osti boyliklari ko'p bo'lganligi bois bu erda moddiy va ma'naviy madaniyat juda erta vujudga kelib rivojlangan. Misrda davlatning paydo bo'lishi mil. avv. IV ming yillikning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrlarda Nil daryosining shimolida va janubida 40 dan ortik shahar davlatlari – nomlar paydo bo'lган. Nomlarni nomarxlar boshkarib, ular dehkonchilik, chorvachilik, sug'orish, harbiy va diniy ishlarni boshkarganlar. Bular ilk kuldorlik davlatlari edilar. Bu davlatchalarining shimoliy va janubiy birlashmalari vujudga keladi. Mil. avv. III minginchchi yil boshlarida Janub podshosi Minaning Shimoliy uyushma ustidan g'alaba kilishi natijasida yagona Misr davlatiga asos solinadi. Uning poytaxti Memfis shahri bo'lган. Kadimgi Misr dunyo sivilizatsiyasining tom ma'nodagi klassik namunasi bo'ldi. Shuning uchun ham qadimgi yunon tarixchisi Gerodot bu mamlakatni "Nilning in'omi" deb bejiz aytmagan. Bahor oylarida Nil toshkini natijasida daryo bo'yalaridagi erlarda hosil bo'lган kora mineralga boy koldiklar dehkonchilik uchun "tekin ozuqa" bo'lib xizmat kilgan. Daryo bo'yalarida turli xil granit, marmar kabi toshlarning bo'lishi esa kurilishga yaxshi material hisoblangan. Misr tarixinining barcha davrlarida hayvonlar, tabiat hodisalari va ota-bobolar ruhiga

e'tikod kilish keng tarkalgan. SHu bilan birga Misrda yagona davlatning vujudga kelishi bilan firavn – podsholarga e'tikod kilish va ularni ilohiyashtirish paydo bo'lган. Birinchi o'rinda karchig'ay boshli Kuyosh xudosi – Ra yoki Amon-Ra bo'lib, u har kuni oltin kayikchasida osmonni kezib chikadi va g'arbg'a tushadi (misrliklar tasavvurida). Misrliklar Kuyosh xudosiga atab ibodatxonalar kurganlar. Misrda turli, o'ta chalkash topinishlar tizimi mavjud bo'lган: xudolarga sig'ingan, jonivor, o'simlik, tuproq, suv, Nilni muqaddaslashtirgan. Quyosha, tirik xudo-Fir'avnga sig'inish qonun tusiga kirgan. Misrliklar madaniyatida dafn marosimi alohida o'rin tutgan. Ular o'limni insonning ikkinchi hayot boshlanishi deb bilgan. Mangu hayot tushunchasi Osiris va Izida haqidagi mifdan paydo bo'lган. Qadimgi yunon muallifi «Misrliklar hayoti o'limga tayyorgarlik ko'rishdan iborat»-deb bekorga yozmagan. Xudolar ichida Osiris alohida o'rin tutadi. U avval dehkonchilik homysi bo'lib, eshak boshli, kizil ko'zli yovuz xudo Set tomonidan o'ldirilgan. Osiris narigi dunyodagi podshohlikda shoh va sudyva bo'lib oladi. Xudolar misrliklar uchun birgina dunyoni yaratuvchi bo'libgina kolmay, hunarmandchilik, san'at, yozuv, hisob, sehrgarlik va ilm-fanning yaratuvchilari ham hisoblanganlar. Ular ieroglis yozuvini "Xudoning so'zi" deb tushunar edilar. Bunda so'z va hisob hukmroni, yozuvni yaratuvchisi, adabiyot va yozuvchilarning, sehrgarlar va tabiblarning homysi Totu hisoblangan. Misrda xudolarga sig'inish bilan birga podshoh - firavnlarga sig'inish ham alohida o'rin tutgan. Misrliklar Firavnni erdag'i xudo deb hisoblashar, shuning uchun ularga atab Piramidalar kurishgan, ularning nomlarini abadiylashtirganlar. Kadimgi podsholik davrida papirus kog'ozining tayyorlanishi yozma madaniyatni rivojlantirishga olib kelgan bo'lsa, Misrda mis davrida birinchi bo'lib asalarichilikning kashf kilinishi va yoyilishi ham dunyoviy ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga shu davrda dehkonchilik, bog'dorchilik, polizchilik va uzumchilik rivojlangan. Kadimgi Misr podsholigi davrida etakchi madaniyat yo'nalishi - bu arxitektura bo'lib, u boshka madaniyat turlari bilan uyg'unlikda rivojlandi. Birinchi piramida arxitektor Imxotep loyihasi asosida Fiza va Joserga atab Sakkarada (mil. avv. III ming yillikda) kuringan bo'lib, u buyi 60 metr, pillapoya shaklida kuringan. Imxotep birinchi arxitektor bo'libgina kolmay, ayni chog'da olim, yozuvchi, tabib ham edi. Vafotidan keyin unga atab ibodatxona kuringan. Ikkinchisi Dashurda kuringan Snofru piramidasi to'rt burchakli shaklda bo'lib, uning bo'yi 100 metr edi. Gizadagi firavn Xufu makbarasi-piramidasi o'zining ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Xufu (yunoncha Xeops) makbarasining bo'yi 150 metr (hozir 146 metr), egallagan joyi 52,900 m² bo'lib, uning kurilishiga og'irligi 2-15 tonnalik 2 mln. 300 mingta tarashlangan tosh ishlatilgan. Piramida 30 yil ichida kuringan. Xufu piramidasi olamning etti mo'jizasining biri hisoblanadi. Gizada kuringan ulkan sfinks (uzunligi 57 metr) Xafra sher surati tarzida bo'lib, o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Hammasi bo'lib 80 ga yakin piramidalar kuringan. Piramidalar Kadimgi Misrning o'ziga xos ramziga aylangan. Piramidalar kuringanlihi Kadimgi Misr uchun juda kimmata tushgan va Misr iktisodini izdan chikaraboshlagan. SHu sababli firavnlar mil.avv. XVII asrdan e'tiboran piramidalar kurishdan voz kechganlar. Arxitektura bilan birgalikda haykaltaroshlik namunalari ham yaratilgan. Bular jumlasiga firavn Narmer (bo'yi – 64 sm), "qishloq oqsoqoli",

"Mirzo Kan", "Shahzoda Raxotep va uning rafiqasi Nofret" kabi toshdan yasalgan haykalchalarni nisbat berish mumkin. O'rtalik podsholik, yoki boshkacha kilib aytganda klassik davrda quollar yasashda bronzadan keng foydalana boshlangan. Oyna ishlab chikarish yo'lga ko'yiladi. Kadimgi ayniksa o'rta podsholik davrida matematika sohasida katta yutuklarga erishilgan. Jumladan, sanoq tizimi kashf etilgan. Misr yozuvida 1, 10, 100, 1000, 10000, 100000, hatto millionni ham bildiruvchi alohida belgilar bo'lgan. Misr astronomlari yulduzlar, sayyoralar harakatini o'rganib, birinchi yulduzlar osmoni xaritasini tuzganlar. SHunday xaritalar Senmut makbarasi, Edfu va Dendir ibodatxonalarining shiplarida saklanib kolgan. Misr astronomlari dunyoda birinchi bo'lib alohida takvim tuzganlar. Unga ko'ra, bir yil 365 kunni tashkil kilib, u 12 oyga bo'linadi. Har oy 30 kundan iborat bo'lgan Kolgan 5 kunni esa bayram kilishgan. Qum va suv soatlari ham dastlab Misrda kashf etilgan. O'rta podsholik davrida adabiyot juda rivojlangan. Bu davrda juda ko'p ko'shik, ertak va makollar yaratilgan. O'sha davrda "Ikki og'a-ini hakida", "To'g'ri va egri hakida", "Izida va Osiris haqida" ertaklar, "Sor va Set janjali" nomli afsonalar juda mashhur bo'lgan. Dunyoda birinchi bo'lib Misrda teatr kashf kilingan. Ibodatxonalarda diniy dramalar ko'yilgan. Xususan, teatrлarda Osirisning o'limi va kayta tirlishi ko'rinishlari ijro etilgan. Yangi podsholik davrida Misrda firavn Tutmos I davridan boshlab "Podsholar vodiysida" firavnlar o'zlariga mahobatli va labirintli makbaralarni, haykallarni kurdiradilar. Bularga Amenxotep III va Abusimbedagi Ramzus II g'orli makbaralari haykallari misol bo'la oladi. Ayniqsa, Fivada qurilgan Karnak va Luksor maqbaralari arxitektor Ineni boshchiligida kurilgan bo'lib, bu yirik arxitektura majmui kurilishida baland ustunlar ishlatalgan. Bu davrda ko'p janrli adabiyot ham rivojlanadi. Diniy "Marhumlar kitobi", realizm ruhidagi "Ikki og'a-ini hakida ertak", sevgi hakida "Yurakni rohatlantiruvchi ko'shik" kabi asarlar yuzaga keldi. Tasviriy san'at va haykaltaroshlikda firavnlarning turmush tarzini aks ettiruvchi asarlar yaratildi. Haykaltarosh Tutmos tomonidan yaratilgan firavn Exnaton va uning rafikasi Nefertiti asarlari o'zining betakrorligi, go'zalligi bilan kishilarni hayratga soladi. 1922 yili topilgan Tutatxamon makbarasidagi (yagona to'la saklanib kolgan) Misr madaniyatiga taallukli ko'plab kimmatlari yodgorliklar ichida firavnning mashhur oltindan kilingan nikobi ham bor. Quyi Misr podsholigi davrida Misr inqiroz jarayonini boshidan kechirdi. Yagona Misr avval ikkiga, so'ngra mayda nomlarga (davlatchalarga) bo'linib ketadi. Misr avval Numibiya, Ossuriya, Eron ta'siriga tushib koladi va nihoyat, mil.avv. 332 yili Aleksandr Makedonskiy tomonidan egallanadi. Shu bilan Misrning qadimgi davri tugaydi. Qadimgi Misr madaniyatiga kelsak, u hozirgi qadar qadimgi Mesopatamiyadagi katta yutuklardan biri bu yozuvning ixtiro qilinishi edi. Ilk yozuv mil. avv. IV ming yillikda Janubiy Mesopatamiyada kashf qilingan. Bu yerga ko'chib kelgan shumerlar ham ushbu yozuvni qabul qilganlar. U suratli yozuv bo'lib, so'z suratli rasm orkali ifoda etilgan. Bu fanda **iyeroglyph** deb nomlangan. Masalan, qush so'zi qushning tasviri bilan, suv so'zi uch qator to'lqinsimon chiziq bilan ifoda etilgan. Ammo suratli yozuv bilan hamma so'zlarni ham ifoda qilib bo'lmasan. Uning cheklanganligi sababli bu yozuv takomillashtirib borilib, **mixxat** yozuvi kashf qilingan. Harflar qotmagan loy lavhalar sathiga uyib tushirilgan. Harflar 600ga yaqin belgidan

iborat bo‘lgan. Bu yozuv keyinchalik butun Janubi-G‘arbiy Osiyo xalklari orasida tarkalgan. Qadimdan Mesopatamiya mirzolari adabiy, tarixiy asarlarni sopol, teri, loy lavhalarga yozib, o‘ziga xos kitoblar yaratganlar va kutubxonalarini tashkil kilganlar. Bunday kutubxonalar Ur, Nippur, Nineviya, Bobil, Ashshur kabi shaharlarda mavjud bo‘lgan. Ularning ichida eng kattasi Ossuri podshosi Ashshurbanipalning Nineviyadagi kutubxonasi bo‘lib, unda 30 mingdan ortik xatli lavhalar saklangan. Misrliklardan farqli qadimgi Mesopotamiya aholisi erdagiga hayotga ko‘proq e’tibor qilishgan. Ulim bilan hammasi tugaydi deb o‘ylashsada, narigi dunyoga ishonishgan. Misrliklardan farqli ravishda, narigi dunyoni inson ruhi mangu suv va ovqatga zoriqib yashaydigan qo‘rquinchli dunyo deham yashab kelmokda. Bu madaniyat jahon madaniyati rivojiga ham katta hissa ko‘shdi. Shuning uchun ham Yunon faylasufi Aflatun Misr madaniyatini "Jami sivilizatsiyalarning onasi"¹ deb bejiz aytmagan.

Sharuppakning Mesopotamiyaliklarga nasihatida aytildikи «Shirin hayotdan tashqari biron narsa aziz emas». Mesopotamiyaliklarning quvonchli hayot haqidagi qarashlari «Gilgamish» dostonida ham tasvirlanadi. Ular shaxsiy hayot muammolari bilan ko‘proq qiziqqanlar. Diniy-mifologiya bo‘yicha Shumer Misrdagidan farq kiluvchi tizimga ega edi. Garchi bu erda ham shahar hukmdorini Xudoning erdagiga avlodni deb karalsa-da, birok narigi dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlar Misrdagi singari katta ahamiyatga ega bo‘lolmadi. Kohinlar ham muhim ijtimoiy katlam sifatida shakllana olmadi. SHumerlarda har bir shahar-davlat o‘zining homiysi - Xudosiga ega edi. SHu bilan birga butun Mesopatamiyada sig‘inuvchi umumiy xudolar ham mavjud bo‘lgan. SHulardan osmon xudosi – An, er xudosi – Enlil, suv xudosi – Enki. Moddiy madaniyat sohasida SHumerda arxitektura kurilishi sohasi muhim o‘rin tutgan. Bu erda xom g‘isht kashf kilingan bo‘lib, ulardan xramlar – olti, etti kavatli zikkuratlar kurilgan. Ularning ichida taniklisi Ur shahridagi "Xram-tog‘i" (er. avv. XXII-XXI asrlar) edi. Zikkuratlar observatoriylar o‘rnini ham o‘ynaganlar. Osmon jismlari harakatini kuzatish bilan astronom kohinlar shug‘ullanishgan. Kadimgi Mesopatamiya astronomlari kuyosh va oy tutilishini oldindan bilganlar. Ular kuyosh yili 365, oy yili 354 kunligini aniklab, shu asosda astronomiya takvimini tuzganlar. YUkorida kayd kilinganidek, Mesopatamiyada ko‘p xudolik mavjud bo‘lib, oy xudosini shumerliklar – Nishar, akkadliklar esa Sin deb ataganlar. Quyosh xudosini shumerliklar – Utu, akkadliklar esa Shamash deb nomlaganlar. Venera sayyorasi xudosini shumerlar – Ianni, akkadliklar o‘z ma’budasi Ishtar bilan taqqoslaganlar. Dastlab qurbanlikka odamlar so‘yilgan, keyinchalik qo‘y va qo‘zilar qurban qilingan. Qadimgi Hindiston hakli ravishda qadimgi Sharqning yuksak madaniyatli mamlakatlardan biridir. Hindiston yarim oroli qadimdan tabiiy rang-baranglik, boy o‘simplik, hayvanot va qimmatbaho yer osti boyliklariga ega bo‘lgan. Yarim orolda sersuv Hind va Gang kabi daryolar mavjud. Mil. avv. V ming yillikning oxiri IV ming yillikdan boshlab Hind daryosi vodiysida sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik vujudga kelgan. IV ming yillik o‘rtalariga kelib bu joyda o‘ziga xos eng qadimgi hind madaniyatini vujudga kelgan. Dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiqning

rivojlanishi natijasida qishloq va shaharlar paydo bo‘lgan. Nihoyat, Hind daryosi va uning Panjob viloyatida qadimgi davlatlar yuzaga keladi. Bu davatlarning Mohinjo-Daro, Xarappa kabi katta shaharlari bo‘lgan. Mohinjo-Daro hozirda Pokiston hududida joylashgan bo‘lib, shaharning maydoni 270 hektardan iborat. Bu yerdan arxeologlar ko‘chalar, pishiq va xom g‘ishtdan qurilgan turar joylar, saroylar, omborxonalar, ibodatxonalar va podsho qarorgohining qoldiqlarini topishgan. Shaharda pishik g‘ishtdan qurilgan suv tarmog‘i va kanalizatsiya ham bo‘lgan. Badavlat kishilarning uylari, shuningdek ibodatxonalar 2-3 qavatli qilib pishiq g‘ishtdan 4,5 ming yil avval qurilgan. Xarappa shahridan arxeologlar 500 ga yaqin yodgorliklar topishgan. Shahar qurilishi Mohinjo-Daro bilan deyarli bir xil. Shaharda me’morchilik, to‘qimachilik, kulolchilik, toshtaroshlik, zargarlik, qurolozlik ancha rivoj topgan. Xarappaliklar o‘zlarining iyeroglif yozuvlariga ham ega bo‘lgan.³ Ikkala shaharda ham yirik g‘alla omborlari topilgan bo‘lib, bu davlatni markazlashganlik darajasini ko‘rsatadi. Hindlar dunyoda bиринчи bo‘lib paxtadan mato to‘qib, kiyimlar tikanlar, chunki shahardan kiyim tikish, qurolozlik ustaxona qoldiqlarni topilgan. Xarappa suv yo‘li va quruqlik orqali shumerlar bilan savdo aloqalari olib borgan ilk quzdorlik davlati edi. Mil. avv. II ming yillik o‘rtalaridan boshlab Eron va Turon orqali Hindistonga ko‘chmanchi, chorvador oriy kabilalari bostirib kiradi. Ular Gang va Panjob daryo vohalarining unumdar yerlariga kelib o‘rnashganlar va keyinchalik mahalliy xalq bilan aralashib ketganlar. Oriylar bilan mahalliy xalq o‘rtasidagi qonli janglar hindlarning xalq og‘zaki ijodiyoti namunalari bo‘lgan "Mahobxarat" va "Ramayana" dostonlarida ham aks ettirilgan. Hindlar o‘zlarining qadimiylariga ega bo‘lganlar. Ularda astronomiya va matematika ham ancha rivoj topgan. Hindlar quyosh va suv soatlaridan foydalanganlar, o‘zlarining taqvimlarini tuzganlar. Xalq og‘zaki ijodining yuksak namunasi – Vedalar, gimnlar, ko‘shiqlar, afsunkor va diniy duolardan iborat to‘plam tuzilgan. **Veda xudolari.** Vedalarda xudolar – osmon xudolari, quyosh xudolari, havo xudolari, yer xudolari, ayol xudolar kabi xudolar toifasi haqida madhiyalar bayon etilgan.

Osmon xudolari. Ular sirasiga Dyaus, Varuna, Indra kabi turli osmonlarni boshqarib turuvchi xudolar kiradi. Biroq, Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosiga aylanib ketgan.

Quyosh xudolari. Rigvedada quyosh energiyasining turlicha namoyon bo‘lishidan besh xudo yuzaga kelganligi haqida so‘z yuritilgan. Ularning eng qadimiysi Mitra («do’st») dir. Surya quyoshning yorqinroq namoyon bo‘lgan ko‘rinishidir. U yunonlardagi Apollon kabi yetti ot biriktirilgan g’ildirakli aravalarda tasvirlangan. Savitri esa quyoshning quvvat beruvchi kuchida namoyon bo‘ladi. Pushan muruvvatli hisoblanib, quyoshning mahsuldarlik faoliyatni o‘zida namoyon qiladi. Ularning yana biri Vishnu vedalarda zikr qilingan va keyinchalik unut bo‘lib ketgan xudolar orasida abadiy hisoblangan, hozirgi paytda butun Hindistonda ulug’lanadi.

Yer xudolari. Yer xudolarining eng ulug’i yerda quyoshning, havoda chaqmoqning, yer ustida olovning mujassamlashuvi hisoblangan olov xudosi Agnidir. Agni haqidagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan.

Vedalarda hayot va o'lim masalalari bo'yicha fikr yuritiladi. Bu ta'limotga ko'ra jon doimo bo'ladi va u kishi vafotidan keyin boshka tanaga o'tadi. Hindlarning Veda ta'limoti inson mutloq jon bilan qo'shilishi, o'z jonini boshqara olmasligi, bu juda qiyin bo'lishiga qaramay uning mumkinligi to'g'risida fikr-mushohada yuritiladi. Ana shu ta'limot asosida yoga harakati kelib chiqqan. Vedalarda Qadimgi Hindiston aholisining Varnalarga (kastalarga) bo'linishi hakida ham ta'limot bor. Shu ta'limot asosida Kadimgi diniy e'tikod, Braxmanizm paydo bo'lgan. Braxmanizm Kadimgi diniy e'tikodlardan biri bo'lib, mil. avv. IX-VIIIasrlarda vujudga kelgan. Bu e'tikodga ko'ra, Xudo Braxma olamni va odamni yaratgan deb hisoblagan. Hind ruhoniylari braxmanlar deb atalganlar. Braxmanlarning ta'kidlashicha, xudo odamlarni o'z tanasining turli kismlaridan yaratgan. Xusan, xudo o'z og'zidan braxmanlarni; ko'llaridan kshatrilarni – jangchi, rojalarni; sonlaridan vayshoklar - hunarmandlar, savdogarlar, dehkonlarni; loyga belangan oyoklardan esa shudralar, ya'ni xizmatkorlarni yaratgan deb, ta'lim beriladi. SHulardan keyin esa eng past toifa - hazar kilinadiganlar yaralgan. SHunday kilib, braxmanlar ta'limotiga ko'ra, xudo odamlarni turli toifalarga – kastalarga bo'lib, bola kaysi kastadan tug'ilgan bo'lsa, u umri bo'yi o'sha toifada kolishi kerak bo'lgan. Toifalarni aralashib ketishiga yo'l ko'yilmagan.

Mil. avv. VI asrda Hindistonda buddizm dini paydo bo'ladi. Bu ta'limotning asoschisi Gautama SHakyamuni. U shimoliy Hindistonda mil. avv. 566-476 yoki 563-473 yillari yashagan. Buddha so'zining sanskritcha (oliy bilimlarni egallagan, hakikatga erishgan) ma'nosini beradi. Buddizm braxmanizmdagi odamlarni kastalarga bo'linishini koralab, jamiyatdagi barcha kishilar teng bo'lishini e'tirof etadi.

Buddizm ta'limoti to'rt hakikatda o'z ifodasini topgan:

1. Turmush azob-ukubatlardan iborat;
2. Azob-ukubatlar sababi – kishilarning istaklari va nafslaridir;
3. Azob-ukubatdan kutilish uchun kishilar o'zlarining istak va nafslarini tiyishlari kerak;
4. Azob-ukubatlardan halos bo'lish uchun Buddha kashf etgan koidalarga amal kilishi kerak.

Buddizm ta'limoti asosida boshka odamlarga nisbatan yaxshi insoniy munosabatda bo'lish, boshka tirik mavjudodga nisbatan zo'ravonlik ishlatmaslik, ayniksa, o'ldirishni ma'n etish g'oyasi yotadi. Demak, inson axlokida gumanizm asosiy o'rin tutadi.

Mil. avv. III asrda podsho Ashoka tomonidan Buddizmni kabul kilinishi bilan u davlat diniga aylandi. Buddizm dinining nodir bir tomoni bu, boshka dinlarga nisbatan murosasozlik kilishdir. Eramizning I asrida Buddizm Markaziy Osiyo orkali Xitoyga, Xitoydan Koreya, Yaponiya, Mo'g'iliston va Tibetga tarkaladi. Xindiston – birinchi jahon dini buddizm vatani bo'lsada, Xindistonning o'zida induizm bilan ikkinchi darajada turadi. Bu ikki din ham «Veda» da aks ettirilgan qadimgi tasavvurlardan kelib chiqqan. Xindlarning dunyoqarashi va barcha tushunchalarini belgilovchi markaziy g'oya, hind madaniyatining o'ziga xos xususiyati- dunyoda sodir bo'luvchi benihoya uzliksiz harakat g'oyasi hisoblanadi,

ya’ni dunyoning aylanishi na ibtido, na nihoya, na aniq maqsadga ega. Dunyoning doimiy aylanishida qayta yangilanish va dunyoviy ilohiy ruh nishonasi-individual ruh bo‘ladi. Ular doimo yangi moddiy ko‘rinishda vujudga keladi, buning uchun inson tanasi bo‘lishi shart emas, ya’ni ruh jonivorlar, o‘simpliklar tanasiga joylashishi mumkin. Xindlar shu tariqa o‘z dunyo qarashidan nargi dunyo haqidagi g‘oyani istisno qilganlar. Mutloq «dunyoviy qonun» borliq hukmdori Braxma-olamning ob’ektiv ibtidosi. Ularni taqqoslaganda aniq xudolarning roli uncha katta emas, faqat «dunyoviy qonun» tamoyillarini individuallashgan timsolidan iboratdir. Xech kim, shuningdek xudo ham inson karmasini o‘zgartirishga qodir emas. Karmaning sanskrit tilidan tarjimasi «faoliyat» (taqdir) ni bildiradi. Bu tushunchaning mazmunini aniqlash murakkab. Karma insonning oldingi hayotidan meros bo‘lib o‘tadi va hozirgi hayotining mazmuni va faoliyatida namoyon bo‘ladi, u bo‘lg‘usi moddiy timsolning sifatini belgilaydi. Gunohlarni kechirish haqida tazarru yoki ibodat bilan Karmani o‘zgartirish mumkin emas, U faqat insonning axloqiy fe’l-atvorini belgilaydi. SHu bilan birga, har bir indus va buddist uchun o‘z-o‘zini bilish va o‘zining kamolatiga etish, o‘z ruhiy holatini aniqlash, o‘z karmasini toza saqlanishi haqida o‘ylash asosiy hisoblanadi. Bu Xindistondagi dinlar hayotdan, faoliyatdan voz kechishga undaydi degani emas, balki ular dunyoviy tashvishlarga befarq bo‘lishga undaydi desa bo‘ladi. Xind madaniyatining butun mazmunida zohir va botin, muaqqat va mangulik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati haqidagi fikr yotadi.

Xitoy Markaziy va SHarkiy Osiyodagi eng Kadimgi davlat. Xitoy sivilizatsiyasi mil.avv. 3 ming yillik oxirida shakllandi. Xitoy tarixini tarixchi Sima Syan o‘z "Tarixiy xotiralar" asarida sulolaviy davrlarga bo‘lgan. Kadimgi Xitoyda ko‘hna Mesopatamiya va Misr singari kadimiy o‘ziga xos madaniyat yaratilgan. Xitoyliklar SHan sulolasini davrida (mil.avv. 2 minginchchi yil o‘rtalarida) ieroglyph yozuvini yaratganlar. Bu yozuv bir necha o‘n ming belgi-ierogliflardan iborat. Milodning I asrigacha bu ierogliflar hozirgi yozuv ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Xitoy madaniyatining o‘ziga xos farqli jihat shundaki, qadimdan dinlardagi mistik ibtidoga axloqqa nisbatan ikkinchi darajada qaralgan, madaniyatdagi belgilovchi g‘oya Osmon tasdiqlagan buyuk «axloqiy-ijtimoiy-siyosiy tartib» bo‘lgan. Mil. avv. XII-VI asrlarda Xitoyda dunyonimiflar orkali tasavvur kilishdan falsafiy mushohada kilishga o‘tiladi. Falsafa o‘zining "oltin asr" deb nomlangan o‘sha davrning cho‘kkisiga chikadi. Falsafiy karashlar ichida ikkitasi muhim ahamiyatga ega. Bulardan bittasi Konfutsiylik bo‘lib, uning asoschisi Kun-szi edi. U mil. avv. 551 yilda zodagon oilada tug‘ilgan bo‘lib, 15 yoshidan o‘zi mutoala kilib ma’lumot olgan. Uning ta’limotida Kadimgi urf-odatlar va ularga to‘la rioya kilish muhim o‘rin tutadi. Hammaning ularga amal kilishi jamiyatni halokatdan kutkarib, uni gullab-yashnashiga olib keladi deb uktiriladi. Davlat to‘g‘risidagi ta’limotda "... agar podsho hakikiy podsho o‘rnida bo‘lsa, fukarolar-fukaro o‘rnida, ota-ota, ona-ona o‘rnida, bola-bola o‘rnida bo‘lsagina davlat gullab-yashnaydi" deyiladi. Agar davlat o‘z nomiga munosib bo‘lsa, unda etarlicha ozik-ovkat, etarlicha ko‘shinlar bo‘lishi va unga ishonch bo‘lishi zarurligi ko‘rsatiladi.

Konfutsiylik ta’limotida kuyidagi axlok normalari belgilanadi:

1. O'zing orzu kilgan yutuklarga erishish uchun, boshkalarning ham shunga etishi uchun ularga yordam ber; 2. O'zingga makbul bo'lmasligi, birovga ravo ko'rma. Konfutsiy mil. avv. 479 yili 72 yoshida vafot etgan. Uning ta'limoti Xitoyda va uning tashkarisida hozirgacha ham mashhurdir. . Barcha eng muhim narsalar har qanday sivilizatsiyaning «qiyofasini» belgilaydi- hayot tamoyillarini, davlat va ijtimoiy tashkilot shakllarini, umum qabul qilgan axloqiy me'yorlar va qadriyatlarning barchasi Xitoyda Konfutsiylik ta'sirida shakllangan. Bejizga L.S. Vasilev Konfutsiylikni «xitoy sivilizatsiyasining kvint essensiyasi (mohiyati)» deb atamaydi.«Osmon vakolati» yo'nalishi Konfutsiy tomonidan yangicha fikrda rivojlantirilib, unda ijtimoiy axloq asosiy o'rin tutadi va siyosiy madaniyatni belgilaydi. An'analarni hurmat qilish, burchni jiddiy his qilish, axloqiy sifatning yuqoriligi, o'zini jamiyat uchun baxsh qilish, haqiqatni anglash uchun doimo urinish, ishonch va oljanoblik kabi ideallar boshqalarni boshqarishni istaganlar uchun mo'ljal bo'lgan. Bu ideallar davlatning bosh tayanchi bo'lib, Xitoy imperiyasi to'ralari uchun namuna bo'ldi

Ikkinchisi, Daosizm ta'limoti, uning asoschisi – Lao Szi bo'lib, uning taxallusi "Dono kariya" bo'lgan. Daosizm ta'limotining markazida tabiat, kosmos, inson turadi. Dao – ko'rinishlarga ega bo'lmas tanasiz, absolyut kuch. Dao hamma narsalarni, shu jumladan dunyoni yaratgan. Dao bo'yicha dunyo doim harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi.

Tayanch so`z va iboralar

Tabiat, madaniyat, inson, shaxs, jamiyat.irq, etnik, milliy, madaniy, sotsial umumbashariy, sivilizatsiya, yevrotsentrizm, oriyentalizm, romantizm, realizm.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin farovon turmush-pirovard maqsadimiz. T.8. T.: «O'zbekiston», 2000 y.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. T.: "O'zbekiston" 2006 y.
3. Karimov I.A. YUksak manaviyat-engilmas kuch. T.: "Manaviyat", 2008.- 176 b.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O'zbekiston», 2000 y.
4. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari T.: «Turon» 2006 y.
5. Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. T.: «Yangi asr avlodi», 2001
6. Boboev H., Hasanov S. «Avesto» manaviyatimiz sarchashmasi. T.: «Adolat», 2001 y.
7. Jabbarov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994 y.
8. Ibrohimov A va boshqalar. Vatan tuyg'usi. T.: «O'zbekiston», 1996 y.
9. Kaykovus. Qobusnomi. T.: «Istiqlol», 1994 y.
10. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.: «Manaviyat», 1999 y.
11. Madaniyatshunoslik. Maruza matni. Gulmetov e. va boshqalar. T.: DITAF, 2000 y.
12. Manaviyat yulduzlari. T.: 1998 y.

13. Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug‘at. T.: 1998 y.
14. Umarov E. «Madaniyatshunoslik». Yangi asr avlod 2005 y.
15. Xayrullaev M. O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri madaniyati. T.: «Fan», 1995y.

III- mavzu. Qadimgi davr Markaziy Osiyodagi diniy madaniyat.

Diniy dunyoqarashning murakkablashuvi natijasida tabiat hodisalariga nisbatan dualistik qarashlar shakllana boshlagan. Insonga foydasi tegadigan, inson uchun hayot manbayi bo`lgan hodisalarning o`z xudolari yoki homiylari mavjud degan tushunchalar vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi II ming yillik oxirlariga kelgach, Eron va Markaziy Osiyoda Quyoshga sig`inish ancha takomillashib, uning zaminida insonga quyoshdek yorug`lik va issiqlik in`om etuvchi olovga sig`inish — otashparastlik e`tiqodi vujudga keladi. Olovni quyoshning yerdagi o`g`li, degan tasavvurlar chuqurlashadi va Quyosh xudosi Mitra, suv xudosi Anaxita va boshqalarga e`tiqod qilish otashparastlik e`tiqodiga qo`shilib ketadi. Eron va Markaziy Osiyoda otashparastlik dini — zardushtiylik hukmron dinga aylanadi. Zardushtiylik dinining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?

Birinchidan, bizningcha, u kishilarning tabiat hodisalari, mavsumlarning, kecha va kunduzning almashinuvi hamda uning sabablarini bilib olishga bo`lgan intilishlari natijasida paydo bo`lgan. Kishilar qadimda tabiat kuchlari oldida ojiz bo`lganlar. Ularning turmushi, kiyim-kechak, turarjoylari ham, oziq-ovqat ishlab chiqarishi ham nochor holda bo`lgan. Kishilar tasavvuriga ko`ra bahordan boshlab yorug` kunlar kela boshlagan, ya`ni kunlar isib, tabiatda ezgulik ko`paya borgan, o`t-o`lanlar, qurt-qumursqlar, hayvonlar uyg`ona boshlagan, butun tabiat jonlana borgan. Bularning barchasini ilohiy kuch — Quyosh xudosi Ahuramazda boshqaradi, deb o`ylashga olib kelgan. Ko`pgina falokatlar, o`lim, kasallikning xuruj qilishi esa kechalari ro`y bergen. Natijada inson va boshqa tirik jonzodlarga zarar keltiruvchi kuchlar haqidagi tasavvurlar ham shakllangan. Demak, sovuq kunlar va qorong`ilik kishilarga ko`plab kulfatlar keltirgan. Shu sababli kishilar o`zlariga zarur bo`lgan issiqlik va yorug`lik manbayi hisoblangan quyoshga va uning yerdagi zarrasi deb tasavvur qilingan olovga topinganlar.

Ikkinchidan, kishilar qo`rquv va o`z ojizliklari o`rnmi to`ldirish uchun, bir-biriga qarama-qarshi kuchlar va ularning xudolari haqidagi tasavvurlarga ega bo`la borganlar. Zardushtiylar ezgulik, yaxshilik, yorug`lik, issiqlik, tiriklik, Hilolat xudosi Ahuramazda va unga qarama-qarshi kuch — yomonlik, yovuzlik, qorong`ilik, sovuq, o`lim vaadolatsizlik xudosi — Axriman haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirganlar. Uchinchidan, mahalliy qabilaviy dinlar endigma shaklanib kelayotgan (davlatchilik asoslariga, jamiyatning ham moddiy, ham ma`naviy taraqqiyotiga to`sinqil qila boshlagan edi. Turli qabilalar o`rtasida urush-janjallar ko`payib ketgani uchun qabilalarni birlashtirishga xizmat qiluvchi yangi mafkura — dinga zarurat paydo bo`lgan. Bu vazifani endigma shakllanayotgan va birmuncha tizimga tushib ulgurgan zardushtiylik dini bajara boshlagan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da ham (ayniqsa, Yasna va Yasht kitoblarida) ilohiy kuch-qudratga ega bo`lgan Quyosh barcha narsalarga jon va kuch-quvvat beruvchi olih ekanligi ta`kidlanadi:

Biz Quyoshga sig`inamiz,

*Bezavol Nurga,
 Uchqur uning tulporlari.
 Qachon Quyosh nur taratadir,
 Qachon ilitadi Quyosh,
 Doim turar yuz ming adad
 Ma`budlar,
 Tanlaydirlar baxtni shunda ma `budlar
 Taqsimlaydir baxtni shunda ma `budlar.
 Qutlug' Mazda xalq aylagan bu Zaminga,
 Olamlarga nur etadir baxsh,
 Haqiqatga rushdu rivoj.*

Zardushtiylik ta`limoti va e`tiqodlar asosi uning muqaddas kitobi «Avesto»da buyon etiladi. «Avesto» eramizdan avvalgi II ming yillikning oxirlarida vujudga kela hoshlaydi. Shuningdek, bu yozma madaniy yodgorlik qadimgi Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va maishiy hayoti, til, yozuvi, xalq og`zaki ijodi haqida ma`lumot beruvchi asosiy manbadir. «Avesto» olimlarning taxminlariga ko`ra, eramizdan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida yaratilgan.

«Avesto» ko`pchilik manbalarda 21 nask-kitob (qism) dan iborat bo`lgan deb ta`kidlanadi. Beruniy o`zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida o`n ikki ming qoramol (terisiga tillo suvi bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashkadalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o`ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun «Avesto»ning beshdan uchi yo`qolib ketdi. Avesto o`ttiz nask qism edi. Majusiylar qo`lida o`n ikki nask chamasi qoldi», - deb yozadi. Rivoyatlarga ko`ra, «Avesto»ning uch nusxasi bo`lib, bir nusxasini Aleksandr Makedonskiy kuydirtirib tashlagan, ikkinchi nusxasining kerakli joylarini (tibbiyot, geografiya, falsafa va astronomiyaga oid qismlarini) tarjima qildirish uchun Yunonistonga jo`natgan, yana bir nusxasini bu dinning o`ta sodiq kishilari saqlab qolganlar. Lekin bu nusxa ham uzuq-yuluq holatda sosoniylar davrigacha (yeramizning III-VII asrlari) yetib kelgan. Bu davrda I eronda zardushtiylik boshqa dirlarga nisbatan rasmiy din vazifasini- bajargan. Shu boisdan. ham sosoniy hukmdorlar uzuq-yuluq hoktda yetib kelgan nusxani kerakli qo`shimchalari bilan to`ldirishga buymq berganlar. Keyinchalik lo`ldirilgan nusxaga sharhlar yozilgan va «Zend-Avesto» deb yuritila boshlangan. Bizgacha yetib kelgan «Avesto» quyidagi 4 qismdan iborat:

- 1.«Yasna» («sajda», «ta`zim») — xudolar va olovning muqaddasligi, turli xil marosimlar va urf-odatlar haqidagi qism. Bu qismda olovning oliv xudo Ahura (ulug`) — Mazda (donishmand) izmidaligi, olovning insonning gunohkor yoki gunohnsiz ekanligini aniqlab beruvchi xususiyati kuylanadi;
2. «Yasht».— Ahuramazda, yer, quyosh, osmon (havo) va suv hamda insonning ma`naviy dunyosi (ma`rifati, axloqi va iymon-ye`tiqodi) ni madh etuvchi alqovlar;
3. «Visparad» — ma`bdurlarni sharaflovchi duolar va ibodat (namoz) payti ularga qarata aytildigan murojaatlar;

4. «Videvdod» — Ahuramazda va Zardushtning savol-javoblari, yomon ruhlar va devlarni yengish yo`llari va gunohlardan poklanish qoidalari.

Bu asar, birinchidan, insoniyat tomonidan yaratilgan buyuk yozma madaniy yodgorlik bo`lib, o`zida falsafiy, tarixiy, geografik, etnografik, folkloristik va diniy qarashlar tizimini mujassamlashtirgan o`tmish ajdodlarimizning nodir yodgorligi, ikkinchidan, avlod-ajdodlarimiz tarixidagi birinchi mukammal diniy e`tiqod manbayi, uchinchidan, bu din islom, nasroniy, yahudiylilik, mitraizm va monizm kabi ko`plab dinlar, ularning marosimlari, diniy e`tiqodlari manbayi vazifasini bajarganligi sababdan ham uning umumjahon madaniyatidagi o`rni, olam haqidagi tasavvur va tushunchalariga batafsil to`xtalib o`tish joizdir. eng avvalo, «Avesto» otashparastlik axloqining asosini: a) ezgu fikr; b) ezgu so`z; d) ezgu amal kabi tamoyillardan iboratligini ko`rsatadi. Ahuramazda — oliy, bosh xudo. U yomonlik xudosi Axrimanga qarshi kurash uchun o`ziga yordam beruvchi muqaddas va ezgu ruhlarni yaratadi. U dastlab o`zining eng yaqin yordamchilari hisoblangan oltita muqaddas run — Amesha spentalarni yaratadi. Bu muqaddas ruhlar quyidagilar:

1. Voxu Manna (Baxman) — Yaxshi niyat (Yezgu ong). 2. Asha Vaxishta (Ardibixsh) — O`ta Adolatlilik (Oliy haqiqat). 3. Xshatra Varya (Shahrivor) — Orzu etilgan Qudrat (Matlub Qudrat) 4. Spenta Armaiti (Isfandarmuz) — Diyonalli Avliyolik (Matlub Tavoze). 5. Xaurvata (Xurdod) — Yaxlitlik (Butunlik)

6. Ameretat (Murdod) — Mangulik.

Mazkur oltita muqaddas ruhning har biri moddiy dunyodagi olti xil hodisaning homiylaridir, deb tasavvur qilingan. Masalan, Baxma — hayvonlarning. Ardibixsh — olovning, Shahrvor — ma`danlarning, Isfandarmuz — yerning, Xurdod — suvning, Murdod — o`simliklarning homiylari deb tushunilgan. Ahuramazda insonlarga rahnamolik qilishni Zardushtning o`ziga buyurgan, degan tasavvurlar mavjud bo`lgan. Avestoda ta`kidlanishicha, haftaning har bir kuni ham ana shu yetta homiy nomi bilan yuritilgan. Shuningdek, «Avesto»da Ahuramazdaga yordam beruvchi boshqa kuchlar va Axrimanni qo`llab-quvvatlovchi yovuz ruhlarning joylanishi batafsil tarzda berilgan. Masalan, Ahuramazda tarafida turib yovuz ruhlarga qarshi kurashuvchi boshqa ezgu ruhlar quyidagicha joylashtiriladi. Olti Amesha spentalardan so`ng quyiyoqda Yazat (keyinchalik ezot) lar joylashgan. Yazatlar butun olamni yovuz ruhlardan himoya qilib yurishadi. Yazatlar ikki guruhga. — Ruhiy va Dunyoviy Yazatlarga bo`linadi. Ruhiy Yazatlarni Ahuramazdaning o`zi boshqaradi, dunyoviy yazatlarni esa Zardusht boshqaradi, deb hisoblaganlar. Ruhiy yazatlar vafot etgan yaxshl kishilarning qulilari bo`lib, ular ko`zga ko`rinmas olam va unda joylashgan ezgu kuchlarni (qo`riqlaydilar, tirik odamlarning xonadoniga xuruj qiluvchi yomon odamlar (vafot etgan yaramas odamlar)ga qarshi kurash olib boradilar. Dunyoviy ynzatlar esa tirik odamlar, ya`ni doimo insoniyat, tabiat va hayvonot olamini Msrab-avaylashga xizmat qiluvchi ashavanlar (haqiqat va to`g`rilik uchun kurashuvchi tirik odamlar) yaxshi odamlarning ichiga joylashib olib,adolat, Iniqiqat, yaxshilik va ezgulik uchun kurash olib boruvchi ko`zga ko`rinmas kuchlardir. «Avesto»da kosmogonik tasavvur o`ziga xos tarzda berilgan. Makoadagi barcha hodisalar o`ziga xos tarzda tushuntiriladi. Barcha hodisalar bir-biriga qarama-ijnrshi kuchlarning ayovsiz kurashi natijasi, deb hisoblanadi. Bu kurashda yaxshilik va ezgulikka qarshi yovuz

kuchlar qarama-qarshi turadi. Zardushtiylik kosmogonikasiga ko`ra ezgu va yovuz ruhlar bir-birlari bilan uyovsiz kurash olib boradilar. Ezgu ruhlarning bar biri o`z himoyachilariga egadirlar. Masalan, Vratragna - (keyinchalik Bafirom) momaqaldiroq xudosi. I Jnga quyosh nurini to`suvchi bulut - Vratragna qarshi kurash vazifasi yuklanadi. Vratragna o`zining chaqmoq (o`q)lari bilan quyosh nuri va issiqligini to`suvchi Ihlis Vratxani o`ldiradi va dunyoga yorug`likni.qaytarib beradi. Dunyodan hayvonlar va qush qiyofasidagi sirli, ezgu va foydali maxluqlar ham joy olgan. Masalan, afsonaviy Vourukasha qo`lida uch oyoqli, oltin shoxli va olti ko`zli Hara deb nomlanuvchi eshak yashaydi. U o`zining oltin shoxlari bilan dunyodagi barcha zararli narsalar (zararli hasharotlar va mikroblar)ni inalif etadi. Ranka deb nomlanuvchi orolchada ilohiy Xaoma o`simligi o`sadi. O`n minglab qurbaqalar qiyofasidagi iblislar Xaomant o`g`irlash uchun orol tomon intiladilar. Lekin daryoda yashovchi Qara ismli sirli (ilohiy) baliq ularning orolga o`tishiga yo`l qo`ymaydi, ularni o`ldirib turadi. Vourukasha nomli ko`lda Xabayosh deb ataluvchi ho`kiz yashaydi, imi (iopadshoh (ho`kiz odam) qo`riqlaydi. Uning vazifasi tabiatni tiriltirib hamda Xabayosh (ho`kiz)ni qiyomat qoyimgacha qo`riqlab turishdan iborat. Chunki ho`kiz muqaddas ho`kiz bo`lib, qiyomat kuni, ya`ni o`lganlar tiriladigan kuni uning yog`idan samoviy ovqat tayyorlanadi, yog`idan bir loinchidan o`lganlarni qayta tiriltirish uchun foydalaniadi, deb tasavvur tjilingan. Karishptar nomli qush o`z tilida doimo muqaddas gimm (alqov)larni kuylab Ini`adi va odamlarga ilohiy-ruhiy kuch baxshida etadi. Ularni yashashga va iblislar (yomon odamlar) ga qarshi kurashga ilhomlantirib turadi. Parodarsh (kelajakni ko`rvuchi) nomli qush o`zining qichqiriqlari bilan iblis ruhlar (ishyoqmaslik, dangasalik va uyqu)ni quvib hamda yovuz kuchlarni qo`rqitib, otashparastlarning uyini ulardan himoya qilib turadi. Fikrimizcha, bu xo`roz bo`lishi mumkin. Chunki ko`pgina xalqlarning og`zaki ijodida jinlar va shaytonlar uning qichqirig`idan qo`rqishi haqidagi afsonalar, rivoyatlar, ertaklarning mavjud ekanligini bilamiz. Axriman ham o`zi yaratgan yovuz kuchlar bilan ezgu kuchlarga qarshi kurashadi. Axriman o`zining yordamchilari bilan birga, eng avvalo, fazoviy kenglik (makon)ni toraytiradi: U ko`zga ko`rinmas kuch sifatida tasavvur qilinadi. Axriman o`z yovuz kuchlari bilan birgalikda Zardusht homiyligidagi insonlarga hujum qilib turadi va insoniyatni Ahuramazda izmidan chiqarib, lining qo`li bilan butun dunyoni xarobaga aylantirishga intiladi. Axriman insonga hujum qilganda, uning ko`ziga keng dunyo torayib ko`rinadi, yuragi siqilib, g`amginlik bilan chulg`anadi va dili xufton bo`ladi, deb tasavvur qilingan. Axriman, ayniqsa, odamlar o`rtasiga nifoq solishga, odamlar orasida yolg`onni kuchaytirishga, ularni yo`ldan ozdirishga harakat qiladi. U bu ishlarni o`zining yordamchilari — iblislar, shaytonlar va yovuz ruhlar orqali bajaradi. Shu sababli uning kuchi benihoya katta, deb hisoblangan. Axriman Ahuramazdaga qarshi iblislarning bitmas-tuganmas kuchidan foydalanadi. Axriman ham Ahuramazda singari o`zining yaqin yordamchilari — olti Dayva (yovuz qiz)ni yaratadi. Akamana (yovuz uy), Taurvi (so`lish, qovjirash), Zarik (o`lim), Ayshma (quturish, adovat)lar dayvalar hisoblanib, doimo Axrimanga hamrohlik qiladilar. Ular ham odamlarga hujum qilib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo`yishga intiladilar. Masalan, Ayshma

adovat, xusumat, zo`rlik va qahr-g`azabning homiysi hisoblanib, urush-janjal, kelishmovchilik, nifoq, mastlik, mushtlashuvlarni ilhomlantirib turadi.

Shuningdek, Axrimanga yordam beruvchi, birmuncha kam kuchga ega bo`lgan deva (iblis qiz)lar ham mayjuddir. Masalan, Araska (hasad), Uda (vaysaqi}, Akatasha (sinchkovlik), Bushyansta (yerinchoqlik), Push (xasislik), Zmaka (sovug bilan bog`liq bo`lgan turli azoblar) shular jumlasiga kiradi. Ular odamlarning ichiga kirib olib, birovga nisbatan hasadgo`ylik qilishga, vaysashga, birovlarning ichki sirini bilishga, erinchoq va ishyoqmas bo`lishga, xasislik qilishga majbur qilarkan. Deva (iblis qiz)larning yovuz ishlarni amalga oshirishlarida ularga Drujlar («druj» so`zi yolg`on, aldov degan ma`nolarni angalatadi), ya`ni ayol timsolidagi badjahl maxluqlar va Nasa (yuqumli kasalliklar tarqatuvchi mikroblar) yordam beradilar. Zardushtiylik ta`limotiga ko`ra, Nasa quyidagicha tasvirlanadi: inson vafot etgach, Nasa inson jasadidan joy oladi. Agar tirik odam jasadga yaqinlashsa, Nasa unga zarar keltiradi, unga kasallik va hatto o`lim olib keladi, deb tasavvur qilingan. Zardushtiylarning tasavvuricha, Nasa faqat itdan qo`rqar, itning qarashiga dosh bera olmas emish. Shu sababli zardushtiylar odam o`lgandan keyin uning jasadi ustiga itni yetaklab olib kelishib, jasadga qaratganlar. Bu marosim «sakdid» deb atalgan. Shundan keyingina boshqa marosimlar o`tkazilgan. Demak, zardushtiylarning jasadni tog`ridan to`g`ri yerga ko`mmaganliklarining sababi birinchidan, odam jasadini harom deb bilganliklarida bo`lsa, ikkinchidan, jasadga kirib olgan Nasalar zardushtiylar uchun muqaddas hisoblangan Yyerga zarar yetkazadi, degan tushunchadan klib chiqqan. Zardushtiylar o`lgan kishining jasadini maxsus ko`tarmaga olib borayotganda eng oldinda itni yetaklab borganlar. Maxsus itlar va o`laksaxo`r qushlar jasadni suyagigacha yeb bo`lma gunlaricha dahmada saqlaganlar. Undan so`nggina o`lgan kishining suyaklarini maxsus idishlar — sopoldan qilingan ossuriy (ostadon)larga solishib, maxsus bostirmalarda saqlaganlar. Axrimanga yordam beruvchi yovuz kuchlar — ibislardan yana biri Parika (pan) deb nomlangan. Parika (pari)lar ko`pincha sohibjamol qiz yoki ayol qiyofasida tasavvur qilingan. Ular asosan kishilarni avrash, sehrlash orqali aqldan ozdirish yoki halok qilishga intilganlar. "Parikalar ko`proq kechalari yoki tashlandiq qorong`i uylarda yolg`iz kishilar ko`ziga ko`ringan. Shuningdek, parilar tabiatning turli xil hodisalariga ta`sir ko`rsata oladi, deb o`ylaganlar. Masalan, Mush nomli pari oyni o`g`irlab, olamni qorong`ilikka botiradi. Dujeriya nomli pari esa qurg`oqchilik olib keladi, degan tasavvur mavjud bo`lgan. Bizningcha, hozirgacha respublikamizning janubiy hududlarida o`tkazilib kelinayotgan «Sust xotin», «Suv xotin» nomli vomg`ir chaqirish marosimining mavjudligi ham ana shu tasavvurlarga borib taqaladi. Bu yerda shuni ta`kidlab o`tish joizki, zardushtiylikdagi «Pari» - «Parika» atamasida ikki xil ma`no mavjud bo`lishi mumkin. Nur va ezgulik, Zulmat va Yovuzlik o`rtasidagi kurashda parilar ham o`zaro kurash olib boradilar. Ahuramazda tarafida turuvchi parilar (parixonlar) jumlasiga baxshi, qushnoch folbin va kinnachilar kirib, ularning asosiy vazifasi odamlar tanasiga kirib olgan yomon illatlar va jinlarni haydar chiqarishdan iboratdir. Axriman tarafida turuvchi parilar tashqi qiyofada o`ta go`zal bo`lib, ularning asosiy maqsadi otashparastlarni yo`ldan urish va halok qilishdan iboratdir. ular, asosan, odamlarni suvga g`arq qilib yuboruvchi

«suvparisi» yoki cho`lga boshlab borib suvsizlikdan halok qiluvchi turli ko`rinishdagi (suv, bog`-rog`, aholi yashaydigan joy, o`rmonzor va sh. k.) sarobdir. «Avesto»dagi kishining tinch va osoyishta hayot kechirishi, o`zi uchun uy-joy qurib olishi, oilali bo`lish, mol boqib ko`paytirish, yer haydab don ekish va mollarni boqish uchun o`t ekishi va yig`ishi, mevali daraxtlar o`tqazish suvsiz yerlarga suv chiqarish, yangi yerlar ochish ta`kidlab o`tiladi. «Avesto» orqali singdirilgan ushbu yumushlar hozirgi kunimizgacha ruhiyatimizda saqlanib qolningan. Axriman Ahuramazdaga qarshi kurashda har xil Xrafstra (zararkunanda)lardan — ilonlar, pashshalar, qurbaqalar, chivinlar, chayonlar, chumolilar va turli-tuman mikroblardan ham foydalanadi. Yirikroq hayvonlardan bo`ri — Axrimanning yordamchilaridan biri bo`lgan. Shu sababli bo`ri doimo kishilar uchun oziq va yaqin yordamchi (ishchi kuchi) hisoblangan hayvonlarni -ot, eshak, sigir, qo`y va boshqa hayvonlarni ovlaydi. Ahuramazdaga yaqindan yordam beruvchi it esa bo`riga qarshi qo`yilgan. Olov va chiroq bor joyga bo`ri yaqinlasha olmagan. «Avesto»da ta`kidlanishicha, Ahuramazda tomonidan belgilangan 12000 yil yakunlangach, yorug`lik va qorong`ilik o`rtasidagi oxirgi kurash bo`lib o`tadi. Ezgu va yovuz kuchlarning kurashida (uchinchi 3000 hamda to`rtinchi 3000 yillikning birinchi yarmida) Axriman tarafdarlarining qo`li baland keladi. Odamlar o`rtasida ham yovuz kuchlarga yordam beruvchi tubanlashgan kishilar soni oshib ketadi. Axloqsizlik va ma`naviy tanazzul kuchayadi. Xotin erni, o`g`il otani, uka akani tan olmay qo`yadi. Odamlar tabiatga yovuzlarcha munosabatda bo`la boshlaydilar. iymon-ye`tiqod susayib, yovuzlik kuchayadi. Tabiatning muvozanati buziladi. Yyerga eritilgan bronza yog`iladi, tog`lar, yer va yer osti dunyosi-barchasi barobar yonadi. So`ngra halok bo`lgan butun olam va barcha o`lganlar qaytadan tiriladi. Abadiy hayot boshlanadi. Samoviy Chinvot ko`prigidan o`tolmasdan do`zaxga tushib ketganlarning barchasi gunohlaridan forig` bo`lib, do`zaxdan qutulib chiqadilar.

Zardushtiylik falsafasida, birinchidan, butun olam ikkiga bo`linib, bir-biriga qarama-qarshi kuchlar, qarama-qarshi harakatlar, tasavvurlar va boshqalarning doimiy harakati, olam hodisalarining oddiyidan murakkablikka rivojlanishi (olamning to`rt bosqichda yaratilishi), bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan kuchlar — Ahuramazda va uning yordamchilari, Axriman va uning tarafdarlarining quyidan yuqoriga, yuqoridan quyiga qarab joylashtirilishi, qarama-qarshi kuchlarning to`xtovsiz va ayovsiz kurashishi talqinida beriladi. Ikkinchidan, zardushtiylik falsafasida to`rt unsur — yer, havo, suv, olov e`zozlanadi. Suv va olovga atab qurbordiklar berilgan. Masalan, suvga sut va sharbat tomizilgan hamda suvning doimiy sofligi uchun idishga barg tashlab turilgan. Olovga esa qurbanlik sifatida quruq o`tin, hayvon yog`i va xushbo`y hid taratuvchi giyoh tashlangan. Yemi e`zozlashib, unga o`lgan kishilarning jasadi ko`milmagan, yerga in qo`yuvchi barcha jonivorlar Axrimanning yordamchilari sifatida talqin qilingan. Havoni har qanday badbo`y hid bilan bulg`ash qoralangan. Demak, zardushtiylik falsafasiga ko`ra, olamning asosini to`rt unsur: suv, olov, tuproq va havo tashkil etadi, degan tushuncha ilgari surilgan. Zardushtiylikda dehqonchilik, yer va unga ishlov berishga alohida e`tibor beriladi. Muqaddas matnlarda kimki bekor yotgan (o`lik) yerga suv chiqarib ishlov bersa, u keyingi hayotida mukofot oladi, deyiladi. Hosil

berib turgan yerga ishlov bermaslik, sug`orish tizimini buzish va yerni cho`lga aylantirish katta gunoh hisoblangan, buning uchun Ahuramazda gunohkorni qattiq jazolaydi, deb ta`kidlanadi. Ko`pgina harakatlar — yalangoyoq yurish, marhum uchun ko`p yig`lash, ayniqsa, ayollarning olov oldida soch tarashi katta gunoh hisoblangan. Zardushtiylik dini o`zidan oldingi tabiat kuchlarini ilohiyashtirishga qaratilgan qabilaviy dinlardan o`zining birmuncha ilg`orligi va yakka xudo — Ahuramazdaga e`tiqod qilishi bilan ajralib turadi. U behuda qon to`kuvchi qurbanliklar, harbiy to`qnashuvlar, bosqinchiliklarni qoralab, o`troq va osoyishta hayot kechirishni, mehnat qilishni, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug`ullanishni da`vat qiladi. Xayrli ish qilish, ezgu o`y, ezgu so`z va ezgu ishga qat`ian amal qilishni talab qiladi.

Nemis klassik falsafasining yirik vakili Gegel o`zining «Tarix falsafasi» nomli asarida Zardushtiylik dini va uning insonparvarlik xususiyatini quyidagicha ta`riflagan edi: «Bu din yorug`lik va mehr-oqibat dinidir. U yovuzlik va qorong`ilikka qarshi turadi. Yorug`likning yovuzlik bilan kurashi, hayotning o`lim bilan kurashidir. Zardushtiylik dini rivojianishni, hayotning barhayot bo`lishini, ekin ekishni, uy hayvonlarini boqishni va yerga qarashni talab qiladi. Bu dinga sig`ingan odam hattoki, murdani yerga ko`mmay, yoqmay qushlarga yem bo`lishi uchun kurashadi». Zardushtiylik xalq madaniyatining nodir yodgorligi sifatida muhim qiymatga ega bo`lib, birinchidan, u qadimgi Sharqda vujudga kelgan bir qator dinlar, clastlab yahudiy dinining, so`ngra jahon dinlariga aylangan islom va nasroniylik dinlariga asos bo`lib xizmat qilgan. Masalan, Zardushtiylik diniga bhioan har hir otashparast kuniga besh marta poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, ihodat qilishi shart bo`lgan. Bu esa islom diniga uning asosiy ruknlaridan bin -besh vaqt namoz o`qish shaklida o`tgan.

Ikkinchidan, Zardushtiylik ta`limotiga binoan xudo, quyosh, olov kabilar inson uchun eng zarur hisoblangan narsalar (yer, hayvon, o`simlik, suv va h.)da namoyon bo`ladi. Bu esa panteistik falsafaning vujudga kelishiga sabab bo`ladi.

Uchinchidan, ajdodlarimizdan meros bo`lib o`tib kelayotgan axloqiy me`yorlarning shakllanishiga katta ta`sir qiladi. Chunki avlod-ajdodlarimiz (adim-qadimdan tabiatni, yer, suv, daraxt, o`simlik va jonivorlarni e`zozlab keladi. Yerga ishlov berib, sug`orib, bog`-rog`larni, ekinzorlarni barpo qilganlar, chorvachilikni esa nihoyatda qadrlaganlar, suvni muqaddas hisoblaganlar.

To`rtinchidan, Zardushtiylik dini qadimgi yunon madaniyatining rivojlanishiga ham ta`sir ko`rsatgan. Chunki yunonlar Zardush haqida ko`plab hikoyalari eshitganlar va bu din hamda uning ta`limoti haqida muayan tasavvurga cga bo`lganlar.

Qadimgi so`g`diyonaliklarning diniy qarashlari. Qadimgi so`g`diyonaliklar ham boshqa xalqlar singari dastlabki davrlarda ota-bobolar va o`tganlarning ruhlariga sig`inishib, hayvon va tabiat hodisalarini ilohiyashtirganlar, magiya va shomonizmga e`tiqod qilganlar. Tabiat hodisalarini ilohiyashtirish dastlab Quyoshga, so`ngra, olovga sig`inishga olib kelgan. Natijada otash-olov diniy e`tiqoddagi yagona obyektga aylangan, Unga atab yirik-yirik va hashamatli ibodatxonalar qurbanlar. Arxeologlar tomonidan Qo`shrabod hududidagi qadimgi Qo`rg`ontepa shaharchasi xarobalari o`rni o`rganilganda u yerdan

zardushtiyarning yirik ibodatxonasi qoldig`i topilgan. Ibodatxona tashqi ko`rinishidan besh zinali bo`lib, eng tepa qismida tutun chiqib turishi uchun mo`ri qurilgan. Ibodatxona zalining o`rta qismida muqaddas olovyonib turgan. Beshinchi zina atrofida yorug`lik va havoning almashinib turishi uchun darchalar qoldirilgan. Zalning tepa qismi yog`och bilan yopilgan bo`lib, shift qattiq qotishma bilan suvab qo`yilgan. Zalning bir burchagida muqaddas olovdan chiqib turadigan kul to`planadigan maxsus joy, boshqa tomonida sopoldan yasalgan isiriqdon, ya`ni muqaddas o`simlik tutatiladigan sopol idish, yo`lakdagti tokchalardan tovuqlarning suyaklari qoldiqlari topilgan. O`rta asr arab yozma manbalarida qadimgi So`g`diyonada mavjud bo`lgan otashxona - ibodatxonalar mavjud bo`lganligi haqida ko`plab ma`lumotlar uchraydi. Bu manbalarda otashparastlikka oid ibodatxonalar «otashdon», «otashkada», «otashxona» sifatida, otashparastlar esa «Mug`», «ma`jush» sifatida islom yoyilgan paytda ham saqlanib qolgan muqaddas olov bilan bog`liq bo`lgan marosimlar haqida so`z yuritiladi.

Ma`lumki, qadimgi So`g`diyonaning katta qismida, ayniqsa, Buxoro vohasida Siyovushga atalgan bayram — xotirlash kuni o`tkazilgan. Bu kun ertalab zardushtiylar ibodatxonasiga erkaklar xo`roz, ayollar esa tovuq keltirganlar. Mazkur bayram «Qizil gul sayili» («Sayili guli surx») deb atalgan. Qizi (lola) larning vujudga kelishini quyidagi ikki xil afsonaga olib borib taqaganlar. Birinchi afsona Beruniy ta`kidlaganidek, Xorazmshohlarning afsonaviy ajdodi Siyovushga borib taqaladi. Go`yo Siyovush jodugar qaynotasi Afrosiyob tamonidan o`ldirilgan. Uning qoni tomgan joylardan qizil gullar o`sib chiqadi. Bu afsona Firdavsiyning «Shohnoma» asarida quyidagicha tasvirlangan:

... Shahar va lashkarlardan nari o`tishdi

Siyovushni sudrab dashtga yetishdi

Oyoq - qo`lin bog`lab, qo`y kabi so`ydi,

Tomog`i tagiga zar dashsha qo`ydi.

<i>Sarv</i>	<i>boshini</i>	<i>ayladi</i>	<i>tanidan</i>	<i>judo,</i>
<i>Toza qon dashshaga to `Idi, benido.</i>				
<i>Buyurilgan joyga dashshani jallod,</i>				
<i>Olib borib, to`kdi, pok xunni bedod.</i>				
<i>Ajabo, dashshani qay yerga qotil,</i>				
<i>To `kkan bo `lsa, undan o `sib chiqdi gul.</i>				
<i>Sizga aytib beray uning nishonin,</i>				
<i>Bu giyohning nomi, «Siyovush qoni».</i>				

Keyinchalik bahorda tabiatning uyg`onishini Siyovushning gul-chechak bilan qayda tirilishi ramzi sifatida qabul qilganlar. So`g`diylar o`rtasida Siyovush obraziga hurmat shunchalik baland bo`lganki, hatto uning obrazini tabiatning tirilishi va o`lishi xudosi darajasiga ko`targanlar.

Tarixchi Muhammad Narshaxiy ham o`zining «Buxoro tarixi» asarida Huxoro atrofida mug`larning 700 atrofidagi qal`a-ko`shklar va otashparastlarning ibodatxonalari bo`lganligini yozadi. Narshaxiy Buxoroda butparastlarning bozori Siyovush kulti bilan bog`liq bo`lgan. Butlar har yili yo`qotilgan va uning o`rniga xudoning yangitdan tirilishi ramzi sifatida yangisi yaratilgan. Nurshaxiyning yozishicha, «duradgorlar va naqqoshlar u yildan bu yilgacha Iml yo`nib,

belgilangan kunda ... bozorga keltirib sotishar va xalq uni sotib ulishar ekan. Har qachon but yo`qolsa yoki sinsa yoki eskirsa... boshqasini topib olishar va eskisini tashlar ekanlar». Qadimgi Xorazm o`lkasi tarixi va etnografiyasini keng tadqiq etgan S.P.Tolstov, Ya.G`ulomov, Jabborov va boshqalar xorazmliklarning eng dastlabki diniy tasavvurlari animizm, totemizm, fetishizm, magik ko`rinishda bo`lganligi va eramizdan avvalgi I- ming yillik o`rtalariga kelib, quyosh so`ngra esa olovga sig`inganliklarini ko`rsatib o`tadilar. Yetnograf olim G.Snesaryev esa xorazmliklar bir zamonlar quyoshga topinganlar, e`tiqod belgisi hisoblangan quyosh tasviri uy-ro`zg`or jihozlari hisoblangan turli xil idishlar, namat, gilam, eshiklarda muhrlanganligini la`kidlab o`tadi. O`zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan iqlimi sovuq keladigan xorazmliklar uchun quyosh tafti va yorug`ligi o`ta muhim bo`lgan. Shu boisdan ham qadimgi xorazmliklar dastlab quyoshni, so`ngra olovni muqad-daslashtirganlar. eramizdan avvalgi V-I asrlar zardushtiylik dinining shakllanishi va mustahkamlanishi davrlari hisoblanadi. Xuddi mana shu davrda bunyod etilgan qadimgi Xorazm shahar-qal`alari: Qo`yqirilganqal`a, Jonbosqal`a, Bozorqal`a, Ayozqal`a, Tuproqqa`larda olib borilga tadqiqotlar ulaning barchasida otashparastlar ibodatxonalari mavjud bo`lganligini ko`rsatadi. Ayrim qal`alar (masalan, Jonbosqal`a)dan topilgan buyumlardan ot tasviri yoki spool haykalchalar qadimgi xorazmliklarning otga sig`inishi (totemistik qarashlari)dan darak beradi. Albatta, ko`hna Xorazmnинг keyingi davrlar tarixida «Avesto»da ko`rsatilgan dehqonchilik ma`budasi Anaxitaga, Amudaryo xudosi va kemachilar homiysi er Xubbiga va tabiat hodisalariga sig`inish mavjud bo`lganligini ko`rsatadi. Umuman olganda, qadimgi xorazmliklarning afsonalari, yozuvi va diniy qarashlari qal`alardan topilgan san`at va hunarmandchilik namunalari bu o`lka xalqlarining ma`naviy madaniyati, estetik didi va dunyoqarashi nihoyatda yuqori bo`lganligini ko`rsatadi. Beruniyning ma`lumotlariga ko`ra va olimlaming tasdiqlashicha, eramizdan avvalgi III - II asrlarda Xorazmda Qo`yqirilganqal`ada mustaqil astronomik kuzatish ishlari olib borilgan markaz va yulduzlar jadvali mavjud bo`lgan. Eramizdan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida yaratilgan «Avesto» matnlariga e`tibor bersak, qadim ajdodlarimiz o`sha davrlardayoq dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikni rivojlantira olganligini ko`ramiz. «Avesto» ning «Yasna» va «Vandidod» kabi qismlarida Ahuramazdaning eng yaqin yordamchilari, ya`ni buyuk kuch-qudratga ega bo`lgan ilohlardan biri — Xshatra Varya ma`danlardan turli xil buyumlar yasovchi hunarmandlar homiysi sifatida qabul qilinadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, eramizdan avvalgi I ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osijo hududida ijtimoiy-iqtisodiy narishlar sodir bo`lgan. Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik inmlaniyati ancha rivojlanib, mehnat taqsimoti tugallanib ulgurgan, ijtimoiy tabaqlanish amalga oshib, davlat hokimiyati o`rnatilgan va mustaqil davlatchilikning tamal toshi qo`yilgan. Ayniqsa, Qadimgi moddiy va ma`naviy madaniyatimiz haqidagi ma`lumotlarni, eng avvalo, «Avesto»dan, shuningdek, yunon tarixchilari Gerodot, Kvint Kursiy Ruf, Plutarx, Arrian, Diodor, Strabon, Pompey Trog, Yustiri asarlaridan olish mumkin. Masalan, Strabon xorazmiylarni sak-massagetlar turkumiga kiritadi, qadimgi so`g`dlar va baqtriyaliklar turmush tarzi va xulq-atvori bilan o`zaro farqlanmaydi, deydi. Tarixiy va arxeologik

manbalarga ko`ra xorazmiylar, baqtriyaliklar va so`g`diylar o`z kiyim-kechaklari, hosh kiyimlari, qurol-aslahalari bilan saklardan farq qilmaganlar. Vohadagi ular saklar bilan deyarli bir tilda gaplashganlar. etnik jihatdan dehqonchilik vohalarida joylashgan elatlarda Amudaryoning yuqori havzasidagi xorazmiylar, Gurgan quyi oqimidagi girkanlar, Kopetdog etaklaridagi umumiy nomdagi parfianlar, Murg`ob havzasidagi marg`iyonlar, Zarafshon, Qashqadaryo vohalaridagi so`g`dlar, Surxondaryo vohasidagi baqtriyaliklar va parkana (Farg`ona) liklar tarixiy manbalarda tilga olinadi. Yuqori Amudaryoning ikki sohilidagi barcha elatlar eramizdan avvalgi I ming yillik o`rtalarida yuksak madaniyatga ega bo`lib, irrigatsiya va qurilish inshootlarini hunarmandchilik va G`arb san`ati sirlarini egallagan, zo`r ma`naviy qadriyatlarni yaratgan etnik Bilimlar, hatto qo`shti davlatlarga o`z ta`sirini o`tkazganlar. Har qanday xalq yoki elatning dovrug`i o`z madaniyatining o`ta rivojlangan, isblab chiqarishdagi yutuqlari va xalq og`zaki ijodi namunalarining keng qamrovligi bilan boshqa xalqlarga yetib boradi. Qadimgi yunon va rim tarixchilari o`z asarlarida avlod-ajdodlarimizning turush-turmushi, hayot kechirishi, mashg`ulot turi, qo`shti xalqlar bilan bordi-keldisi — iqtisodiy va madaniy aloqalari, xarakteri va intilishlari haqida so`z yuritadilar. Yunon solnomachisi Diodor o`zining «Tarixiy kutubxona» asarida Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari: skiflar, saklar, massagetlar, arimasplar haqida qisqacha bo`lsa-da to`xtolib o`tadi. Hozir biz yashab turgan hududlarda qadimga qadimda skiflar va ularning turli qabilalari — shak (sak), massaget va boshqalar yashaganlar. Keyinchalik skiflar hozirgi Volga, Don, Dunay daryolari bo`ylarigacha bo`lgan hududlarai bosib olganlar. «Skiflar Markaziy Osiyodan tarqalgan edi», — deb yozadi rus olimi A.B.Ditmar o`zining «Skifiyadan elefatingacha» nomli asarida. Demak, turli sabablarga ko`ra (bizningcha, o`zar qabilaviy kelishmovchiliklar natijasida Markaziy Osiyo hududlaridan ketib qolgan skiflar Yevropaning ancha ichkarisigacha cho`zilgan bepoyon o`lkalarga kirib borib yashaganlar va u yerlarda o`ziga xos madaniyatni yaratganlar, Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning ta`kidlashicha, skiflar quyidagi xudolarga sig`inganlar: «Tabiyati — ma`budalar ma`budi (yunonlarda Gestiya), Papey — osmon xudosi (yunonlarda Zevs), Api (Geya), Taytosir (Appolon) — cho`ponlar, keyinchalik poklik xudosi, Argimpasa (Afrodita) — sevgi, muhabbat vago`zallik xudosi, Fagimasad (Poseydon) - dengiz xudosi. Skiflarda urush xudosidan boshqa xudolarga haykal o`rnatish, ibodatxona va mehrob qurish odat emas, — deb yozadi tarixchi. Gerodot sanab o`tgan yetti xudo ma`bud zardushtiyaming yetti ma`bululari — Ahuramazda va Olti Amesha Spentalariy Voxu Manna (yezgu-niyat), Atavaxishta (to`g`rilik, rost so`zlash), Xshatra Varya (umid va qudrat), Spenta Armayeti (komillik, mukammallik), Xaurvatat (salomatlik), Ameretat (umrboqiyilik) hamda borliq haqidagi tushunchalariga muvofiq — yetti qavat osmon, yetti qavat yer, yetti sayyora haqidagi tushunchasi bilan bog`liq bo`lishi mumkin. Qadimgi skiflarning diniy tushunchasi va tasavvurlari hamda xudolari yaxlit, muayyan tizimga ega bo`lgan, ya`ni har bir ma`buda hayotning muayyan bir sohasini boshqaradi, yuqoridan quyiga, asosiylari ikkinchi darajalilari bilan uzviy bog`liq tarzda tasavvur qilingan. Skiflar borliqni uch qism: osmon, o`rtalik va yerdan iborat deb bilganlar. Olov — esa ana shu uch

qismni bir-biri bilan bog`laydi. Olov — ilohiy kuch, u Tahiti nomi bilan bog`liq, Tahiti skif xudolari panteonida birinchi o`rinda turgan. U — asosiy xudo, Xonadon, oila, o`choq xudosi hisoblangan. Shu sababli skiflar «shoh Tahiti nomi bilan» deb qasam ichganlar. Tabitining bosh xudo sifatida e`zozlangani bejiz emas, chunki olov ko`chmanchilar hayotining manbayi, oilaning hamrohi, farovonligi va sihat-salomatligining asosiy omili bo`lgan. Har bir xonadonda o`choqning mavjudligi (keyinchalik olovxonaning paydo bo`lishi) urug`-aymoq birligining" timsoli hisoblangan. Bundan ko`rinadiki, skiflardi muqaddas yettilik va uchlik raqamlari dastlab olovga sig`inuvchi ajdodlarimiz ilmiy, badiiy hamda diniy dunyoqarashlari, rasm-rusum, udum va marosimlarida, so`ngra Markaziy Osiyoda yashovchi turli qabila, elat va millatlar turmush tarzidagi muqaddas sonlar shaklida saqlanib kelingan. Ahmoniyalar imperiyasi va Markaziy Osiyo madaniyatiga ellinizm elementlari kirib keldi. Ahmoniyalar sultanatini yemirib tashlagan Yunon-Baqtriya bosqini Markaziy Osiyo mintaqasini, xususan suhd madaniyatini aylantirdi. Yunon-Baqtriya davrida Oyxonum (Shim.Afg'oniston), Saksanoxur va Tahtisangin (Tojikiston), Dalvarzin tepa, Yorqurg'on, Afrosiyob Talibarzi (O'zbekiston) kabi shaharlar qurildi. Yunon harbiy manzilgohlari aholisining tushmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi ellistik uslubdan Yunon-Baqtriya shaharlarda ochib o'rganildi. Infoatlar tosh, xom va pishiq g'ishtdan tiklandi. Ustunlar korinf usulida ishlangan. Saroy va ibodat majmualari, gimnaziya, teatr binolari ochib tekshirilganda ustunlar attik bazaltlar, akant yaproqlari, palmetallar, cheti naqshlangan cherepts-aftifikslar singari unsurlangan foydalangan holda ko'rildi. Yunon-Baqtriya podsholigida teatr san'ati va musiqani rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud. Baqtriya saroylarida yunonistonlik aktyorlar, musiqachi va raqqoslarning guruhlari saqlangan. Ayniqsa, yunon xalq teatrining «maskars», «mim» singari turlari keng yoyilgan. Ularni klassik tragediya va komediyalardan farqi belgilangan matn bo'lman, yoki matnsiz chiqilgan, lekin u yunon tilini bilmagan mahalliy aholiga tushunarli bo`lgan. Aktyorlar sharoit, tomoshabinlarning ruhiyatiga ko'ra matnlarni o'zgartirganlar-musohaba, xazil-mutoyiba, havj, hikoya, -qo'shiq usullarida ijro etganlar. Raqs, musiqa, ko'zbo'yamachilik va akrabatik mashqlar teatr ijrochiligining muhim elementlari bo`lgan. Hukmdorlar homiylik ko'rsatgan mahalliy aktyorlar ham shakllangan; «Masxaraboz» Milliy teatrning-namunasida hamon ellistik belgilar saqlanib qolgan. Yunon-Baqtriya madaniyati sinkretizmi (qoirshiqligi) turli tillarni yonma-yon faoliyat ko'rsatishi, har xil yozuvlar tizimi va dinlarning o'zaro singishib ketishida ham ko'rindi. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda oromiy, Yunon-Baqtriya yozuvlari keng ishlatilgan, keyingisi yunon alfaviti asosida unga bitta harf qo'shim (jami 25 ta harf) baqtriya yozuvi vujudga kelgan. Zardo'shtiylik hukmron din sifatida saqlansada aholini yunon xudolari timsollariga sig'inish alomatlari paydo bo`lgan. Xorazm madaniyatini alohida ta'kidlash lozim. Shu mintaqaga sug'oriladigan dehqonchilik, shahar madaniyati shakllangan eng qadimgi manzilgohlardan bo'lib, bu yerda O'zbekiston hududidagi qadimgi (er.avv. VII-VI asrlarda) davlat asoslangan. Xorazm (er.avv. IV asrlarda) Aleksandr Makedonskiy bosqiniga qadar Ahmoniyalar istilosidan

ozod bo'lgan davlat, xorazmiylar Hindiston, Xitoy, Yaqin Sharq va Yevropa Sharqi bilan qizg'in savdo aloqalari bilan dong taratganlar. Tarixiy solnomalarda xorazmliklarni tadbirkorligi, ishtiyoqmandligi qayd etilib, ularni «ilm sohiblari» deb ataganlar. Kanal, qal'a, ko'pqavatli saroylar qurish nafaqat amaliy malakani, balki murakkab hisob-kitob va o'lchovlarni ham talab qilar edi. Moviy yo'l ko'rsatkichlaridan foydalanishni bilmay dasht-sahrolardan o'tib bo'lmasdi. Xorazmliklar er. I asridan VIII asrigacha o'zлari foydalangan mahsus taqvil tizimini yaratdilar. Bu taqvim Al-Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida mufaasal tavsiflangan. Uning ma'lumotlarini arxeologlar tomonidan topilgan, III asrga oid asl nusxa huddatlar ham tasdiqlaydi. Beruniyning ma'lumotiga ko'ra, xorazmliklar mustaqil astronomik kuzatishlar olib borganlar, osmonning yulduzlar xaritasini yaxshi bilganlar. Doira shaklidagi, dastlabki diametri 42 metrli bu bino keyinchalik 8 ta mustahkam minoraga eng bo'lgan devorlar bilan o'rali, diametri 80 metrni tashkil etgan. Ikki qavatli markaziy bino devorining qalinligi 7 metr bo'lgan. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra Qo'yqurilgan qal'a astronomik kuzatish, izlanishlar olib borilgan ilm qarorgohi bo'lgan. Kushon sultanating dastlabki manzil markazini Baqtriya tashkil etdi. Iqtisodiyot asosi dehqonchilik bo'lib, murakkab irrigatsiya va yirik sug'orish infoatlari barpo etildi. Hunarmanchilik va savdo-sotiqning jadal rivojlanishi shaharlarni gurkirab rivojlanishiga, g'ishtlardan bino etilgan qal'a va Saroylarni qurilishiga olib keldi. Bu paytda G'arb mamlakatlari, xususan Rim imperiyasining sharqiy viloyatlari bilan sado aloqalari birinchi o'ringa chiqdi. Kushon podsholarining tangalari Kiyev yaqinida, «Efiopiya, Skandinaviya va Rim imperiyasi shaharlaridan topilgan. Markaziy Osiyo buddaviylikni butun Osiyo-Xitoy, Yaponiya, Koreyaga tarqalish manzilgohini tashkil etdi. Kushonlar davrida yozuvning turli tizimlari amal qildi. Aramey yozuvi asosida kushon-baqtriya alfaviti, sug'd va xorazm yozuvi rvojlandi: Surxq Qotalda (Afg'oniston) yunon alfavitidagi kushon yozuvi topilgan. Termizdag'i Qoratepa, Fayoztepadan hinlarning Brahma, Kxoratshxa yozuvlaridagi bitiklar topildi. Kampirtepa esa (Surxondaryo) Markaziy Osiyodagi eng qadimi, noyob qo'lyozma (er.avv. II asrning 1 yarmi) papirusdagi bitik topildi. Asrimizning boshida Buyuk Xitoy devori minolaridan birida topilgan «ko'hna so'g'd yozuvi» alohida qiziqish uyg'otadi. Yozuv eramizni 312-313 yillarda bitilgan bo'lib, unda Xitoydagi so'g'd savdogarlarining faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Kushonlar san'ati qo'shni mamlakatlar va xalqlar san'atlariga ta'sir ko'rsatuvchi namunalarni yaratdi. Er. I-IV asrlardagi badiiy madaniyatning asosiy hususiyati Osiyoga olamni anglashga ellistik ta'sirni tafakkur tarozisidan o'tkazishdir. Xalchayon (Er.avv. I-e...ni 1 asrlari)-Kushon san'atining ilk yodgorliklaridan biri bo'lib undan topilgan asarlarda ko'proq hukmdor Geroy Sanat ulug'langan. Qabulxonalarining yuqori qismidan o'rinn olagan loydan ishlangan haykallar majmuida hukmdor va a'yonlari tasvirlangan. Haykal obrazlari ifodali bo'lib, unda tasvirlanayotgan obrazlarning individual belgilari ko'zga tashlanib turadi. Unda tantanavor ruhdagi qabul marosimi va jang lavhalari aks ettirilgan. Markazda podsho xonadoni va uning ilohim hoimlari-Afina, Gerakl, Niki obrazlari

gavdalangan. Kushon san'ati Kushon imperiyasidan keyin ham ana shu zamonlar turli ellardagi, jumladan, Markaziy Osiyo, Hindiston va Xitoylik san'at ustalari va ijodkorlarini ruhlantirib keldi. Kushon san'ati an'analari ifodasi Hindistondagi Gupta davlatiga xos haykallar, Sug'ddag'i bo'rtma tasvir va bezaklar (Panjikent, Vuraxiva, Afrosiyob), Sharqiy Turkiston topilmalarida bir-biridan farqlanadi. Shunday qilib qadimgi Markaziy Osiyo madaniyati taraqqiyoti mobaynida o'ziga xos an'ana va yutuqlarni saqlabgina qolmasdan, ulkan mintaqada umumiyligida qadriyatlarni vujudga kelishi, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan madaniy aloqa munosabatlarini rivojlantiriga imkoniyat yaratib madaniy yuksalishni yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Qadimgi Markaziy Osiyo madaniyatining rivoj nuqtasi bo'lган Kushonlar madaniyati hududiy va mazmun jihatidan ayro olingen madaniyat emas edi. U o'zida Sharq, Markaziy Osiyo, Antik dunyo va hind madaniyatlarini yutuqlarini o'zida mujassa etib, Sharq va Jahan xalqlari madaniyatini yana ravnaq topishiga asos bo'ldi. Kushon imperiyasi davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoda sug'orma dehqonchilik, hunarmadchilik, shaharsozlik, savdo-sotiq va iqtisodiy aloqalar ravnaq topdi. Buga Kushon-Baqtriya yozuvlari, brahma va kharoshhi hind alifbosidagi yozuvlar, kushon tangalari guvohlik beradi. Buddizm dinning rasmiy darajasi budda ibodatxonalarining o'sha zamon san'ati bilan bezatilishida namoyon bo'ladi. Termiz yaqinidagi Ayrитomdan topilgan ibodatxona tashqi devori peshtoqlariga sarg'ishroq toshlardan haykallar o'rnatilgan. Bino ichida g'ishtdan ishlangan «Budda» haykalining qoldiqlari topilgan. Haykallarning ishlanish uslubi, kiyimi, musiqa asboblari Hindiston, O'rta Osiyo, Yunoniston madaniyatlarining o'zaro ta'sirida rivojlanganligidan dalolat beradi. Kushon davri madaniyati Markaziy Osyoning eng cho'qqisi hisoblangan, ma'lum zudud va zamon bilan chegaralanmaydi. Bu madaniyat Old Osiyo, Markaziy Osiyo, Antik va Hind madaniyatlarini yutuqlarini o'zida jamlab, qo'llab Sharq xalqlarining o'rta asrdagi madaniyati rivoji uchun asos bo'ldi va jahon madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Tayanch so'z va iboralar

Moddiy va ma'naviy madaniyat, inson, shaxs, irq, etnik, milliy, madaniy, sotsial umumbashariy, sivilizatsiya, evrotsentrizm, romantizm, realizm.

Nazorat savollari

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat tushunchalarini izohlang ?
2. Madaniyat va sivilizatsyaning o'zaro munosabatini turlicha talqin etadigan qanday konsepsiyalarni bilasiz?
3. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashuvning mohiyati nimadan iborat?
4. Shaxsning madaniyat taraqqiyotiga tasirini tushuntiring ?
5. Madaniyatning shaxs shakllanishidagi roli nimalarda ko'rindi?
6. Shaxs erkinligi va madaniy faoliyat o'rtasidagi aloqadorlikni izohlang.
7. Shaxsning kamol topishida madaniy merosning ahamiyatini tavsiflang.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 16.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin farovon turmush-pirovard maqsadimiz. T.8. T.: «O‘zbekiston», 2000 y.
17. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. T.: “O‘zbekiston” 2006 y.
- 18.Karimov I.A. YUksak manaviyat-engilmas kuch. T.: "Manaviyat", 2008.- 176 b.Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O‘zbekiston», 2000 y.
- 19.Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari T.: «Turon» 2006 y.
- 20.Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. T.: «Yangi asr avlodi», 2001
21. Boboev H., Hasanov S. «Avesto» manaviyatimiz sarchashmasi. T.: «Adolat», 2001 y.
22. Jabbarov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. T.: «O‘qituvchi», 1994 y.
23. Ibrohimov A va boshqalar. Vatan tuyg‘usi. T.: «O‘zbekiston», 1996 y.
24. Kaykovus. Qobusnama. T.: «Istiqlol», 1994 y.
25. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.: «Manaviyat», 1999 y.
26. Madaniyatshunoslik. Maruza matni. Gulmetov e. va boshqalar. T.: DITAF, 2000 y.
27. Manaviyat yulduzlari. T.: 1998 y.
28. Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug‘at. T.: 1998 y.
- 29.Umarov E. «Madaniyatshunoslik». Yangi asr avlodi 2005 y.
- 30.Xayrullaev M. O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri madaniyati. T.: «Fan», 1995y.

IV-mavzu. Antik davr madaniyat va din uyg‘unligi. Qadimgi Yunon madaniyati. Ellinizm. Qadimgi Rim madaniyati. Xristanlikni vujudga kelishi.

Antik davr madaniyati – jahon sivilizatsiyasining beshigi bo‘lib, u davrda filosofiya, madaniyat fan sifatida shakllandi. O‘sha davr yunon-larining turmush tarzi, fikrlashi, ma’naviyati hozirgacha ham insonlarni hayajonga solib kelmoqda.

Antik Yevropa madaniyatining shakllanishiga Mesopotamiya va Misr madaniyatining, ayniqsa, arifmetika, astronomiya, mifologiya va teologiya sohalarida erishilgan dastlabki muhim yutuqlarining ahamiyati katta bo‘ldi.

Qadimgi Yunon madaniyati er.avv. XXVIII asrdan er.avv. II asrga-cha davom etdi. Yunonlar o‘zlarining vatanini Ellada deb ataganlar. Qa-dimgi Yunon madaniyatining eng yuqori darajaga ko‘tarilgan davri er.avv. V-IV asrlarga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Yunon madaniyati jahon madaniyati tarixida favqulodda hodisa sifatida o‘zini namoyon etdi. Ellada hozirgi zamon davlatlarining boshqaruvi shakli – respublika va demokratianing vataniga aylandi. Uning namunaviy shakli Perikl

davri (443-429) hisoblanadi. Yunonistonda jismoniy va aqliy mehnat ik-kiga ajraladi. Jismoniy mehnat bu qullarga, aqliy mehnat qilish esa ozod ki-shilarga taalluqli edi. Yunonlar davlat va shaxsiy mult, jamoa va shax-siy manfaatlarni o‘zaro juda mohirona bog‘lay olganlar. Aristokratiya odobi – musobaqa tamoyillari asosida birinchilardan bo‘lishga intilish qadriyati keng quloch yoydi. Bunday o‘yinlar sahnasi: Olimpiya o‘yin-lari¹, munozara, jang maydoni, teatr sahnalari edi. Yunonlar uchun erkinlik eng yuqori qadriyat hisoblanib, uning uchun hatto o‘limga ham tik borganlar. Leonid jasorati yoki Prometey haqida afsona bunga misoldir. Yunonlarning turmush tarzi haqiqat, go‘zallik, mehribonlik, me’yor kabi kategoriyalar uyg‘unligi bilan belgilangan. Ular uchun tabiat go‘zalligi va uning inson go‘zalligi bilan uyg‘unligi haqidagi tushuncha muhim ahamiyatga ega edi. Qadimgi yunonlar uchun me’yor tushun-chasi muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Yunoniston tabiatining o‘zini go‘zalligi, me’yorligi (bir qirg‘og‘idan ikkinchi qirg‘og‘igacha km), Olimpiya tog‘ining unga baland emasligi, iqlimning mo‘tadilligi qa-dimgi yunonlar dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shuning uchun yunonlarda xususiy mult erkin kishi uchun ajralmas atribut bo‘lsa, ikkinchi tomondan ochko‘zlik, molparastlikni qoralaganlar.

Qadimgi Yunon madaniyati beshta davrga bo‘linadi:

Egey madaniyati (er.avv. 2800-1100-yillar).

Gomer davri (er.avv. XI-IX asrlar);

Arxaik madaniyat davri (er.avv. VIII-VI asrlar);

Klassik (yuqori darajadagi) davri (er.avv. V-IV asrlar);

Ellinizm davri (er.avv. 323-146-yillar).

Egey madaniyatini ko‘pincha Krit-Miken madaniyati deb ham ata-shadi. Buning sababi Krit oroli va Miken Yunon madaniyatining asosiy markazlari sanalgan. Shuningdek bu davrni afsonaviy podsho Minosning nomi bilan Minoy madaniyati deb ham atashadi. Eramizdan avvalgi uch minginchi yillarning oxiri, ikki minginchi yil-larning boshlarida Krit orolida Knoss, Festa, Mali va Kato-Zakro shahar davlatlari vujudga keldi. Shaharlarning tutgan o‘rnini hisobga olinib, ba’zida ularni «Saroy madaniyati» deb ham atashadi. Bu davrda asosiy mashg‘ulot qishloq xo‘jaligi bo‘lib, bunda don, uzum, zaytun yetishti-rilgan. Xo‘jalikda chorvachilik, hunarmandchilik va savdo ham muhim o‘rin tutgan. Krit madaniyatiga taalluqli Knoss saroyi «Labirint» nomi bilan tarix-ga kirgan bo‘lib, uning birinchi qavatigina saqlanib qolgan. U ko‘p qavatli inshoot bo‘lib, 300 xonadan iborat, bir gektardan ko‘proq yerni egallagan. Saroyda suv o‘tkazuvchi moslama (vodoprovod), kanalizatsiya va van-nalar, hunarmandchilik ustaxonlari bo‘lgan. Saroyning mahfiy xonasi-dan ayol xudoning qo‘lida ilonni ushlab turgan haykalchasi topilgan. Sa-royning devorlarida hozirgacha «Gullar teruvchi», «Qushni tutishga shay-lanayotgan mushuk», «Ho‘kiz bilan o‘yin» kabi rasm manzaralari saqlanib qolgan. Krit o‘zining chiziqli harflaridan iborat o‘z yozuviga ega bo‘lgan. Lekin bu yozuvni hanuzgacha hech bir olim o‘qib chiqishga ega bo‘lmasan.

² Olimpiya o‘yinlari Piloponesning g‘arbidagi Qadimgi Olimpiya shahrida er.avv. 776-yildan boshlanib, har 4 yilda bir marta o‘tkazilgan bo‘lib, unda: chopish, sakrash, kurash tushish, disk otish, nayza otish, mushtlashish va to‘rt ot qo‘shilgan ikki gildirakli aravalar musobaqasi o‘tkazilgan.

Miloddan avvalgi 1450-yilda Krit orolidagi Minoy sivilizatsiyasi kuchli zilzila va suv toshqini tufayli falokatga uchragan. XI-IX asrlarning Gomer asri deb atalishi sababi shuki, bu davrni yo-ritib beruvchi asosiy manba Gomerning «Odisseya», «Illiada» dostonlari bo‘lgan. Bu davrda davlatchilik, shahar – saroy turmush madaniyati va yozuv yo‘q bo‘lib boradi, mehnat qurollarini temirdan yasashga o‘tilishi natijasida mehnat unumдорligi ancha o‘sadi, dehqonchilik va chorvachilik ri-voj topadi. Savdo-sotiqda esa ayrboshlash vositasi qoramollar hisoblangan. Arxaik davrga xos xususiyati shundaki, Yunonistonda uch asr davomida qishloqdan shaharga, urug‘-qabilachilik, patriarchat munosabatlaridan klassik qulchilik bosqichiga o‘tish uchun zamin etiladi.

Shahar – davlat ijtimoiy hayotining asosiy shakli bo‘lib qoladi. Davlat tuzumining shakllari – monarxiya, oligarxiya, aristokratik va demok-ratik respublika bo‘lgan. Yunonlar finikiyaliklarning yozuvi asosida 24 harfdan iborat ham unli, ham undosh tovushlarni ifodalovchi o‘z alifbolarini yaratganlar.

Insonni tarbiyalash uchun ikki yo‘nalish bo‘yicha ta’lim tizimi vujudga keltirilgan: a) «gimnastika»; va b) aqliy yo‘nalishdagi barcha madaniyat turlari, chunonchi, tabiiy fanlar, falsafa, notiqlikni o‘rganish. Ozod yunonlarning bolalari 7 yoshdan boshlab boshlang‘ich maktabga borganlar. Badavlat kishilarning bolalari esa 18 yoshgacha gimnaziyalarda o‘qishni davom ettirganlar. Bolalar mакtablarda chirolyi yozishga, aniq va ravon so‘zlashga o‘rgatilgan. Ular Gomer, Gesiod va boshqa shoir-larning she’rlarini va dostonlarini yod olganlar. Yunonlar ashula aytish, raqs-ga tushish, lira sozini chalishni bilmaydiganlarni o‘qimishli deb hisoblama-ganlar. Bolalar ulg‘aya borgan sari yugurish, kurashga tushish, sakrash, disk, nayza otish va qilich chopish bilan shug‘ullanganlar. Shu tariqa, ularni vatan himoyachilari sifatida tayyorlangan. Yunonistonda ta’lim tizimining yutug‘i tufayli polisning erkin kishilari orasida savodsizlik yo‘q edi. Jamiyat qadriyatları va axloqiy normalar shakllana boradi. Bunda vatanparvarlik va fuqarolik burchlari muhim o‘rin tutgan.

«Gretsiya mo‘jizasi» nomi bilan tarixga kirgan klassik davrda (er.avv. V-IV asrlar) qadimgi yunon sivilizatsiyasi va madaniyati yashnab eng yuqori cho‘qqiga chiqdi. Bu davrda yunonlar eronliklar ustidan g‘alabaga erish-gach, iqtisodiyot, savdo keng rivojlanadi. Afina O‘rta Yer dengizida eng katta savdo markaziga aylanadi. Afina, Misr, Karfagen, Krit, Suriya, Finikiya bilan savdo aloqalarini olib boradi.

Qadimgi Yunoniston falsafa fanining dastlabki vatani bo‘lib, ko‘plab buyuk faylasuflar yetishib chiqqan. Shulardan birinchi yunon faylasufi Fales (625-547) bo‘lib, u Misrda va Bobilda yuzaga kelgan matematika va astronomiya sohalaridagi bilimlarini egallagan. Fales Metafizik materializm, Milet mакtabining asoschisi hisoblanadi. U birinchilardan bo‘lib tabiat haqida fikr yuritgan. Quyosh tutilishini oldindan aytib bergen. Fales nar-salarning xilma-xilligidan yagona bosh asosni izlagan va uni jismoniy, his-siy muayyan modda deb qaragan. Uning ta’limotiga ko‘ra, butun mavju-dotning bosh asosi suvdir. U asli miletlik, ya’ni Kichik Osiyodan bo‘lib, Sitseronning so‘ziga ko‘ra: “Falsafa Falesdan boshlanadi.”

Falesning shogirdi Anaksimandr (610-510) koinotning geotsentrik modelini, ilk geografik xaritasini tuzgan. Tarixda birinchi bo‘lib, inson, boshqa tirik mavjudotlar singari, baliqdan bunyodga kelgan, degan evo-lutsion g‘oyani bayon

etgan. Metafizik dialektikaning yana bir vakili Anaksimandning shogirdi Anaksiman bo‘lib (588-510) uning ta’limotiga ko‘ra, butun mavjudot bosh moddiyatdan – havodan vujudga keladi va yana unga qaytadi. Havo be-nihoya, abadiy, harakatdadir. U quyuqlashib avval bulutlarni, so‘ngra suv-ni va nihoyat tuproq va toshlarni tashkil etadi, siyraklashib olovga aylanadi. Bu yerda miqdorni sifatga o‘tishi g‘oyasi mavjud. Uning ta’limoticha yul-duzlar olovdan iborat, lekin ularning issig‘ini sezmaysiz, chunki ular biz-dan juda yiroqda joylashgan.

Pifagor (mil.avv VI asr) – qadimgi yunon matematigi, faylasufi mil.avv 530 yilda Janubiy Italiyadagi Kroton shahrida falsafiy mакtab – Pifagorchilar ittifoqini tuzgan. Pifagor, son barcha narsaning mohiyati, olam esa sonlar va ular orasidagi munosabatlarning garmonik tizimidir, de-gan g‘oyani ilgari surgan.

Geraklit (VI-V asrlar) Gippokratning otasi bo‘lib, Kichik Osiyodagi Efes shahrida tug‘ilgan. U o‘zining “Tabiat haqida” gi asarida teran fikr-lari bilan o‘z ta’limotini yaratgan. Uning fikricha, tabiatning bosh, eng o‘z-garuvchan va serharakat muddasi olovdir. Olamning o‘zi, ayrim narsalar, jonlar olovdan kelib chiqqan. Chunonchi, butun mavjudot uchun ayni bir bo‘lgan bu koinotni hech qanday iloh va hech qanday inson yaratmagan, u me’yori bilan yonib, me’yori bilan o‘chib turadigan abadiy jonli olov tarzida hamisha bo‘lgan, bor va hamisha bo‘ladi.

Geraklit dunyoni bilish mumkinligiga qattiq ishongan va inson aqli uchun chegara yo‘q deb hisoblagan. O‘zgarishlar qarama-qarshi kuchlar-ning ta’siri natijasidir, hamma narsa kurash orqali sodir bo‘ladi va yan-gilanish zaruriyat tufayli ro‘y beradi degan g‘oyani ilgari surgan. U hayot abadiy qarama-qarshiliklar kurashidir, hamma narsaning otasi – ziddiyat-lardir. U “kosmos” (tartib) so‘zini birinchi bo‘lib qo‘llagan. Bu so‘z dastlab davlat tizimi va hatto ayollarni “tartibga keltiruvchi” pardoz-andoz anjom-lariga ham qo‘llanilgan, “kosmetika” so‘zi shundan kelib chiqqan.

Qadimgi yunon faylasuflaridan biri Epikur (341-270) bo‘lib, u Xudo-ning dunyo ishlariga aralashuvini inkor qilar edi va ichki harakat man-bayiga ega bo‘lgan moddiyatning abadiyligini e’tirof etgan. Sezgilarning paydo bo‘lishini u shunday izohlagan: jismlar sirtidan eng mayda zarra-lar “idollar” ning uzluksiz oqimi chiqib, ular sezgi organlariga kiradi va narsalarning obrazlarini vujudga keltiradi. Uning fikricha, hayotning maqsadi, rohat-farog‘at, xursandchilikdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Ular inson baxtining boshlanishi va oxiridir... Hamma yaxshilikning boshi insonning aqli bo‘lishida, baxtli bo‘lish esa bi-lim va ilmdandir degan. Yunon falsafasi yuqori darajaga ko‘tariladi. Shu davrda antik davr daholari Suqrot, Platon, Aristotel kabi buyuk faylasuflar yashab ijod qilganlar. Suqrot birinchi bo‘lib inson hayoti, yaxshilik, yomonlik,adolat kabi muammolarni mushohada qilishga asosiy o‘rin berdi. Suqrotning shogirdi Platon (er.avv. 429-347) Afina aristokratiyasining vakili edi. U er.avv. 385-yili Akademiya nomi bilan faylasuflar maktabini tashkil qil-gan. Platon o‘zining ideal davlat to‘g‘risidagi g‘oyalarini munozara shaklida yozgan. Uningcha, ideal shahar davlatni oilasi, xususiy mulki bo‘lмаган faylasuflar boshqarishi zarur edi. Ideal shaharning aholisи jangchilar va oddiy xalq (hunarmandlar va dehqonlar)ga bo‘linar edi. Kelib chiqishi chet ellik bo‘lgan qullar ham bor edi. Platon tizimini Aristotel (er.avv. 384-322) tanqid ostiga olgan edi. Uning «Siyosat» nomli mashhur asarida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan bilimlarni alohida sohalarga – botanika, fizika, siyosat,

tarix kabi nomlarga birinchi bor bo‘lingan edi. U «Metafizika» asarida falsafa fanining metafizik yo‘nalishiga asos solgan. U Makedoniya podshosi Aleksandrning ustozи ham bo‘lib, “Birinchi muallim” deb nom olgan.

Xuddi shu davrlarda «Tarix fanining otasi» Gerodot (er.avv. 490-430), atom nazariyasining asoschisi Demokrit (er.avv. 460-370), mashhur tabib, 75 ga yaqin asar muallifi Gippokrat (er.avv. 460-375) kabi mashhur olimlar yashab ijod qilganlar. Demokrit falsafa, mantiq, fizika, matematika, tex-nika, axloq, musiqa kabi sohalarda asarlar yaratgan. Bizgacha bularning ba’zi qismlari yetib kelgan. Demokrit ta’limotiga ko‘ra, tabiat obyektiv ravishda mavjud. Tabiatdagi barcha narsa va hodisalar bo‘linmas zarralar-atomlardan tashkil topgan. Atomlar eng mayda, bo‘linmas va o‘zgarmas, boqiy moddiy zarralar bo‘lib, fazoda doimo har tomonga harakat qiladi. Zarralarning har xil qo‘shiluvidan turli narsalar vujudga kelgan. Atomlar doimo harakatda bo‘lib, ular harakatining vaqt nazaridan boshi yo‘q, u abadiy. Demokrit olam cheksiz va abadiy, dunyolar vujudga kelib yo‘q bo‘lib turadi, jon ham moddiy va tana bilan birga o‘ladi degan fikrni ilgari surdi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga eri-shish mumkinligini ta’kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko‘rsatdi. Demokrit hodisa va mohiyatni tushuna boshlagan, hissiy bilim bilan abstrakt tafakkurni farq qila olgan.

Gippokrat –yunon shifokori (460-377), ilmiy tibbiyot asoschilaridan biri. U, o‘zining “Majmuayi Buqrotiya” (Buqrotiya to‘plami) bilan mashhur bo‘lgan. Shifokor hulq-atvorining qisqacha ta’rifi bo‘lgan qasamyod (“Gippokrat qasamyodi”) ham shu allomaniki. Arxitektura va shahar qurilishi bo‘yicha Miletlik Gippodam tomonidan shaharlarning rejalashtirish konsepsiysi ishlab chiqilgan bo‘lib, unga ko‘ra shahar jamoa markazi, yashash uchun uy-joy hamda ishlab chiqarish va port zonalaridan iborat bo‘lishi kerak edi. Monumental qurilishning asosiy turi ibodatxonalar bo‘lgan.

Arxitektorlar – Gektin va Kalikratlar tomonidan qurilgan Afina Akro-poli jahon arxitekturasining noyob namunalaridan biri hisoblanib, unda 46 ta ustun va haykallar mavjud bo‘lgan.

Taniqli arxitektura inshootlari ichida dunyoning yetti mo‘jizasidan biri Efesdag‘i Artemida ibodatxonasi bo‘lib, unga yovuzlik timсоли bo‘l-mish Gerostrat tomonidan o‘t qo‘yilgan edi. Qayta tiklangan ibodatxona qurilishida haykaltaroshlar Praksitel va Skopaslar tomonidan ishlangan 127 ta ustun ajoyib haykallar va rasmlar aks ettirilgan. Qadimgi yunon-lar tomonidan avval yog‘ochdan keyinchalik esa toshdan foydalaniib, ya-saladigan monumental haykaltaroshlikka asos solingan. Arxitektura soha-sida saroylar, kutubxonalar, gimnaziyalar, uy-joylar qurildi. Jumladan, Aleksandriyada 799 ming o‘ramli kitoblar turadigan kutubxona qurilgan. Arxitektor Sostratning loyihasi asosida 285-280-yillar dunyoning yetti mo‘ji-zasidan biri uch qavatli 120 metr balandlikdagi Aleksandriya mayog‘ini barpo etganlar. Klassik davrda yunon haykaltaroshlik san’atida «Ellada» yetakchi o‘rin egallagan edi. Haykaltaroshlar ichida eng taniqlisi Fidiy bo‘lib, uning Olim-piyada yaratgan Zevs haykali ham (bo‘yi 14 metr) olamning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanadi. Uning Afina haykali (bo‘yi 12 metr) Afina Akropolining markaziga qo‘yilgan. Promaxos (Afina jangchisi) haykali (bo‘yi 9 metr) jangchi ki-yimini kiygan, nayza ushlab turgan ayol xudo qiyofasida tasvirlangan bo‘lib, u Afinaning harbiy qudratini ifodalagan. Fidiy Afina Akropoli

quri-lishida ham ishtirok etgan. Regiylik Pifagor «Oyog‘idan tikonni chiqarayotgan bola», Miron «Dis-kabol» va «Afina va Marsiy», Poliklet «Dorifora» va «Yaralangan Amazon-ka» kabi haykallarni yaratganlar. Poliklet inson tanasining mutanosibligi haqida «Kanon» asarini yozgan. Praksitel, Skopas, Lissip quiyi klassika davr namoyandalaridir. Prak-sitel yunon haykaltaroshligida birinchi bo‘lib yalang‘och ayol obrazi – «Afrodita Knidskaya» haykalini yaratgan. Praksitel ijodi uchun did, nozik go‘zallik xos bo‘lib, ular «Musallas quyayotgan satir», «Erot» haykallarida ayniqsa yorqin namoyon bo‘lgan. Skopas Praksitel bilan birgalikda Efesdagi ibodatxona va Galikar-nasdagi Artemida maqbarasini bunyod etishda ishtirok etganlar. Saroy rassomi Lissip Aleksandr Makedonskiyning haykalini yaratgan. U insonning ichki dunyosi, kechinmalarini o‘z asarlari orqali namoyon qilgan. Bunga bron-zadan ishlangan «Dam olayotgan Germes», «Shippagini bog‘layotgan Ger-mes», «Erot» asarlari misol bo‘la oladi. Haykaltaroshlik sohasida ellinizm davrida ba’zida yirik shakkardagi haykallar ham yaratilgan. Xususan, Xeros tomonidan yaratilgan quyosh xu-dosi Gelios haykali, yoxud dunyoning yetti mo‘jizasidan biri 36 metr ba-landlikda bo‘lgan Rodos orolidagi Koloss Rodoskiy haykali bunga misoldir (mazkur haykal yer silkinishlari natijasida qulab tushgan). O‘sha davrda yara-tilgan Afrodita (Venera), Miloskaya va Samossalik Nika haykallari hozir-gacha dunyo madaniyatining noyob durdonalari hisoblanadi. Qadimgi Yunon madaniyatidagi teatr³ sohasida tragediya, komediya janlarining paydo bo‘lishi va ravnaqi muhim voqeа hisoblanadi. Yunon teatri qishloq xo‘jaligi homiysi bo‘lgan Dionis sharafiga o‘tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan xalq qo‘shiqlari va o‘yinlari asosida vujudga kelgan. Dionis bayramlari toklar, daraxtlar barg chiqargan ba-horda va kuzda o‘tkazilgan⁴. «Tragediyalar otasi» Esxil (525- 458) 90 dan ortiq tragediya⁵ yozgan. Esxil o‘z tragediyalarida afsonaviy voqealardan foy-dalangan bo‘lsada, ularda o‘z davrining muhim masalalari keng o‘rin tutgan. Masalan, halok bo‘lib borayotgan matriarxat bilan patriarxat o‘rtasidagi zid-diyatlar masalasiga bag‘ishlangan «Oresteya» trilogiyasi: «Agamemnon», «Xoeforlar» va «Avmenida» asarlaridan iborat. Uning eng mashhur tragediyalari esa «Zanjirband Prometey» va «Forslar»dir. «Zanjirband Prometey» asari insonning kuch-qudrati, irodasi buyukligi timsolidir.

Jumladan, Zevs tomonidan yuborilgan Germesga Prometey qanday azob-uqubatlar bilan jazo berilishini eshitgach, shunday deydi:

Va na qatl, va na makr qilmas aslo kor,
Aytmasman Zevsga hech qanday sir-asror,
Chaqmoq chaqib, mayli o‘tda kuydirsin.
Osmon-u falakni oppoq quyundek,
Hammagini batamom-butkul quritsin:
Ammo irodamni bukolmas aslo,
Jahannam o‘tini qilsa ham paydo.
Kim uning hokimligini etishin bekor,
Xomtama bo‘lmasin, aytmasman zinhor.

³ Teatr – yunoncha so‘z bo‘lib, tomoshalar joyi degan ma’noni bildiradi.

⁴ Kuzgi Dionis bayrami bizning Mehrjon bayramimizga to’g’ri keladi.

⁵ Tragediya- yunoncha «echkilar qo’shig‘i» ma’nosini anglatadi.

Esxilning «Forslar» tragediyasida Yunoniston – Eron urushlarida⁶ yunon-larning qahramonona kurashi va g‘alabasi aks etgan.

Yana bir buyuk tragediya janri namoyandalaridan biri Sofokl (496-406) bo‘lib, u 120 dan ortiq tragediyalar yozgan. Ulardan bizgacha yettiasi yetib kelgan, xolos. Afina teatrida dastlab qo‘yilgan «Antigona», «Shoh Edip» asarlari unga shon-shuhrat keltirgan.

Tragediya janri bilan birligida komediya⁷ janri ham vujudga kelib, ri-vojlanadi. Komediya janrining otasi Aristofan (450-388-y.y.) bo‘lib, uning asarlari sodda, tushunarli, xalq tilida yozilgan va hayotning muhim masala-lari, jumladan, tinchlik muammosi aks ettirilgan. Jumladan, uning «Tinch-lik», «Ayollar xalq yig‘inida», «Suvoriylar» asarlari o‘z davrida mashhur bo‘lgan.

Poeziya sohasida Gomerning «Illiada» va «Odisseya» dostonlari ya-ratiladi. Keyinroq shoir Gesiod tomonidan «Teogoniya» va «Ayollar ka-talogi» poemalarida antik mifologiya o‘zining klassik darajasiga ko‘ta-riladi. Antik shoirlar orasida Arxilox (lirk poeziya asoschisi), hamda shoira S.O. Lesbos ijodlari alohida o‘rin tutadi. Go‘zallik, sevgi, huzur-halovatni kuylagan Anakreonta ijodi A.S. Pushkin ijodiga ham katta ta’sir qilgan.

Poeziya sohasida Afina demokratiyasini qabul qila olmay, aristokra-tiya tabaqasini o‘z asarlarida ulug‘lab kuylagan shoir Pindar Olimpiya o‘yinlari g‘oliblariga atab qasidalar, qo‘shiqlar yozgan.

Qadimgi Yunon madaniyatining so‘nggi davri – bu Ellinizm (323-146) dir. Bu davrda madaniyatning ba’zi sohalarida, jumladan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlar darajasidan pasayish holatlari ham yuz be-radi hamda davrda yunon madaniyatining boshqa mamlakatlarga, jumladan, O‘rta Osiyoga ta’siri kuchayadi, hatto bu jarayon Yunonistonning Rimga qa-ram bo‘lganidan keyin ham davom etadi. Rim Yunonistonni siyosiy jihat-dan tobe etsa-da, yunonlar madaniyati Rimni tobe etdi.

Fan sohasida bu davrda yetakchi o‘rinni matematika egallaydi. Uning asoschilar Yevklid va Arximed kabi olimlarning ijodi tufayli matematikadan mexanika, optika, qurilish sohalarida foydalaniladigan bo‘lindi. Astronomiya, tibbiyot va geografiya sohalarida muhim yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Ma’naviy sohada dastlab yunonlarda ibridoiy din shakllari – totemizm, animizm va fetishizm kuchli bo‘lgan. Ibtidoiy jamoadan sinfiy jamiyatga o‘tish bilan yunonlarning diniy tasavvurlari ham o‘zgarib borgan. Ularda har bir yirik hodisa, kasbi-korning o‘z xudolari-homiylari bo‘lgan.

Zevs – yunonlarning eng muqaddas bosh xudosi hisoblanib, u osmon, momaqaldiroq, chaqmoq va yomg‘ir xudosi bo‘lgan. Uni odamlar jingalak sochl, baquvvat, sersoqol, qudratli, qo‘lida chaqmoq ushlagan, basavlat ki-shi sifatida tasavvur qilganlar. Zevsning ukasi Poseydonni “yerni tebratuv-chi” dahshatli dengiz xudosi deb qaraganlar. Gelios quyosh xudosi bo‘lib, u oppoq otlar qo‘shilgan oltin aravasida osmonga chiqqanda kunduz boshla-nadi, deb fikr yuritganlar.

Apollon esa yorug‘lik va san’at xudosi bo‘lgan. O‘simliklarning o‘sib chiqishi, o‘sishi, sarg‘ayishi xudo Demetriyga bog‘liq bo‘lgan, deb hisobla-ganlar. Yerosti hukmdori – homiysi Aid bo‘lgan. Dionis vinochilik, Afro-dita avval hosildorlik,

⁶ Muallifning o‘zi bu urushlarda ishtirok etgan.

⁷ Komediya yunoncha «xushchaqchaq dehqonlar qo‘srig‘i» degan ma’nioni anglatadi.

keyinchalik sevgi va go'zallik hamda dengiz sayyoh-lari homiysi bo'lgan. Afina Zevsning qizi bo'lib, yunon afsonalariga ko'ra u urush, g'alaba, san'at, bilim va donolik ma'budasi bo'lgan. U Afina shahri-ning homiysi bo'lib, haykaltarosh Fidiy tomonidan shahardagi Parfenon ibodatxonasi oldiga uning ajoyib haykali ishlangan. Yunon xudolaridan biri Zevs va Geraning o'g'li Gefest temirchilik homiysi hisoblangan. Vulqon la-valarning otlishi ham uning yer ostidagi temirchilik ustaxonasining mahsuli sanalgan. Germes savdo-sotiq xudosi sifatida e'tirof etilgan.

Antik yunonlarning qahramoni: dengizlar xudosi Poseydon va yer ma'-budasi Geyanining o'g'li; Liviyada yashagan; pahlavon Antey yerda turib ku-rashganda onasidan quvvat olib turgani uchun uni hech kim yenga olmagan, buni bilib turgan Gerakl Anteyni yerdan uzib olib havoda bo'g'ib o'ldirgan.

Appolon – qadimgi yunonlarda eng ko'p sig'inadigan xudo; quyosh tang-risi, san'at homiysi; Zevs va Latonaning o'g'li Artemidaning egizak akasi deb hisoblashgan.

Artemida – Zevs va Geraning Appolon bilan birga egizak bo'lib tug'il-gan qizi: oy ma'budasi, hayvonlar va qushlar homiysi, oy ilohasi, keyinroq ayollar iffatining homiysi.

Gerakl – yunonlarda nikoh ma'budasi va homiysi; juda katta jismoniy kuchga ega bo'lgan misli yo'q pahlavon; 12 marta jasorat ko'rsatgan. Shular kabi har bir muhim voqeanning xudolari bo'lgan. Yunonlarning fikricha, Zevs boshliq xudolari baland Olimp tog'larida yashaganlar va badavlat kishilarday hayot kechirganlar. Ular ham odamlar kabi shuxratparast, hokimiyatparast, shafqatsiz va qasoskor bo'lganlar. Yu-non xudolarining odamlardan farqlari shundaki: birinchidan, ular umrboqiy, ikkinchidan, ular Gefestdan tashqari⁸ go'zal va qaddi-qomatlari kelishgan bo'lishgan. Yunon xudolari ham sevishgan, xursand yoki g'amgin, g'azabli holatlarda namoyon bo'lganlar. Yerdagi ayollar bilan xudolar qovushuvidan qahramonlar dunyoga kelganlar.

Yunonlar o'z xudolariga ishonishgan, sig'inishgan, ularga atab ibodat-xonalar qurishgan va qurbanliklar qilishgan. Lekin yunonlarda xudolarga ko'r-ko'rona sajda qilish, mutaassiblik darajasida bo'lman. Masalan, Prometey xudolar irodasiga qarshi odamlarga osmondan olovni o'g'irlab olib tushib bergen (Prometey afsonasidan).

Yunonlar mifologiyasida birgina xudolarni emas, yerdagi insonlarni ham ulug'langan. Bunga Sofoklning "Dunyoda buyuklar ko'p, lekin insondan boshqa tabiatda kuchlisi yo'q", yoki Arximedning "Menga tayanch nuqtasini topib beringlar, men dunyoni ostin-ustun qilib tashlayman" degan iboralari-ni misol tariqasida keltirish mumkin. Yunonlar, odatda, xiton (yengsiz ko'ylak), tunika (kalta yengli ko'ylak), gimatiy (yopinchiq) kiyishgan. Bu kiyimlar inson qiyofasiga ulug'vorlik, soddalik baxsh etgan, inson tanasining egiluvchanligini ko'rsatgan. Kiyimlar asosan oq jun va kanop matolardan tayyorlangan, to'g'nog'ich belbog'-lardan foydalanilgan. Oyoq kiyim vazifasini boldirni o'rab turadigan tasmali shippaklar bajargan. Qadimgi yunonlarning kiyimlari ham me'yor, tabiiy go'zallikni namoyon qilishga xizmat qilgan.

Qadimgi Yunoniston madaniyati jahon madaniyatiga katta ta'sirini o'tkazdi va hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Yunon madaniyatisiz hozirgi

⁸ Gefest – cho'loq holatida bo'lgan.

Yevropa madaniyatini tasavvur qilib bo‘l-maydi. Shuningdek, Sharq dunyosi ham ellinizm madaniyatisiz boshqacharoq ko‘rinishga ega bo‘lgan bo‘lardi.

2. Qadimgi Rim madaniyati

Antik Rim madaniyati er.avv. VIII asrdan eramizning 476-yilgacha davom etgan. Qadimgi Rim madaniyatining o‘rni va roli to‘g‘risida ma-daniyatshunos olimlar ichida ikki qarash mavjud:

1. Taniqli madaniyatshunoslар O.Shpengler va A.Toynbilarning fikricha, qadimgi Rimliklar mustaqil madaniyat va sivilizatsiyani yarata olmaganlar, ular davlat, huquq va texnika sohalarida yutuqlarni qo‘lga kiritganlar, xolos. Boshqa sohalarda rimliklar ellinizm darajasiga yeta olmaganlar.

2. Boshqa olimlar, jumladan D.A. Silichev bunga qarama-qarshi o‘laroq boshqacha fikrni ilgari surib, Rim madaniyati va sivilizatsiyasi ham o‘ziga xosligi, betakrorligi bilan ajralib turishini va jahon madaniyatida o‘z o‘rni bor ekanligini qayd qiladi.

Rimliklar ko‘p sohalarda ellinlarga o‘xshar edi. Bu shubhasiz, biroq, shu bilan birga, ular o‘zlarining qadriyatları va ideal tizimini yaratgan-lar. Bular sirasiga, ayniqsa, vatanparvarlik, fuqarolik burchiga sodiqlik, xudolarga e’tiqod Rimda oliv qadriyat sifatiga ko‘tarilgan edi. Rimlik-lar qonunni alohida qadrlar, unga bo‘ysunishni sharaf deb bilar edilar. Ular uchun ijtimoiy manfaat shaxsiy manfaatdan ustun turardi. Kishining quyi-dagi muruvvatlilik sifatlari ulug‘langan:

1. Sodiqlik – er.avv. V asrda ibodatxona qurilgan bo‘lib, unda fuqa-rolar o‘rtasidagi munosabat, askarlarning o‘z boshliqlariga sodiqligi yor-qin aks ettirilgandi;

2. Jasorat – o‘z ishini bajarishda botirlik, har xil aldov va va’dalarga berilmaslik, sotilmaslik;

3. Shon-shavkat – jasorat uchun taqdirlanish va ulug‘lanish;

4. Erkinlik – 238-yili unga atab ibodatxona qurilgan.

Bularga misollar:

1. Yuniy Brut haydab yuborilgan podsho Tarkviniya tomonidan uyushti-rilgan suiqasdda qatnashgani uchun o‘z o‘g‘illarini o‘limga hukm qilib o‘ldir-tirgan.

2. Mutsiy Stsevola – Etrussk podshosi Parsenaning harbiy lageriga jouslik maqsadida borganida qo‘lga tushib, o‘z irodasining qat’iyligini ko‘rsatish uchun o‘z qo‘lini olovda kuydirgan edi.

Rimliklar erkin fuqaro bilan qul o‘rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirdilar. Erkin kishi uchun siyosat, urush, huquq qonunlarini ishlab chiqish, tarix-shu-noslik va dehqonchilik bilan shug‘ullanish faxrli hisoblangan. Hunarmand-chilik, haykaltaroshlik, rassomchilik, aktorlik va dramaturglik faxrli kasb sa-nalgan. Barcha qo‘l mehnati qullarga tegishli bo‘lgan. Jumladan, yolg‘on-chilik, laganbardorlik kabi illatlar ham qullarga taalluqli hisoblangan. Rim klassik qulchilik tuzumining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi.

Qadimgi Rimda birinchi bo‘lib Nibur tomonidan qayd qilingan urug‘-doshlik asosidagi aholining tarkibiy tuzilishi muhim rol o‘ynagan. Rim-ning aholisi 300 ta urug‘dan iborat bo‘lib, ularning har o‘ntasi kuriyaga birlashar, 10 ta kuriya – tribuni tashkil qildi. 3 ta tribu – bu 3 ta qabila lotin, sabin, etrussklardan iborat

edilar. Shu tribularning a'zolari teng huquqli fuqarolar – patritsiylar edi. Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko'chib kelgan odamlar va ularning ajdodlarini plebeylar deb atashgan. Ple-beylar orasida ham boy-badavlat kishilar bo'lgan, lekin ularning orasida kambag'allar ko'pchilikni tashkil qilgan. Rim aholisi ichida qullar hu-quqsiz «gapiruvchi hayvon» edilar.

Rimliklar nisbatan jangovar bo'lganlar va harbiy jasorat ular uchun oliy qadriyat hisoblangan. Rim jangchilarning bosqinchilik yurishlari tu-fayli Rim imperiyaning poytaxtiga aylandi. Rim huquqi, ajoyib yo'llar, turarjoylar, jamoat uylari Rimning ulkan yutuqlari hisoblangan. Davlat qurilishi sohasida respublika va imperiya boshqaruvi shakllarini yaratib o'z hissalarini qo'shdilar.

Ma'naviy madaniyat sohasida rimliklar yunon madaniyatining voris-lari hisoblanadilar. Ko'plab yunon xudolari nomlari o'zgartirilgan. Chunon-chi, Zevs – Yupiterga, Kronos – Saturnga, Poseydon – Neptunga, Afrodita – Veneraga, Artemida – Dianaga, Afina – Minervaga aylangan. Rimliklarda oila homiysi xudo Vestaga alohida e'tibor bergenlar. Vesta ibodatxonasi uchun zodagon oilalardan vestalkalarni – yosh qizlardan tanlaganlar, ular 30 yil mobaynida ibodatxonada xizmat qilishlari kerak bo'lgan. Vestalkalarni juda hurmat qilishgan. Agar vestalkaga jinoyatchi to'g'ri kelib qolsa, jinoyatchining aybi kechirilgan. Vestalka o'zaro urishayotgan-lar oldiga kelsa, janjalni darhol to'xtatishgan. Ular o'choq-olovni saqlovchi homiylar hisoblangan. Vestalkalar xizmat davrida bokiraligni saqlay bilish-masa, unda ularni tiriklayin yerga ko'mishgan.

Qadimgi Rimdag'i kiyimlar ham yunonlarniki kabi burmali bo'lgan. Erkaklarning asosiy ustki kiyimlari toga (yarim aylana yoki oval shakli-dagi mato) bo'lgan. Erkak va ayollarning ichki kiyimlari vazifasini tuni-ka bajargan ayollar uning ustidan stola (xiton ko'rinishidagi keng uzun kiyimlar) va parka (gimmatiyya o'xshash) kiyishgan.

Rimliklarning dam olishi ham asosan bir xil bo'lgan: hammomlarga borish va u yerdagi mashq maydonchalarida bo'lish, falsafiy sohada suhbatlar o'tkazish, kutubxonalarda shug'ullanish yoki basseynlar-da hordiq chiqarish ular uchun odatiy hol bo'lgan.

Milodning I asrida gladiatorlik janglari uchun qurilgan Kolizey amfiteat-ri o'zining ulkanligi bilan ajralib turgan. Amfiteatrga bir vaqtning o'zida 50 ming tomoshabin joylasha olgan. Kolizey aylanasining uzunligi 520 metr, balandligi 48,5 metr, 4 ta yarusdan iborat bo'lib, uning qurilishida beton⁹, pi-shirilgan g'isht va marmardan foydalilanigan. Amfiteatr arenalariga 11 ming yirtqich chiqarilgan, 10 ming gladiator bir-biri bilan jang qilgan va yirtqich hayvonlar bilan olishgan. Omma yaralangan gladiatorining tirik qolishi yoki o'ldirilishi masalasini hal qilib, yaratilgan manzarani tomosha qilgan. Rimliklar orasida sirk o'yinlari, ayniqsa 4 ta yoki 6 ta ot qo'shilgan ikki g'ildirakli aravalar poygasi mashhur bo'lgan.

Rimliklarda quyidagi ommaviy yirik bayramlar bo'lgan:

Saturnaliya – har yili dekabr oyida Saturn xudosiga atalib o'tkazila-digan bayram bo'lib, u karnaval bilan boshlangan, bayram vaqtida taba-qaviy farqlarga

⁹ Betonni qadimgi Rimda kashf qilishgan.

rioya qilingan. Kambag‘allarga sadaqalar berilgan, bir- bir-lariga o‘zaro tuhfalar ulashganlar.

Luperkaliya – xudo Favkaga atalib (chorva homiysi), qadimgi hosil-dorlik sehrgarligi bilan bog‘liq bayram bo‘lgan.

Bu bayram har yili fevral oyida o‘tkazilgan. Shu kuni hammani qam-chi bilan nomiga sekin urib chiqqanlar (qamchi febritsa deyilgan, shundan fevral oyining nomi kelib chiqqan).

Mifologiya sohasida Rim bilan bog‘liq miflar, chunonchi, «Rim dunyo markazi», «Rim – abadiy shahar» singari dunyo ustidan Rimning hukmron-lik qilishi g‘oyasi alohida o‘rin tutgan.

Filosofiya va boshqa fan sohalarida ham rimliklar yunonlar izidan bor-ganlar.

Rim tasviriy san‘at namoyandalari deyarli yunonlarning asarlari nu-shalarini va ichki dunyosini tasvirlaganlar. Rim yozuvchilar romanchilik janriga asos solganlar. Afsonaga ko‘ra Rimga er.avv. 753-yili egizaklar – Romul va Rem asos solgan. Shu vaqtidan Rimning monarxiya boshqaruvi tarixi boshlanadi. U davrda jamiyatning muhim masalalarini xalq majlisi hal qilgan. Patrit-siylarning (tub aholi) nufuzli oqsoqollaridan «Keksalar kengashi» tuzi-lib, uni lotinchada Senat deb atashgan. Dastlab Senat va podsho xalq majlisi-ga tayanib davlatni idora qilishgan.

Er.avv. 510-yili Senat bilan podshoning qarama-qarshiligi natijasida podsho Takviniy ag‘darilib, Rimda aristokratik Respublika boshqaruv ti-zimi o‘rnatalidi. Puni urushlaridan keyin (264-146) Karfagen mag‘lubi-yatga uchragach, Rim imperiyasining hududi ancha kengayadi va Rimning obro‘sii kuchayadi. Ba’zi olimlar Rimga ko‘chib kelib ijod qiladilar. Masa-lan, tarixchi Polibiy ko‘p tomlik Rim tarixiga doir o‘zining «Tarix» asarini Rimda yozadi.

Avgust (er.avv. 30-14) davri tarixchisi Tit Liviy 142 jilddan iborat «Rimning ta’sis qilinganidan keyingi tarixi»ni yozgan. Er.avv. I asrda yashagan Galikarnass Dionisiy «Qadimgi Rim yodgorliklari» degan ki-tob yozgan. U madaniyatshunoslik tarixi uchun muhim manba hisoblanadi. Kornelyi Tatsitning «Tarix» kitobida 68-69-yillardagi fuqarolar urushi va Flaviy davri tarixi bayon qilingan. Uning «Yilnomalar» nomli asarida Avgust o‘limi bilan Neron o‘limi orasidagi voqealar yozilgan. Yuliy Sezar ham «Gall urushlari haqida yozmalar» va «Fuqarolar urushi haqidagi yozmalar» nomli kitoblarini yozdirib qoldirgan. Bu asarlar Rim tari-xini, jumladan, uning madaniyatini o‘rganishda muhim manbalardir.

Yunon adabiyoti ta’sirida bir qator shoirlar va dramaturglar paydo bo‘la-di. Ular ichida Plavt va Terensiylarning komediyalari hozirga qadar yetib kelgan. Plavt Tit Makutsiy (mil.avv. 111-184-yillar o‘rtalari) Umbriyada tug‘ilgan. U 21 ta komediya yozgan: “Xazina”, “Kurkulon”, “Maqtanchoq jangchi” va boshqalar. Plavt komediyalaridagi obrazlar – greklar, lekin uning asarlarining mazmunida rimliklar hayoti aks ettiriladi. Jumladan, Rim su-di, o‘z-o‘zini boshqarish, rim madaniyati, turmush tarzi namoyon bo‘la-di. Liviy Andronik Gomerning «Odisseya»sini lotin tiliga tarjima qilgan. Bu davr shoirlaridan Lutsiliy turmush mavzulari bo‘yicha she’rlar yozib, boylik orqasidan quvuvchi o‘ta xasislar ustidan kulgan.

Publiy Terensiy (mil.avv. 195-159). Kelib chiqishi bo‘yicha karfagenlik qul bo‘lgan. Quldor uni avval o‘qishga berib savodli qilgach, so‘ngra ozod-likka chiqaradi. Publiy 6 ta komediya yozadi: “Andriyanka”, “Qaynota”, “Aka-ukalar”, “Evnux” va

boshqalar. Muallif o‘z asarlarida oila, tarbiya masalalarini yoritishga qaratadi va gumanizm, ayollarga hurmat ruhini targ‘ib qiladi. Er.avv. 27-yili Rim respublika nomi bilan atalsa-da, amalda avtoritar boshqaruvidagi imperiyaga aylanadi. Birinchi imperator, prinsipiat (shu sababli imperiyani prinsipiat deb atalgan) bo‘lgan Oktavianga Senat Av-gust unvonini – «Muqaddas kishi» degan faxriy nom bergen. Oktavian davridan boshlab butun Apenin yarim oroli Italiya deb atala boshlan-gan. Besh asr davom etgan Rim imperiyasida Avgust davri (er.avv. 20-14-) Rim madaniyatining oltin davri hisoblanadi.

Bu davrda Rim falsafasida Epikurizm, Stoitsizm va Neoplotonizm oqimlari keng yoyiladi. Epikurizmning ko‘zga ko‘ringan vakillari Lukretsiy va Sitseronlar edilar. Lukretsiy Kar (mil.avv. I asr) «Tutam narsalar haqida» poemasi-da yunon faylasuflari izidan borib, tabiatdagi barcha jonli va jonsiz nar-salarning atom zarrachalaridan tashkil topganligini ta’kidlagan. Epikurizm yerdagi hayotdan xursand bo‘lish, huzur-halovatda yashashga undagan, kishining vafotidan keyin hech qanday hayot yo‘qligini ta’kidlagan. U kishilikning eng qadimgi davri haqida shunday yozadi:

«Odamlar o‘t bilan muomalani bilmasdi hali,
Vahshiy hayvonlarni quvishardi o‘rmonga,
Va og‘ir to‘qmoq bilan urib ularni
Toshbo‘ron qilishardi bermasdi omon.»

Lukretsiy diniy e’tiqodlarni inson tafakkurini jilovlovchi yuganga o‘xshatadi. U tabiat, jamiyat va kishilar hayotida sodir bo‘ladigan vo-qealarning sabablarini ilmiy asosda tushuntirib berishga harakat qilgan. Uning fikricha, jon o‘ladi, chunki u maxsus zarralarning vaqtincha qo‘shilishidangina iborat bo‘lib, jism halok bo‘lgandan keyin ayrim atom-larga parchalanib ketadi. Jon butun tanaga yoyilgan bo‘lsa, ruh ko‘krak-ning o‘rtasida joylashgan, deydi u. U jonning o‘lishini tan olishi bilan faqat oxirat, narigi dunyoga ishonishni emas, balki bu bilan u rujni oxi-ratda jazolanishga ishonishni ham yo‘qqa chiqaradi, insonni do‘zaxdan qo‘rqishdan xalos qiladi. Shu bilan birga, o‘limdan qo‘rqish ham yo‘q bo‘ladi, ya’ni: “Biz yashab turgan ekanmiz – o‘lim yo‘q: o‘lim kelgach – biz yo‘q”. U birinchi bo‘lib, falsafa faniga materiya atamasini kiritgan. Bu atama lotincha “mater – ona” so‘zidan olingan.

Sitseron Mark Tulliy (106-43) qadimgi Rim madaniyatining rivojla-nishiga katta hissa qo‘shgan. U buyuk faylasuf, notiqlik nazariyotchisi va siyosatchi edi. U o‘z asarlarida yunon falsafa maktablarining barcha oqim-larini ommalashtirishga qaratdi. Etika muammolari Sitseronning “Yaxshilik va yomonlikning chegaralari to‘g‘risida”, “Burchlar haqida” asarlarida yori-tilgan. U baxtning birdan-bir manbayi sifatida oliy ezgulik, oliy fazilat xusu-sidagi, axloqiy burch va shaxsiy foyda ziddiyati haqidagi masalalarga e’tibor berib, amaliy tavsiyalar bergen. Kamolotga erishish uchun to‘rt fazilat – donishmandlik,adolat, mardlik, mo‘tadillik zarur, deb uqtirgan. Rim stoitsizmining vakillari Seneka, Epiktet va imperator Mark Avreliylar bo‘lib, ularning uchalasi ham falsafani insonning dunyoviy lazzatlardan voz ke-chib, axloqiy yetuklikka yetishishi to‘g‘risidagi ta’limot deb tushunar edilar. Stoitsizm xristianlik ta’limotining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Imperiya davrida fanlar rivojlanishi kuzatiladi. Katta Pliniy, Ptolomey va Galen taniqli olimlar edilar. Katta Pliniy tomonidan 37 tomlik «Tabiiy fanlar tarixi» asari yaratildi. Bu asar o'sha davrda tabiiy fanlar ensiklopediyasi rolini o'ynagan.

Ptolomey dunyoning geotsentrik tuzilishi to'g'risidagi ta'limotga asos soldi. Uning «Almagest» asari astronomik bilimlar bo'yicha qomus edi. U optika, matematika va geografiya sohalariga doir asarlar ham yozgan.

Qadimgi dunyoning mashhur tabiblaridan Asklepiad, Korneliy Sels, Klavdiy Galen bo'lib, ularning ichida Klavdiy Galen (129-201) mashhur edi. Dastlab u gladiatorlik maktabida ishlab, so'ng Rim imperatori saroyida tabib-lik qilgan. Klavdiy Galen 400 dan ortiq asarlar yozgan. Uning «Tabiblik san'ati», «Davo usullari», «Dorilarning tartibi haqida» asarlari alohida ahamiyatga ega. U «Inson tanasining qismlari haqida»gi mumtoz asarida birinchi marta bir butun organizmni anatomik-fiziologik jihatdan tasvirlab bergan. Galen shifobaxsh dorilarni hayvon va o'simliklardan tayyorlagan. Tabobat tarixida qon aylanishi to'g'risidagi dastlabki g'oyalarni ilgari surgan. Odam anato-miyasi va fiziologiyasi ilmiy diagnostika, davolash va profilaktikaning asosi ekanligini ko'rsatib bergan. Galen antik tibbiyotni yagona ta'limot tarzida umumlashtirib, XV-XVI asrlarga qadar tabobat ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning asarlaridan bobokalonimiz Ibn Sino ham foydalangan.

Imperiya davrida Publiy, Vergiliy Cho'ponlar ashulalarining to'pla-mi «Bukolikalar» asarini va «Georgiki» nomli poemasini yozib, unda dehqonlarga maslahatlar beradi va tabiat go'zalligini kuylaydi. Uning tu-gallanmagan taniqli poemasi «Eneyda» bo'lib, unda Rimning afsonaviy bosh fuqarosi Eneyaning sarguzashtlari kuylanadi. Ovidiy o'zining «Ishq san'ati», «Dard-alamlar» va «Pontdan maktublar» nomli asarlarida Avgust davridagi aslzodalar turmushini tanqid ostiga olib, Avgust g'azabiga uchragan. Boshqa asarlarida esa o'z qayg'u-alamini va mehnatkashlarning og'ir turmushini aks ettirgan. Shu bois, Qora dengiz bo'-yidagi Toma shahriga surgun qilingan.

Eramizning I asridan boshlab Rimliklar, ayniqsa, ularning yuqori ta-baqalari, zodagonlari hayotida ma'naviy qashshoqlik jarayoni kuchayib bordi. Rim imperatorlari Kaligula va Neron qahri qattiqlik va ma'naviy buzuqlik ramzlariga aylanadilar. Ma'naviy bo'shlik va inqiroz Rim ja-miyati halokatining bosh sabablaridan biriga aylandi. Italiyadagi qashshoq va mazlumlar yaxshi yashash va ozodlikka erishish uchun o'z xudolariga iltijo qilib kelganlar. Lekin bu iltijolar ular-ning ahvolini yaxshilamagan. Bora-bora mazlumlar orasida eski ma'bud va ma'budalar hamda xudolarga ishonchszilik vujudga kelgan. Mazlum-lar orasida o'zlariga ozodlik keltiradigan, zolimlarni esa jazolaydigan qudratli xudoga ishonish tuyg'usi vujudga kela boshlagan. Bu xudo va uning dastlabki payg'ambari Iso Masih edi. Iso payg'ambar nomi musul-monlarning ilohiy kitobi «Qur'on»da ham uchraydi. Sharq yilnomalariga ko'ra Iso payg'ambar milodning 25-dekabrida Bibi Maryamdan tug'ilgan bo'lib, ulg'aygach mo'jizalar ko'rsatish qobi-liyatiga ega ekanligini «Yevangeliye» («Xushxabar»)da yozilgan.

Nasroniylik (xristianlik) dinining asosida yakka xudo Iisus Xristosga ishonch, sevish yotadi. Xristian dinida hamma odamlar xudo oldida teng deb e'lon qilinadi. Ular xudo dunyoni 6 kunda yaratgan degan rivoyatni qabul qilganlar. Xristian dini dastlab, mazlumlarning himoyachisi, aslzodalar va boylarni insof va adolatga

chaqiruvchi, kelajakda mazlumlarni qullik va qashshoqlikdan ozod qilishga va'da beruvchi din sifatida e'tirof topgan. Dastlabki xristian jamoalari tarkibiy tuzilishi jihatidan eng demokratik tarzda bo'lgan. Unga mayda hunarmandlar, qullar va barcha mazlum-lar kirar edi. Ular bir-birlarini o'zaro aka-singil deb atashar edilar.

Platon g'oyalari Xristianlik diniga asos qilib olingan edi. Ikki asr mobaynida xristian dini mazlumlar dinidan asta-sekin hukmron sinflar mafkurasiga aylanadi va unga yangi talqinlar kiritiladi. Masalan:

- boylar ham mehribonlik qilishsa, jannatga tushishlari mumkin;
- o'zlarining xo'jayinlariga itoatda bo'lish va sabr qilish va hokazo;

313-yili imperator Konstantin xristianlarni erkin yig'ilishlariga rux-sat beradi va cherkovlar qurilishiga mablag'lar ajratadi. Xristianlik dav-lat diniga aylana boradi va Qadimgi Rim madaniyatida katta rol o'ynay-di. Shu bilan birga, Xristianlikning davlat diniga aylanishi tufayli cher-kov fan bilan ayniqsa diniy aqidalarga to'g'ri kelmagan tomonlariga qar-shi kurash boshladи. Ko'plab ilmiy asarlarni, jumladan, Aleksandriya ku-tubxonasidan ko'plab qo'lyozmalar, kitoblarni yondirib yuborildi. Xristian-lar, ayniqsa, qidimgi xudolarning, imperatorlarning, qahramonlarning hay-kallarini buzganlar, ibodatxonalarni cherkovlarga aylantirganlar. Olimpiya o'yinlarini man qilganlar. 395-yili Rim imperiyasi ikki qismga, Sharqiy va G'arbiy qismga aj-ralib ketadi. 476 yili esa rimliklarning german qabilalarining qo'shinidan navbatdagi mag'lubiyati natijasida oxirgi imperator Romul Avgustin taxtdan tushiriladi. Natijada G'arbiy Rim imperiyasi barham topadi. Rim madaniyati tugashi bilan Antik davr madaniyati ham tugadi. Lekin Yu-non va Rim madaniyati o'rnila Yevropa o'rta asrlar madaniyati, ayniq-sa, Yevropa uyg'onish davri madaniyati shakllandi, Vizantiya madani-yatining rivojlanishi uchun ta'sir qildi. Hozir ham minerallar, o'simlik-lar, dorilar va ko'pchilik kasallikkarning nomlarini lotin tilida ataladi. Rimda muomalaga kiritilgan kalendarni biroz o'zgartirilgan holda ish-latilmoxda. Lotin tilidagi oylar hozirgacha saqlanib qolmoqda. Misol: Sentabr – "yettinch'i", dekabr – "o'ninch'i" degani bo'lib (Rimda yangi yil mart oyidan boshlangan) avgust – Avgust nomi bilan ataladi. Rim madaniyati o'zining Rim huquqi, arxitektura, adabiyot fanlari bo'yicha erishgan yutuqlari jahon madaniyatida o'z o'mini egalladi va hozirgacha ya-shab kelmoqda, insonlarni hayratga solmoqda.

Mustaqil o'rganish uchun tavsiya etiladi: Antik Vizantiya madaniyati.

Tayanch so'z va iboralar.

Qadimgi Yunon sivilizatsiyasining o'ziga xosligi. Qadimgi Yunon sivilizatsiyasining davrlari, Krit – Miken madaniyati, Arxaik madaniyat, Klassik davr madaniyati, Rim sivilizatsiyasining boshlanishi, Qadimgi Rim madaniyati, Xristian dinining paydo bo'lishi.

Savol va topshiriqlar:

1. Yunon madaniyati o'zining noyobligini nimalarda namoyon qildi?

2. Yunonlarning turmush tarzi qanday bo‘lgan?
3. Qachondan boshlab Olimpiya o‘yinlari boshlangan va unda sportning qaysi turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilgan?
4. Yunonlarda ta’lim tizimi qanday tashkil qilingan edi?
5. Qadimgi Yunoniston fani va uning asoschilaridan kimlarni bilasiz?
6. Qadimgi Yunoniston dinidagi xudolari to‘g‘risida qanday tasavvurlar bo‘lgan?
7. Qadimgi Yunoniston madaniyatining eng yuqori darajaga chiqqan davri qaysi va nima uchun?
8. Qadimgi Yunoniston poeziyasiga doir qanday asarlarni bilasiz?
9. Qadimgi Yunonistonda arxitektura qurilishi qanday bo‘lgan?
10. Qadimgi Yunonistonda teatr san’ati sohasida qanday yutuqlarga erishilgan?
11. Antik Yunon madaniyati qadimgi Rim madaniyatining mantiqiy davomi ekanligi nimalarda namoyon bo‘ldi?
12. Qadimgi Rim madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda edi?
13. Qadimgi Rimliklarda vatanparvarlik tuyg‘usi qanday bo‘lgan?
14. Qadimgi Rim tarixchilari va ularning asarlarini bilasizmi?
15. Qadimgi Rimdagi falsafa, tabobat, adabiyot fanlari sohalaridagi yutuqlar to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
16. Qadimgi Rimda arxitektura qurilishi qanday bo‘lgan?
17. Xristian dinining paydo bo‘lishi to‘grisida nimalarni bilasiz?
18. Antik YUNON madaniyatiga doir albom tayyorlang.
19. Antik Rim madaniyatiga doir albom tayyorlang.
20. Internet tarmog‘idan foydalilanilgan holda Antik Evropa (YUNONiston, Rim, Vizantiya) ilm – fani,san’atining atoqli namoyondalari hayoti va ijodini yorituvchi slayd va tezislар tuzing.

1 Olimpiya o‘yinlari Piloponesning g‘arbidagi qadimgi Olimpiya shahrida er.avv. 776 yildan boshlanib, har 4 yilda bir marta o‘tkazilgan bo‘lib, unda: chopish, sakrash, kurash tushish, disk otish, nayza otish, mushtlashish va to‘rt ot qo‘shilgan ikki gildirakli aravalalar musobaqasi o‘tkazilgan.

2 Gefest cho‘loq holatida bo‘lgan.

3 Teatr – yunoncha so‘z bo‘lib, tomoshalar joyi degan ma’noni bildiradi.

4 Kuzgi Dionis bayrami bizning Mehrjon bayramimizga to‘g‘ri keladi.

5 Tragediya - yunoncha "echkilar qo‘shigi" ma’nosini anglatadi.

6 Muallifning o‘zi bu urushlarda ishtirok etgan.

7 Komediya yunoncha "xushchaqchaq dehqonlar qo‘shig‘i" degan ma’noni anglatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari T.: «Turon» 2006 y.
2. Aliev A. Manaviyat, qadriyat va badiiyat. T.: «Akademiya», 2000 y.
3. Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. T.: «YAngi asr avlod», 2001 y.
4. Boboev H., Hasanov S. «Avesto» manaviyatimiz sarchashmasi. T.: «Adolat», 2001 y.
5. Madaniyatshunoslik. Maruza matni. Gulmetov e. va boshqalar. T.: DITAF, 2000 y.
6. Umarov E. «Madaniyatshunoslik». Yangi asr avlod 2005 y.
7. Xayrullaev M. O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri madaniyati. T.: «Fan», 1995y

5-MAVZU: DINIY MADANIYAT (IV-XVI ASRLAR XRISTIAN EVROPASI VA MUSULMON SHARQI).

Qadimgi Hindiston madaniyati. Braxmanizm, buddizm dinlari. Mahenjo-Daro va Xarappa sivilizatsiyasi. YUqorida sanab o‘tilgan maqsad vazifalarni talabalarga etkazish va uning bugungi yosh avlod uchun ahamiyatini to‘g‘ri tushuntirish. . Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyatları Evropa sivilizatsiyasining poydevoriga asos solganligi. Qadimgi YUnionistonda shakllanib, keyinchalik yuksak bosqichga ko‘tarilgan bu madaniyat er. avv. 1 ming yillikda Rim madaniyati vujudga kelishiga katta tasir ko‘rsatdi va “Antik madaniyat” nomi bilan dunyo madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan.

VI-XVI asrlar davri tarix fanida o‘rta asrlar deyilib, qadimgi va an’anaviy madaniyatlar o‘rtasidagi davrni bildiradi. Bu davr madaniyatida mifologik tafakkur va an’analarning kuchli ta’siri hamda yangi davrning texnogen madaniyatidagi aqliy-mantiqiy tafakkur, ilmning amaliy xususiyatlari seziladi. Arab halifaligi va Evropa mamlakatlari o‘rta asrlar madaniyatidagi xususiyatni islom va xristianlik belgilaydi. o‘rta asrlar madaniyatining shakllanish qiyofasini islom va xristianlik belgilashi bilan birga, ularning o‘zi ham mifologik tushunchalar asosida shakllanib, an’anaviy madaniyatning ko‘plab jihatlarini o‘zlashtirdi, o‘z navbatida o‘rta asrlar madaniyati negizida keyingi davrlar madaniyatining shakllanishi uchun yangi madaniyat kurtaklari va yangicha tafakkur tarzi vujudga keldi. Yana shuni ham

inkor qilmaslik kerakki, o‘rta asrlarda o‘zining tafakkur tarzi va dunyoqarashi jihatidan o‘tmishda va keyingi davrlarda vujudga kelgan diniy madaniyatdan keskin farq qiluvchi diniy madaniyat yaratildi. Diniy madaniyat ko‘p mazmunlidir, negaki uning asosida turli xalqlarning madaniyat merosi mavjud: arab, turk, german, slavyan xalqlarining arxaik (ibtidoiy) madaniyati; antik meros va qadimgi sharq sivilizatsiyasi meroslarini tanlash va ijodiy qayta ishlab o‘zlashtirgan. Bundan tashqari g‘arb va Sharqning o‘rta asrlar madaniyati tarixning ming yillar davomida doimo muloqot va akkulturatsiya jarayonini kechirdi, bunda salib yurishlari davri juda shiddatlari kechdi (XI-XIII asrlar). Diniy madaniyatning ko‘p qirraligi uning tarkibida ko‘plab submadaniyatlarning mavjudligidir: xalqona (qishloq madaniyati), shahar, dunyoviy, monastir va so‘fiylik madaniyatlari. SHuningdek, din o‘sha davrdagi madaniyat va submadaniyatning barcha sohalarini birlashtirib o‘z ichiga qamrab oldi.

o‘rta asrlar davrida yakka xudolikka asoslangan jahon dinlari-xristianlik va islom Evropa, Osiyo va Afrikaning ko‘p joylarida ko‘plab kishilar uchun dunyoqarashning ustivor shakli bo‘lib, inson va butun jamiyatning tafakkurini, butun turmush tarzini belgiladi. Diniy aqidalar asosida o‘sha davrning qiyofasi kishilar ongida shakllanib madaniyatning o‘ziga xos xususiyatini belgiladi. Koinot va osmon jismlarini dastlabki va boshlang‘ich o‘rnini Xudo (Olloh) belgilab, dunyo va insonni yaratuvchisi hamda barcha mavjudot xudoning (Olloh irodasining) ijodiy yaratuvchanlik natijasidir. Insoniyat tarixi davrlarning izchillik bilan takrorlanib turishi kabi namoyon bo‘ladi, natijada davrlarning o‘rin almashishi navbatdagi payg‘ambarning kelishi bilan sodir bo‘ladi. Payg‘ambar jamiyatda buzg‘unchilik va gunohlarni tuzatishda «ilohiy aralashuvchi» ning timsoli hisoblangan. Bu «xudoning elchilari» bo‘lgan payg‘ambarlar tarixidir. Xristianlikka ko‘ra «elchilarning» so‘nggisi «xudoning o‘g‘li» Iisus Xristosning erga tushishi hisoblanib, uning chormix qilinishi bilan Erda Xudoning hukmronligi boshlanadi. Islom dini bo‘yicha Iisus faqat payg‘ambarlardan biri xalos, oxirgi payg‘ambar «payg‘ambarlik tamg‘asi» bo‘lgan Muhammaddir. Kishilarga payg‘ambarlar orqali oliy haqiqat ma’lum qilingan. YA’ni, yaxshilik va yomonlik, nomukammal – takomilga muhtoj bo‘lgan erdag'i ko‘rinadigan tabiiy mavjudlik, bunda, erdag'i oliy hilqat inson ruhi bo‘lib, u Xudo bilan birlashishga harakat qilishi lozim. Din – inson uchun namuna-mo‘minlik, jafokashlik, ruhoniyat, gunohlarni yuvish ishtiyoqi, qutilishdir. Xar kim, har doim nazorat ostidaligiga, o‘zining Olamba zarradek ekanini his qilishi, bu ulkan Olamning o‘ziga xos markazida sezilarli kuch harakatda bo‘lishi, idrok qilib xudoning (Ollohnning) e’tiborida ekanligiga iqror bo‘ladi. Din har xil milliy an’analarga ega bo‘lgan turli xalqlarga arablar SHarqi va Evropada kuchli bir sivilizatsiya yaratishi uchun birlashtiruvchi ibtido bo‘ldi. Din madaniyatning siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, badiiy-barcha sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xristianlik Rim imperiyasida Eramizni IV asrlarida uning g‘arbiy qismi gullagan paytga kelib (er. 476 y.) to‘la shakllangan cherkov tizimi va qattiq intizomga asoslangan davlat dini tarzda qaror topdi. CHerkovning tayanchi bu paytda butun Evropada keng tarqalgan va xristianlikni o‘z dini sifatida qabullagan «yovvoyi» xalqlar (jumladan: gotlar, gallar, irlandlar

va b.) tashkil etdi. Evropa bo‘ylab tarqalgan german, slavyan, turk qabilalari antik sivilizatsiyasini xarob etib yangi hayot tarzini qabul qildilar.

O‘rta asr Evropasi- bu agrar sivilizatsiya gullab yashnagan, natural ho‘jalik hukmronlik qilayotgan tarixiy davr. Dehqonlar uncha katta bo‘lmagan, bir-biridan ajralgan jamoalar shaklida yashar, ularni istak va manfaatlarini yildan-yil takrorlanadigan qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq tarzi belgilardi. Bunday hayot tarzida odamning tafakkur doirasi tor-manfaati doirasidan tashqari har qanday muloqotlarga ehtiyoji yo‘q hisob bo‘ladi. Bunda Evropa tarkib topgan davlatchilikka ham hech qanday zamin yo‘q edi. So‘ngroq xristian cherkovi jamiyatni barcha tomonlarini siyosiy tashkilot shakliga keltirishning namuna asosini tashkil etdi. Tobe’lik munosabatlariga qurilgan feudal tabaqachilik asosida CHerkov ierarxiyasi yotadi. (ruhoniylar-episkoplar-kardinallar-rim papasi), qirol xudoning vassali, saroy ayonlari-qirolning vassali, dehqon-saroy ayonining, ayol erkakning, uy hayvoni ayolning tosh va o‘simgliklar uy hayvonining vassali va bosh.»**Toshdan Xudogacha»** keng tarqalgan umumiy vassallik haqidagi g‘oya ham CHerkovni qo‘llab quvvatlagan. Musulmon SHarqida islom ta’limoti paydo bo‘lishi bilan barobar teokratik boshqaruv shakli qaror topadi, bunda diniy va dunyoviy hokimiyat payg‘ambar, keyin uning «o‘rinbosarlari-xalifalar» qo‘lida birlashgan. V-VI asrlarda Arabistonda yangi dunyo qaror topaboshladidi. Etnik va madaniy uyushish, integratsiya jarayoni kechib, yagona din, umumiy ong elementlari tarqala boshladidi. Bu avvalgi xudolaridan xafsalasi pir bo‘lgan arablarning ma’naviy-ruhiy izlanishiga turki bo‘ldi. Muhammadning payg‘ambarlik faoliyati yagona ma’naviy-mafkuraviy va sotsial birlikka intilish yo‘lida qonuniy jarayon bo‘ldi. Islomiy e’tiqod 5 asosiy talabga tayanadi. YAgona Olloxni tan olish va Muhammadni uning payg‘ambari deb bilish, namoz o‘qish, ro‘za tutish, beva-bechoralar yo‘lida zakot berish, haj ziyyorati. Islomning ushbu 5 axkomidan 4 tasi axloqiy-udum tabiatiga ega. Xususan, payg‘ambar shaxsi u haqidagi ma’lumotlar nufuzi islom diniga betakror o‘ziga xoslik, ma’naviy-ruhiy qudrat bahshida etdi va uni jahon tarixidagi muhim voqeа, o‘zida ilohiy va dunyoviy hokimiyatni mujassamlashtirgan musulmon davlatchiligining qaror topish tomirini belgiladi.

Din hayotni muqaddas shaklda tasvirlovchi g‘oyalarni yaratdi: Falsafada-teologiya, adabiyotda-ilohiy, didaktik janrlar, evropa musiqasida cherkov gimnlari-liturgiya va messa, tasviriy san’atda xristianlik syujetlari asosiy o‘rin tutdi. Asosiy fanlar ilohiyot va sxolastika (o‘rta asr falsafasida yunoncha shunday atalgan va bu atama fikr so‘qish, dogmatizm, mazmunsiz, formal bilimni anglatgan). Ilohiyot olam va inson haqidagi o‘z «kilmiy» manzarasini yaratdi. Koinot xususidagi ilmda Er Olamning, Ierusalim dunyoning markazi degan qarash hukmronlik qildi. Inson majoziy tarzda mikrokosmos- tana-er, qon-suv, nafas-havo, harorat-olov, ya’ni u boshlang‘ich ibtidodan iborat deb qaraldi. Asosiy mavzu-xudoni kuylash, Injil asotirlari, avliyolar hayoti, ruhiy-axloqiy poklanish, gunohdan, mag‘firat bo‘lish aqidalari edi. Musiqaviy madaniyat negizini cherkov qo‘sinq-kuyi (liturgiya), musiqa, she’riyat va dramaturgiyani o‘zida uyg‘unlashtirgan cherkov tantanalari tashkil etdi. Me’morchilik va tasviriy san’at ilohiyatni unsiz targ‘ib shakli tarzida namoyon bo‘ldi. Xristianlik ehromlarini (Sobor) «savodsizlar Injili» deb bejiz

aytmaganlar. Uning butun ifoda shakli- bino ichining xoch shaklidaligi, atrofning bezak-hashami, oddiy bandalariga munosib ko‘rilmagan mehrob qismi, turli haykalchalar, mo‘l bo‘yoqli tasvirlarda aslida xristian ramzları va xristianlik aqidalari ifodalangan. Bosh janr ikona bo‘lib, u savodsiz omma uchun xudo bilan ruhiy-hissiy bog‘lanish aloqa shakli sanalgan. Tasvirda xudoni bandalarining gunoh kechmishlari, ularni mag‘firat etishga qaratilgan motamsaro ko‘rinishi ifodalangan.

Islomda san’atga nisbatan qat’iy biryoqlama, diniy aqidalar timsoli ifodasini ko‘ramiz. Bunda cherkov tizimini yo‘qligi, har bir odamni Ollox-bilan tanho muloqotining mumkinligi aholi manzillari, mahallalarda qurilishning ommaviy shakli-masjidlarni bino etilishi bo‘lib, uning dastlabki namunasi Muhammad payg‘ambar tomonidan Madina shahrida solingan masjiddir. YUqori ma’lumotli musulmonlar orasida Evropa mamlakatlaridagi universitetlardan ilgariroq oliy ta’lim maktab-madrasalari keng tarqalishini belgiladi. Musulmon adabiyotida ustivorlik qilgan she’riyatni rivojlanishida sufiylik katta rol o‘ynaydi. Sufiyalar o‘zlarining chuqur hissiy-ruhiy holatlari, yaratuvchiga bo‘lgan e’tiqodini tinglovchilariga etkazish, individual ta’sir etish mahoratini namoyish etardilar. Islom tadqiqotchilardan bo‘lgan. G. Gryunbaumning ta’kidiga ko‘ra, tahliliy, ma’joziy boy ifoda vositalariga ega bo‘lgan mukammal ifoda shakli, chuqur mazmun uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan takbir imkoniyatlarini musulmon madaniyati doirasi xatto undan tashqarida topish mumkin emas. SHarqning barcha yirik Sanoiy, Jomiy, Rumiy, Sa’diy, Xofiz, Nizomiy, Navoiy singari ijodkorlari sufiylikka u yoki bu tarzda aloqador bo‘lganlar. Ilohiy haqiqat Olamning aldamchi ko‘rinishi tarzda tahayyul etilganligi tufayli ham islam san’atda asl tasvir-ifodani inkor etgan (Kitobiy miniatyura bundan mustasno). Ayni paytda Islomda olamning mohiyati, asl hayot haqiqatni naqshlarda muhrlangan belgilarida ifodalashga e’tibor qaratilgan. Mahobatli me’morchilik yodgorliklarini betakror go‘zallik timsollariga aylantirgan, ixlosmandlarni nafaqat ko‘zini, qalbini ham quvontiradigan murakkab geometrik shakllar (girh), o‘simgiliklar shakli ifodasi (islimiyl), qo‘lyozma, amaliy bezak, san’ati naqshlari asosida islamiy ramz tasvirlari yotadi. Jumladan, uchburchak-Oollohning nazari, to‘rtburchak-musulmonlarni Muqaddas manzilgohi-Ka’ba, beshburchak-dinning 5 asosiy arkoni, jimjimador o‘simgilsimon shakl, va gullar-jannat bog‘i-Bo‘ston timsollaridir. Musulmon SHarqida san’atda diniy aqidalar o‘ta izchilik bilan qo‘llangan. San’atda kalligrafik miniatyurani istisno qilgan holda deyarli voqelikni tasvirlash ta’qiqlangan, tasvir ramziy shakllarda, naqsh sifatida ifodalangan. Umuman, g‘arbda ham SHarqda ham borliq Ilohiy « Oliy hukmdor»ning aksi sifatida idrok qilingan. Xudo (Alloh) tabiatdagi narsalarni yaratuvchisi sifatida va narsalarda uning qudrati namoyon bo‘lish tarzida tushuniladi. narsalarni mohiyatini bilish Xudoni (Allohn) tanishdir. Olamni bilish nazariy bo‘lib, mashhur faylasuf, xususan Arastuning va teologlar asarlarida faqat borliqning tizimi sharhlangan. Barcha narsalardagi yashirin mazmunni topishga va fahmlashga harakat qilingan. SHundan boshlab o‘rtalarda nafaqat alximiya va astrologiya, balki an’anaviy, majoziy matematika, jug‘rofiya, filologiya va boshqa fanlar ham rivojlanib, aniq jug‘rofiy muqaddas joylar bilan bog‘liq (jannat, do‘zax,

arosat) sanalar, so‘zlarning ramziy ma’nosini tushunishga harakat qilindi. o‘rtalarning ilohiyatga oid muammolaridan biri idrok va e’tiqod masalasi hisoblanadi. g‘arbda bu bir tomondan, e’tiqodni idrokdan mustaqil, mutloq ustun deb biluvchilar (Bernar Klervosskiy, Anselm Kenterberiyskiy) va boshqalar tomondan diniy aqidalarni asoslashda idrokning rolini e’tirof etuvchilar (Boetsiy, Abelyar, Siger Brabantskiy) o‘rtasidagi munozaralarda ifodalanadi. Agar – birinchilar Avgustinning «Anglash uchun ishonaman» degan iborasini shior qilib, e’tiqodni zakovatdan ustun ekanligini asoslashga uringan bo‘lsalar, ularning muholiflari Per Abelyarning «Ishonish uchun anglayman» so‘zini shior deb bilganlar. XIII asrda Foma Akvinskiy «Oltin oraliq»ni topish – zakovat orqali e’tiqodni qisman asoslashga urinib, aslida arab SHarqining «Ikki haqiqat» to‘g‘risidagi (dualizm) nazariyasini e’tirof etdi. Ikki xaqqat g‘oyasini falsafa olami xaqida o‘z xaqqatini, din Xudo haqida o‘z xaqqatini beradi, deb S. Brabantskiy asoslagan edi. Binobarin haqiqatning diniy va falsafiy talqini qiyoslanib anglanmog‘i lozim. SHuningdek, musulmon SHarqida ham islom e’tiqodidagilar va sufizm vakillari o‘rtasida murosasiz to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi. Xaqqatni bilishni inkor qiluvchilar va haqiqatga muroqaba yo‘li bilan yaqinlashish mumkin deyuvchilar (Al-Ashiriy, g‘azzoliy, Junaydiy, Bistomiy) hamda aqliy bilishni ustun qo‘yuvchi mashhur faylasuflar Farobi, Ibn Sino, Beruniy) ta’limoti vujudga keldi. Evropa madaniyatida bu munozaralar natijasida idrok va e’tiqodning ajralishi sodir bo‘ldi. Uilyam Okkam (XVI asr)-e’tiqod va idrok, falsafa va din o‘rtasida hech qanday umumiylig yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas, demakki, ular mutlaqo bir-biridan mustaqil tushunchalar ekan, bir-birini nazorat qilmasligi kerak deb, asoslaydi. Bu g‘arbda oliy qudrat sifatida ayniqsa, «XVII asr ilmiy inqilobi» davrida tabiiy inson idrokini o‘sirishning katta g‘alabasi uchun turtki bo‘ldi. Musulmon SHarqida boshqacharoq yo‘nalish ustunlik qildi. Bunda ilm, idrok har doim faqat ma’naviy yuksalish yo‘lidagi bosqich sifatida qaralgan, idrok va ilm boshqa maqsadga qaratilishi mumkin emas. SHuning uchun ham IX-XVI asrlardagi arab tiliga asoslangan tajriba fanlari va falsafa taraqqiyotidagi katta yutuqlarning barchasi dindan ajralmagan holda sodir bo‘ldi, ilmning bosh vazifasi hayot uchun zarur hisoblangan ma’naviy asosni qidirishda davom etgan.

g‘arb va SHarq mamlakatlarining diniy madaniyatlarida sezilarli farqlar ham mavjud. o‘rtalarning Evropasida cherkovning ahamiyati alohida o‘rin tutadi. CHerkov xudo va inson o‘rtasidagi vositachi bo‘lib, faqat u insonning ruhini ilohiy «mo‘jiza» yordamida xalos qilishi mumkin (cho‘qintirish, tavba, nikoh udumlarida). CHerkov, o‘zining yozma an’analaring ega bo‘lmagan Evropadagi qabilalar uchun bilimlarni to‘plovchi va saqlovchi joy bo‘lib, ta’lim tizimining shakllanishida, jamiyatning ijtimoiy tuzilishida, huquqiy va axloqiy mezonlari shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Islomiy an’analarning asosiy o‘ziga xosligi shundaki, uning negizi diniy va dunyoviy, ilohiy va oddiy tafovutga ajratmasdan, mutloq «sof diniy» mazmunda ekanligidir. Islomda hech qachon xristianlikdagi diniy aqidalarni qonunlashtiruvchi Vselensk sobori kabi institutlar bo‘lmagan. Islomdagi teokratik ideal davlat bilan bir qatorda turuvchi alohida diniy institutning (cherkovni) mavjud g‘oyalari bilan muvofiq kelmagan. E’tiqod aqidalarini ishlab chiqish va sharhlash davlat yoki diniy muassasaning,

xalifalarning sud qilish ishlariga kirmagan. Jamoatchilik fikrining shakllanishi xususiy shaxslar, diniy arboblar (ulamolar) zimmasida bo‘lib, ularning obro‘yi diniy bilimlarga asoslangan. Din masalalari bo‘yicha o‘z fikrini bildirish huquqiga har bir musulmon ega bo‘lgan, faqat u qur’on va hadisga zid bo‘lmasligi lozim edi. Xristianlik shaxsning bir qadar maishiy mustaqilligini ta’mirladi. Diniy va dunyoviy ibtidoning bir qadar mustaqilligi xususida Injilda shunday deyilgan: «qaysarga hokimiyat, taqvodorga esa Xudoni bering». Islomda kishi faqat va so‘zsiz Xudoga tegishlidir. Musulmon kishi islom buyurganicha fikr yuritadi, shunga muvofiq «din» va «mentalitet» tushunchalarini ajratish mumkin emas. Agar xristian uchun injilga madaniyat yodgorligi sifatida munosabat bildirishi mumkin, musulmon uchun qur’on biron-bir madaniyatga qiyos qilib bo‘lmaydigan, ilohning beqiyos timsoli, balki sifatidir. Xristianlikda «qism» va «butun»ning maqsadi o‘zaro munosabatda bir-birini taqozo qiladi (dindor va cherkovning, individ va umumning), o‘z iroda kuchidan xoli bo‘lganidek, cherkovdan tashqarida shaxsiy najot mumkin emas. Islomda alohida individning taqvodorligini uning qanchalik shaxsiy zohidligi emas, umma (musulmonlar qavmi) ishlarida shunchalik qat’iy yo‘l-yo‘riq asosida ishtiroki belgilaydi, busiz najot topishi mumkin emas, ya’ni islomda ayrim butunga qo‘shilgan kabi seziladi.

Diniy va dunyoviy asosdagi bir qadar avtonomiya oqibatda dunyoviy hokimiyat va cherkov o‘rtasida kurashni keltirib chiqardi. Evropada butun o‘rta asrda davom etgan bu kurash Reformatsiyani vujudga keltirdi. Reformatsiya jarayonida (XVI asr) Evropada ruhoniylar guruhisiz (ilohiyat xizmatchilari) yangi cherkovlar vujudga keldi. Dindorlar o‘z oralaridan va’zchilarini belgilaydilar, hashamatli an’analardan voz kechadilar va o‘z ibodatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xudoga murojaat qiladilar. Islohiy cherkovlar dunyoviy alomatlarga ega bo‘lib siyosiy hokimiyat izmida bo‘ladilar. Reformatsiya Evropa xalqlarining milliy madaniyatlar rivojiga, milliy tillarni qaror topishiga sharoit yaratdi, jumladan, Martin Metor Injilni lotinchadan nemischaga tarjima qildi. Islom siyosiy madaniyati «maslahatl demokratiya» shaklini yaratdi, Xalifalik tamoyili qur’ondagi uchta qoidaga binoan yaratildi. Ulardan birinchisi hukmdorni o‘z fuqorolari bilan «maslahatlashishini» va umumning fikrini inobatga olib qaror qabul qilishni talab qiladi, boshqasi boshqarishni va munozaralarni adolat bilan hal qilishga chaqiradi, uchinchi qoida esa «Allohning elchisiga» dindorning bo‘ysunishini talab qiladi. Xalifa monarx ham, despot ham emas, uning boshqa musulmonlardan farqi, faqat e’tiqodni avaylash va shariat me’yorlarini bajarish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan shaxs. Xalifa hokimiyatni meros tarzda olishi va qoldirishi mumkin emas. Xaliflikka da’vogar va jamoat o‘rtasida kelishuv-mubayi asosida xalifa hokimiyatni olishi mumkin. U barcha musulmonlar jamoasidan yoki ularning taniqli vakillari bo‘lgan-mujahitlar tomonidan saylanadi. har bir musulmon singari xalifa ham musulmon huquqi me’yorlariga to‘la bo‘ysunushi va har qanday nojo‘ya xatti-harakati uchun javobgarlikka tortilishi mumkin. Islom tadqiqotchilari ta’kidlashicha, xalifa haqidagi shartnoma –ko‘p asrlar davomida «jamiat shartnomasi» (J.J. Russo) g‘oyasini ifoda etib keldi.

Evropada CHerkov qadimgi yozuv sirlarini saqlab kelgani uchun uzoq vaqt talim sohasida monopoliyaga aylanib qoldi. o‘rta asrlarda Evropaning ko‘p aholisi,

shu jumladan yuqori tabaqalar ham savodsiz edi. Ko‘p ritsarlar o‘zining savodsizligidan faxrlanib, o‘qish va yozishga ehtiyoji yo‘qligi, bu vazifani mirzo va monahlar bajaradi deb hisoblaganlar. Evropada shaharlarning qayta tiklanib, rivojlanishi CHerkovning ta’lim va ilm sohalaridagi monopoliyasiga chek qo‘ydi. X asrdan boshlab savdogar va hunarmandlar bolalari uchun dastlab dunyoviy maktablar, keyin universitetlar paydo bo‘ldi.

Musulmon SHarqida bu jarayon bir oz boshqacha kechdi. Xar bir e’tiqodli mo‘min-musulmon arab tilini bilishi va qur’onne o‘qiy olishi farz bo‘lgan. qur’onne xatga bitilishi jarayonida arab tilining ham taraqqiyoti boshlanadi. VIII asrda As-Sibavayxiy arab grammatikasiga oid asar yozadi, XIII asrda arab tilining ikkita lug‘ati yaratildi, bu As-Sag‘aniyning lug‘ati va Ibn-Manzuriyning «Arablar tili» lug‘atlaridir. VIII-XI asrlarda qadimgi YUnion olimlarining deyarli barcha asarlari, shuningdek, hind, shom va fors mualliflari asarlari ham arab tiliga tarjima qilingan. Falsafa, astronomiya, matematika, tibbiyotga oid ilmiy atamalar deyarli ishlab chiqiladi. Arab tili o‘rta asrlardagi eng taraqqiy etgan tillardan biri bo‘lishi bilan birga, Xindistondan to Ispaniyagacha bo‘lgan xalqlarni birlashtiruvchi xalqaro muomala til bo‘lib hisoblangan.

Musulmon madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ilm va kitobga muhabbatdir. YAngi arabiyan janr-adabning shakllanishi bilan ilmga bo‘lgan ishtiyoqni qondirib, turli fanlarning mazmunini ommabop shaklda ifodalash imkoniy yaratildi. Ta’lim olish xuddi qadimgi Xitoydagi kabi nufuzga ega bo‘ldi. Musulmon SHarqida ma’lumotli kishi hokimiyatning eng yuqori pog‘onasiga chiqishida oqsuyaklar bilan teng turgan. Ko‘pincha SHarq hukmdorlari saroyida shoirlar, faylasuflar, ilohiyotchilar, tarixchilar, qonunshunoslar, tabiblar, mirzolar, munajjimlar saroy xizmatchisi sifatidaga ma’lumotli kishilarga katta ehtiyoj bo‘lgan. Ma’lumotli kishi grammatikani, ritorikani, geografiyani, tarixni yaxshi bilishi, kiyinishni farqlashi, she’r yozish qobiliyatiga ega bo‘lishi, o‘z joyida askiya, hikoya ayta bilishi, zarur bo‘lgan. Turli xil ta’lim tizimi: diniy ta’lim beruvchi maktab va madrasalar, shuningdek, dunyoviy ta’lim-xususiy maktablar rivojlanadi.

Diniy madaniyat umuminsoniy madaniyat taraqqiyotining eng muhim davri hisoblanadi. o‘rta asrlar davrida davlatchilik, millatlarning yangi shakllari vujudga kelishi yuz beradi, hozirda muomalada bo‘lgan tillar shakllanib, ta’lim va fan tizimi yanada taraqqiy etadi. Fanning turlari va uslublari zamonaviylik kasb etib bordi. A. Gumbold aytgani kabi, arablar «tabiiy fanlar ijodkori» bo‘lib, ular tajriba va mezon yo‘liga asos soldilar. IX-asrda musulmon SHarqida rasadxona quriladi; yulduzlarning aniq joyi belgilangan katalog tuzildi; geometriya, trigonometriya, optika, alximiya, mexanika, tibbiyot, jug‘rofiya sohalari bo‘yicha ko‘plab asarlar yozildi. Ulug‘ alloma Al-Korazmiy matematikaning yangi tarmog‘i bo‘lgan algebraga asos soldi. Buyuk SHarq olimlari Xorazmiy, Farobi, Ibn sino, Ibn Rushdiy kabi ko‘plab alloma asarlaridan Evropaning yangi avlod olimlari ta’lim oldi. Tabiatni ratsional anglash an’analarni o‘zlashtirib va yanada takomillashtirib, XIII-asrda R. Bekon induktiv mantiq usulini yaratadi hamda ilmiy idrokninig bosh usuli sifatida malaka va tajribani tasdiqlaydi. VI-XVI asrlarda badiiy qadriyati yuksak yodgorliklar yaratildi: Al-hamrodagi Saroy, qurdoba, Jazoir, Sammadra,

Dehlidagi masjidlar, Reyms, Parijdagi gotika uslubidagi soborlar, Istambuldagagi Avliyo Sofiya ibodatxonasi; ajoyib ikona va haykaltaroshlik asarlari, kalligrafiya va kitob miniatyurasi, ayniqsa SHarqda she'riyat yuksak darajada taraqqiy etadi. Bu sohalarda asosiy g'oya yaratuvchilik, hayotbaxshlik bo'lib, Muhabbat va Idrok ijtimoiy taraqqiyotning bosh harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof qilinadi. Ilohiy ishq va payg'ambar she'riy san'at va shoirlarning asosiy mavzui bo'lib qoladi. Bu janrlar aniq badiiy shakl kasb etib, keyingi asrlar badiiy madaniyatining mazmunini boyitdi.

Bu davrning muhim badiiy yutuqlari qatoriga aholining barcha qatlamlari e'tirof etgan madaniyat qadriyatlarni qo'yish mumkin. Xristian va Islom dinlari boy va kambag'alni, kuchli va ojizni turli irqdagi va turli ijtimoiy guruhlarni bir-biridan ajratmaydi. Barcha e'tiqod qiluvchilar uchun umumiyligi axloq mezonlari: mo'minlik, tavba, yaxshi va rahm shafqatli bo'lish, gunox qilmaslik kabilalar mavjud. o'rta asrlarda umum e'tirof qilgan axloqiy me'yorlarning mustahkamlanishi umuminsoniy hulq va axloq mezonlarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

O'rta asrlar madaniyatining ko'p qirrali ekanligi yuqorida ta'kidlangan edi. Bu davr madaniyati ijodkorligi jarayonida ilk marta aholining barcha tabaqalari ishtirok etib, har bir qatlam o'zining madaniyatini yaratadi va o'z navbatida an'anaviy madaniyat sifatida jamiyatning ma'lumotli, yuqori qatlamining madaniyatigina namoyon bo'ladi. Ruhoniylar inson ruhiyati, ritsarlar davlat ishlari bilan mashg'ul bo'ldilar. Agar birinchilarning ideali bu dunyo farog'atlaridan batamom foriq bo'lib mangu haqiqatga erishish istagi bo'lsa, ikkinchilarining ideali kelib chiqish nufuzi, bahodirlik, sobit so'z, burch haqida qayg'urish, dunyoviy jasoratlarga hamisha tayyorlikdir. Ayni ana shunday ritsarlik fazilatlari «Nibullinglar qo'shig'i» (Germaniya), «Roland haqida qo'shiq» (Fransiya), «Sid haqidagi qo'shiq» (Ispaniya)) dostonlari va turbadurlar lirikasida kuylangan. Oddiy xalq-dehqonlar va shaharliklar yuqoridagilarga muxolifatda edi. Dehqonlar orasida xristianlik qarashlarning ta'siri o'taboshlagan qadimgi dinlarga xos tasavvur, an'ana va rasm-rusmlar saqlanib qoldi. Dehqonlar xalqona madaniyatning konsevatizmi tufayli dastlabki dinlarning xudolari, afsonaviy qahramonlari haqida hikoya qiluvchi (Islandlarning «Kukilinlar haqida Saga», inglizlarning «sovular»i, skandinaviyaliklarning «Edda»si) singari qadimgi ertaklar, asotirlar, qo'shiq, odat va udumlar saqlanib keldi. SHahar hayoti odamlarda faollik, hisob-kitobda aniqlik, ishbilarmonlik ratsional tafakkur tarzini shakllanishiga turtki berdi. SHaharliklar orasida ilm, ma'rifatga intilish boshqa tabaqalar mezonlariga tanqidiy yondoshish ruhiyati uyg'ondi. Yirik asarlar (Ai haqida roman), ixcham hikoyalar (novella, fabio, shvanklar) da ruhoniylar va ritsarlarning takabburligi, dangasaligi, nafsibuzuqligi hajv etildi, shaharliklarning sahovati va mehnatsevarligi ulug'landi. o'rta asr SHarqi madaniyatida tabaqaviy submadaniyatlar emas, ikki yirik madaniyat-shahar va ko'chmanchilar madaniyati ajralib turadi. SHahar sharoitida «YUsuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Lubna va Kays» singari dostonlar turli poetik shakl va janrdagi (qasida, masnaviy, g'azal, madxiya, ruboiy makom) adabiy asarlar, hikoya va ertaklar to'plamlari, (1001 kecha ertaklari, Kalila va Dimna) latifa va rivoyatlar yaratildi. Miniatyura bezagiga boy kitoblar, musiqa

san'ati va raqsining xilma-xil janrlari xalq orasida keng tarqaldi. Ko'chmanchilar orasida turli musiqa asboblarida kuyga solib aytildigan (baxshi va oqinlar tomonidan) xalq og'zaki ijodining yirik badiiy shakllari- epos, dostonlar yaratish ustuvorlik qildi. SHahar, ritsarlik, dunyoviy, monaxlik va so'fiylik kabi submadaniyatlarning paydo bo'lishi madaniyatni sezilarli boyitdi, yanada rivojlanishida ko'plab yo'naliishlar yaratdi hamda Renessans (Uyg'onish) deb atalgan yuksak taraqqiyotga zamin tug'dirdi. Uyg'onish davri tadqiqotchilar asarlarida turlicha baholanib, turlicha yondoshuvlarga sabab bo'ldi. Xususan, Uyg'onish yo'naliishi umumjahon jarayoni sifatida Xitoya VII-VIII asrlarda boshlanib, IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo va YAqin SHarqni qamrab oldi, XIV-XVI asrlarda Evropada takomiliga etdi. SHuningdek, tadqiqotchilar Uyg'onish davrining bosh maslakdoshi haqiqiy gumanizm bo'lganligini bir ovozdan e'tirof qiladilar. Xitoya «insonparvarlik» so'zining sinonimi «jen», SHarqda «odamiyat» atamalari hisoblanadi.

Uyg'onish davri madaniyati- diniy madaniyat taraqqiyotining va yangi texnika madaniyati rivojining ko'prik bog'lovchisidir.

Tayanch tushunchalar

Diniy madaniyat, aqliy-mantiqiy tafakkur, ibodatxona, ierarxiya, vassal, ilohiyot, aqida, taxayyul, madrasa, rasatxona.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

- 1.Diniy madaniyat deganda, nimani tushunasiz?
- 2.Diniy madaniyatning asosiy belgilari va ko'rinishlari.
- 3.Diniy madaniyat madaniy tarqqiyotning qaysi davrini ifodalaydi?
- 4.Diniy madaniyatning o'ziga xosligi nimada?
- 5.Madaniy taraqqiyotda xristianlik va islomning tutgan o'mi.
- 6.Diniy madaniyat elementlarining ma'naviy hayotga ta'siri.
- 7.Diniy madaniyatning ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini tushuntiring.
- 8.Diniy madaniyat bag'rida qanday submadaniyatlar amal qiladi.
- 9.o'rta asrning adabiyoti, san'ati va me'morchiligiga oid yodgorliklarni so'zlab bering.
- 10.Umuminsoniy madaniyatda diniy madaniyatning o'mi.

VI-Mavzu Yevropa O'rta asrlar madaniyati. Xristianlik dini.

O'rta asrlar tushunchasi Yevropada V asrdan boshlab to XVII asr-ning birinchi yarmiga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr antik madaniyatning inqirozini belgilab bergan Rim davlatining qulashi bilan boshlandi va Yevropa Uyg'onish (Renessans) davriga kelib yakunlandi. Ana shu antik va Uyg'onish davrlari o'rtasi zulmat davri (ikki yuksalish davri oralig'i) deb nom olgan. U fanda o'rta asrlar davri deb atala bosh-ladi.

Yevropada o'rta asrlarni quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

Bu davr feodal munosabatlarga o‘tish, feodallar tabaqasining shakl-lanishi, katolik cherkov ta’sirining kuchayishi, oliy ta’lim muassasalari – universitetlarning paydo bo‘lish davridir.

Ushbu davrga xos xususiyatlar shundaki, qishloqdagi ishlab chiqa-rish rivojlanibgina qolmasdan, shaharlarda ham hunarmandchilik sexlari paydo bo‘ldi, shahar infratuzilmasi yaratildi, markazlashgan yirik dav-latlar tashkil topdi. Qirol hokimiyati kuchayib, uning jamiyat ravnaqiga ta’siri ortib bordi. Kitob nashr etish yo‘lga qo‘yildi, fanning qator tar-moqlariga asos solindi.

Bu davrda ilm-fan va texnika rivojlandi. Inson turmush tarzida bu-yuk o‘zgarishlar yuz berdi, yangi qit’alar kashf etildi. Kapitalistik muno-sabatlarga asos solindi. Demokratik tamoyillar shakllandı.

V-VI asrlarda Rim imperiyasi yerlarida asosan dehqonchilik va chor-vachilik bilan shug‘ullanuvchi germanlarning dastlabki davlatlari tashkil topdi. Madaniyat ravnaqi bo‘yicha o‘zidan yuqori bo‘lgan xalqlar usti-dan hukmronlik qilish (hunlar hujumlari natijasida 476-yilda Rim imperi-yasi qulagan edi.) germanlarni boshqaruv tizimini yangi tartibga moslashti-rishga majbur etdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jihatidan bu davr feodalizm bosqi-chiga to‘g‘ri keladi. Ammo o‘rta asrlar tushunchasining asosiy mazmuni muayyan davrning vaqt chegaralarini aniqlashtirish bilangina kifoyala-nib qolmasdan, balki bu davrni madaniyat inqirozi pallasi sifatida qabul qilishidadir. Shu ma’noda o‘rta asrlar antik davrga nisbatan so‘zsiz yo‘-qotishlar davri deb qaralar edi. O‘rta asrlar madaniyatiga past nazar bi-lan qarash ko‘pincha antik davr madaniyatiga hayrixohlik bilan qarovchi tadqiqotchilar orasida tarqalgan edi. Albatta, bu – subyektiv va bir yoq-lama yondashuvdan boshqa narsa emas.

O‘rta asrlarning “zulmat dunyosi” timsoliga aylanishida ushbu davr namoyandalari bo‘lgan yozuvchilar, shoirlar, tarixchilar, diniy ulamolar va davlat arboblarining ham “hissasi” bor, albatta. Chunki ular o‘z ijo-dida asosan zamonaviy hayotning murakkab jihatlarini aks ettirganlar. Bunday asarlarda kelajakka ishonchsizlik, hayotdan norozilik tuyg‘usi sezilib turadi. Shu boisdan ham, bu muammolardan xalos bo‘lish imkonni sifatida ajal, o‘lim mavzusi markaziy o‘rin tutgan. Ular nazarida o‘rta asrlar bekorga sarflangan davr, behuda ketgan yuzlab yillar sifatida gav-dalangan. O‘rta asrlarni faqat buzg‘unchilikdan iborat, antik davr mada-niyati yutuqlarini chippakka chiqargan davr, deguvchilar ham ko‘plab topilar edi. G‘arbiy, “xristianlar dunyosi” “Rim dunyosi”ning tanazzuli oqibati-da emas, balki Rim va varvarlar dunyolarining o‘zaro muvofiqlashuvi, birkishi natijasida yuzaga keldi. Ammo u haqiqatan ham yemirilish, zo‘ra-vonlik va shafqatsizlik, antik dunyo madaniyati va sivilizatsiyasining ko‘p-lab yutuqlaridan bebahra qolish kabi jiddiy to‘sirlarni boshdan kechirdi. Ko‘plab antik davr shaharlari katta talafot ko‘rdi: ayrimlari buzib tashlan-di, boshqalari (savdo yo‘llari o‘z yo‘nalishini o‘zgartirishi munosabati bilan) tanazzulga yuz tutdi. Shunga qaramasdan, ilk o‘rta asrlardayoq ayrim sohalarda ijobjiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Qullikning bekor qilinishi ijtimoiy taraqqiyotda tub o‘zgarishlar yasadi.

Antik davrda asosiy energiya manbayi, bu qullarning jismoniy kuchi bo‘lib, ushbu manba yo‘qolgach, boshqa imkoniyatlar qidirila boshlandi. Agar antik davrda nazariy bilimlar muvaffaqiyatli rivojlangan bo‘lsa, o‘rta asrlar davri

mashina va texnika vositalaridan keng foydalanish uchun keng, ravon yo'llar ochdi. Bu qullikning bekor qilinishining be-vosita natijasidir. Antik davr ruhan va jismonan o'zaro muvozanatda bo'lgan inson timsolni ko'rsatishga intildi. Ammo ayniqsa Rim madaniyatida bu g'o-yani amalga oshirishda ko'proq jismoniy kamolotni ta'minlash borasida muvaffaqiyat qozonildi. Shuningdek, Demokrit, Platon, Aristotel kabi antik davr mutafakkirlarini ijtimoiy-siyosiy va tabiiy-falsafiy qarashla-rining Jordano Bruno, Galileo Galiley, Tomas Mor, Tommazo Kampa-nella kabi o'rta asr nazariyotchi-olimlari tomonidan ilg'or ta'limotlar ya-ratilishiga ko'rsatgan bevosita ta'sirini rad etib bo'lmaydi. Masalan, Pla-ton, Aristotellar tomonidan ilgari surilgan ideal davlat to'g'risidagi g'oyalar Tomas Mor, Tommazo Kampanellalarining utopik qarashlarida yaqqol na-moyon bo'ladi. Aynan shu qarashlar asosida keyinchalik gumanizm, de-mokratiya to'g'risidagi yangidan-yangi ta'limotlar rivojlanib, bugungi kunda ham adolatli, farovon jamiyat qurishda jahon xalqlariga dasturi-lamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Birgina shu misoldan ko'rinish turibdiki, xalqlar, avlodlar va davrlar o'rtasidagi vorisiylik nafaqat ayrim hududlar, balki jahon sivilizatsiyasi yuksalishida asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Demak, o'rta asrlar mada-niyati bevosita antik davr madaniyati, ilm-fan va san'ati ta'sirida yuksal-gan hamda o'sha davrda namoyon bo'la boshlangan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisalarni yanada boyitgan, keyingi Uyg'onish davri uchun mustahkam zamin hozirlagan.

O'rta asr Yevropa madaniyati cherkov-diniy g'oya bilan yaqindan bog'langan edi. Cherkov ta'siri o'rta asr madaniyatining turli sohalarida, chunonchi, fanda, maktabda, adabiyotda, san'atda aks etdi. Ilm-fan u qa-dar rivojlanmagan ilk o'rta asrlar davrida, taxminan XI asrning ikkinchi yarmigacha o'rta asr jamiyatiga g'oyaviy rahbarlik asosan cherkov ta-sarrufida bo'ldi: Kishilarning olam to'g'risidagi bilimlari mahalliy cher-kov ta'limoti doirasi bilan cheklandi. Boshqa mamlakatlar to'g'risida ma'lumotlar juda oz bo'lganligidan, yevropaliklar ancha vaqtlargacha olis yurtlar haqida har qanday uydirmalarni to'qishardi. Fan va texnika ta-raqqiyoti darajasi juda past bo'lganligidan, odamlar qurg'oqchilik, toshqin va kasalliklar oldida ojiz edilar. Jismoniy ehtiyojlar va lazzatlar mutlaqlashtirilgan Rim jamiyatining achchiq saboqlariga tayanib, xristianlik insondagi ruhiyatga, uning ichki dunyosiga asosiy e'tiborni qaratdi. U insonni hamma narsadan o'zini ti-yishga, ko'ngilli ravishdagi javonmardlikka, hissiy, jismoniy tuyg'ularni so'ndirishga chaqiradi. Ruhiyatning jismoniy kamolotdan ustunligini e'lon qilib, xristianlik kishining chuqur ma'naviyatini shakllantirishga, uni axloqan yuksaltirishga katta hissa qo'shdi.

Bu davrda oliy diniy hokimiyatni oliy siyosiy hokimiyat bilan yagona qo'lda birlashtirishga urinish g'oyasi kuzatiladi. Bunga Rim papalarining (Sharqda – Arab xalifaligi) Yevropada hokimiyat jilovlarini o'z qo'llariga olishga intilishlari misol bo'la oladi. Cherkovning qudratli ta'siri o'laroq, Rim papalari xudoning yerdagi noiblari hisoblangan. XII asrga kelib esa, milliy, siyosiy va davlat manfaatlarni himoya qilish diniy faoliyat bilan sig'isha olmaydigan o'ziga xos soha ekanligi ayon bo'la bordi. Talabalarga diniy masalalarning eng muhim jihatini diniy ta'limot – dogmatika tashkil etishini ta'kidlash darkor. Chunki har bir dinning asosida ishonch, e'tiqod yotadi. Xristianlik ta'limotining asoslari - «*e'tiqod ramzi»ning aqidalari*

- 1) **XUDOGA ISHONISH.**
- 2) **ISO MASIHNING XALOSKOR – MESSIYA EKANLIGIGA ISHONISH.**
- 3) **ISO MASIHNING QAYTA TIRILISHIGA ISHONISH.**
- 4) **ODAMNING GUNOHKORLIGI VA UNDAN XALOS BO'LISHIGA ISHONISH.**
- Birinchi bosqichda Iso Masih yerga kelib, yerdagi iztiroblari va *o'limi* bilan
- Ikkinci bosqichda Iso Masih yerga oxiratda yana qaytib keladi, Antixristni
- 5) **JANNAT VA DO'ZAXGA ISHONISH.**
- 6) **OXIRATGA ISHONISH.**
- 7) **AHLOQ QOIDALARINING DINIY TA'LIMOTDAGI KATTA AHAMIYATI.**

Demak, xristian dinida ham, boshqa dinlar singari, axloqiy masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Kishilarning o'zaro munosabatlarida samimiylit, sadoqat, ishonch, poklik va muhabbat eng asosiy fazilatlar deb ta'kidlangan. Ma'lumki, tabiat unsurlari, atrof-muhitdagi jismlar o'rta asrlarda tirik mavjudotlar sifatida idrok etilgan. Shu bois, turli yovuz kuchlar qursho-vida bo'lgan inson ularga qarshi kurashish, o'zini himoya qilish vositalariga ega bo'lmog'i lozim edi. Natijada turlituman tumorlar, diniy ma-rosimlarning xilma-xil shakllari rivojlanib boradi. Masalan, Muqaddas suvni iste'mol qilish kishining gunohlarini yuvib, sog'ligini yaxshilab-gina qolmasdan, uni yovuz kuchlar va jodulardan ham himoya qiladi, deb hisoblaganlar.

Dinning jamiyat hayotining barcha jabhalariga bo'lgan ta'siri butun o'rta asrlar davomida salmoqli o'rin tutdi. Bu ta'sir ayniqsa badiiy ma-daniyat va fan sohasida juda kuchli namoyon bo'ldi. Shu bois, fanning voqelikka doimo shubha bilan qarashi, mohiyatan dalillar qidirishdan iborat bo'lganligi, hech narsani haqiqat sifatida qabul qila olmasligi uni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Fan sohasidagi turg'unlik o'rta asrlardagi ru-hiy asosning tabiiy, moddiy asosdan ustunligining o'rnatilishi hisobidan qoplandi. Aynan shu davrda ijtimoiy mavqeyi va millatidan qat'iy nazar, har bir inson hayoti qadr-qimmatga ega, degan aqida tarqaldi. Gladiatorlar janglari va odamlarni qurbanlik qilishning taqiqlanishini ham turli din-larda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorlikka erisha boshlaganiga mi-sol bo'la oladi.

O'rta asr Yevropasi – bu sivilizatsiya gullab-yashnagan, natural xo'ja-lik hukmronlik qilgan tarixiy davr edi. Bunday turmush tarzi inson tafakku-rining tor manfaatlar doirasida qolib ketishiga ham olib keldi. Keyinroq xristian cherkovi jamiyatning barcha tomonlarini siyosiy tashkilot shakliga keltirishning namunaviy asosini yaratdi. Tobelik munosabatlariga asoslan-gan xristian feudal tabaqachiligi negizida cherkov iyerarxiyasi yotadi (ruho-niyilar-yepiskoplari-kardinallar-Rim papasi). Qirol – xudoning vassali, saroy ayonlari – qirolning vassali, dehqon – saroy ayonining, ayol – erkakning, uy hayvoni – ayolning, tosh va o'simliklar – uy hayvonining vassali va b. Toshdan xudogacha keng tarqalgan umumiy vassallik haqidagi ushbu g'oya ham cherkov manfaatiga to'g'ri kelar edi.

Xristian cherkovi feudal jamiyat talabiga javob beradigan kuchli tashkilot sifatida shakllandi. Uning eng quyi pog'onasida qishloq cher-koji ruhoniysi turardi. Tuman va viloyatlarda yepiskop va kardinallar cherkovni boshqarar edilar. Eng yuqori pog'onada katolik cherkovi rah-nomasi – Rim papasi turardi.

Din hayotni muqaddas shaklda tasvirlovchi g‘oyalarni yaratdi: falsafa-dateologiya, adabiyotda ilohiy, didaktik shakllar, musiqada cherkov gimn-lari – liturgiya va messa, tasviriy san’atda xristianlik sujetlari asosiy o‘rin tu-tadi. Asosiy fanlar ilohiyot va sxolastika (bu atama fikr so‘qish, dogma-tizm, mazmunsiz, yuzaki bilimni anglatgan) edi. Ilohiyot olam va inson ha-qidagi o‘z “ilmiy” manzarasini yaratdi. Koinot xususidagi ilmda Yer – Olamning, Iyerussalim – dunyoning markazi, degan qarash hukmronlik qil-di. Inson majoziy tarzda mikrokosmos, tana – yer, qon – suv, nafas – havo, ha-rorat – olov, ya’ni u boshlang‘ich ibtidodan iborat, deb qaraldi.

Xristian cherkovi o‘z maqsadi va mazmuni bilan hukmron tabaqa man-faatiga xizmat qilsada, uning maorif, madaniyat va, ma’lum darajada, fanni rivojlanishiga qo‘sghan hissasini alohida qayd etish lozim. Dastlabki kutub-xonalar monastirlarda bo‘lgan. Monax-attotlar, ko‘pincha diniy mavzu-da bo‘lsa-da, kitoblarning yangi nusxalarini yaratganlar. Yevropada XI asrga qadar maktablar ham cherkovlar qoshida tashkil etilgan bo‘lib, ularda o‘rtta asrlarning barcha buyuk allomalari ta’lim olganlar. Xristian dinining xaloskorlik kuchiga ishongan xalq ko‘pincha o‘z xohishi bilan, ba’zida majburan hosilining katta qismini cherkov va monastirlar hiso-biga hadya qilar edi. Bu borada cherkovning naqadar katta imkoniyat-larga ega bo‘lganligini Parij yaqinidagi Sen-Jermen monastiriga tegishli dehqonlar soni 80 mingdan ortiq bo‘lganligidan ham bilsa bo‘ladi.

O‘rta asr Yevropasida boy-badavlat, savodli-savodsiz, umuman, ja-miyatning barcha qatlamlari ishtirok etadigan ommaviy tadbirlardan biri diniy mavzudagi ma’ruzalar edi. Voizlar insonning hayotida, uning tur-mush tarzida, kasbiy faoliyatida amal qilinishi lozim bo‘lgan tadbirlar to‘g‘risida nutq so‘zlab, ularni ezgulikka, o‘zaro hurmatga chaqirganlar. Masalan, XIII asrda Germaniyada mashhur voiz Bertold Regensburgskiy (1210-1272) shunday atoqli arboblardan edi. Ma’lumotlarga ko‘ra, uning nasihatlarini tinglash uchun 50 minglab xalq yig‘ilgan. 1250-1272-yillar mobaynida ushbu voiz tomonidan tayyorlangan 60 taga qadar nutq ma’lum-dir. B.Regensburgskiy inson xudo oldida quyidagilar uchun javob berishini uqtiradi:

- o‘zimiz (shaxslarimiz) uchun (barchamiz ezgulikka intilib yasha-shimiz lozim);
- iste’dodimiz (lavozim, xizmat turi) uchun (qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, lavozimidan hech kim nolimasligi kerak);

Agar hamma ritsar, amaldor bo‘lsa, kim oziq-ovqat, kiyim-kechak tay-yorlaydi, binolar barpo etadi? O‘g‘rilik, qalloblik, sudxo‘rlik xudo tomoni-dan yaratilgan kasblar emas. Demak, ular bilan shug‘ullanish – yaratganga shak keltirishdir.

O‘rta asrlar davri diniy ta’limotlar taraqqiyotida alohida o‘rin tutgan siymo mashhur ilohiyotchi, faylasuf olim, muloyimligi tufayli “Farishta doktor” laqabini olgan, vafotidan so‘ng (1321-yil), avliyo deb e’lon qi-lingan Foma Akvinskiy (1225-1274-yillar) edi. U xudo borligini tasdiqlab, quyidagi beshta isbotni keltiradi:

- birinchisi – tabiatda harakat mavjudligi. Birinchi harakatga soluvchi kuch – xudodir.

- ikkinchisi – o‘zaro ta’sir qiluvchi sabablar mavjudligi, ya’ni biron narsa ta’sir qiluvchi sababsiz yuz bermaydi. Bu sabab – xudodir.
- uchinchisi – tasodif va zaruriyatning o‘zaro munosabati. Tasodifyi narsa zaruriy narsaga bog‘liq. Bu zaruriyat – xudodir.
- to‘rtinchisi – kamolot darajalarining mavjudligi. Eng oliy kamolot darajasi – xudodir.
- beshinchisi – hamma narsalarning maqsadga muvofiq yaratilganli-gidir. Shunday bir ongli mohiyat borki, tabiiy narsalarni maqsadga yo‘-naltiradi. Bu – xudodir.¹⁰

Foma Akvinskiy ta’limoti – tomizm asta-sekin cherkovning rasmiy doktrinasiga aylandi («Thomas»-lot. Foma). Feodalizmning inqirozi bi-lan zaiflashib qolgan tomizm XIX asrda neotomizm shaklida namoyon bo‘la boshladi va hukmron sinf vakillari tomonidan tobora kuchayib bo-rayotgan ishchilar harakatini susaytirish vositasi sifatida foydalanildi.

O‘rta asrlar Yevropa madaniyatining eng yirik yutug‘i o‘rta va oliy ta’lim tizimining yaratilishi hamda universitetlarning paydo bo‘lishidir. Bu davrda feodal jamiyatning dehqonchilik mehnatidan ozod bo‘lgan qismi boshqa faoliyat turlari – san‘at, adabiyot, harbiy xizmat, ta’lim bi-lan shug‘ullana boshladi. Ta’limning u yoki bu turi qadimgi sivilizatsi-yada ham mavjud bo‘lgan. Bu tizim ayrim hududlarda hatto bugungi oliy ta’lim muassasalarining ilk ko‘rinishlari holida bo‘lgan. Masalan, qadimgi Yunonistonda Pifagor, Aristotel maktablari uzoq vaqt, Platon akademi-yasi esa ulardan ham ko‘proq faoliyat ko‘rsatgan. Ammo o‘rta asr Yevropasida aholining mutlaq ko‘pchiligi savodsiz edi. Savodli kishilar na-faqat dehqonlar, balki feodallar orasida ham oz sonli edi. Ritsarlarning ko‘pchiligi imzo chekish o‘rniga belgi qo‘yganlar. G‘arbiy Yevropada uzoq vaqtlargacha ruhoniylargina savodxon bo‘lib keldi: ular diniy kitoblarni o‘qishlari, ibodat duolarini bilishlari, xudoning qudratini dindorlarga chi-royli qilib tasvirlab, kishilarni ishontirishlari lozim edi. Cherkov va monastirlar huzurida tashkil etilgan quyi maktablar o‘z ol-diga savodxon dindorlarni tayyorlashni maqsad qilib qo‘ygan. Bu maktab-larda asosan lotin tilini, ibodat va duolar o‘qish tartiblarini o‘rgatishga e’ti-bor berilar edi. IX asrda cherkov – yepiskoplik maktablari rivojlanib, keyinchalik ular zaminida o‘rta asr universitetlari vujudga keladi. Diniy maktablarda sakkiz yoshli bolalar ham, o‘smir yigitlar ham yoshiga qarab, sinflarga bo‘linmasdan, barobar o‘qitilgan.

Cherkov qoshida ichki va tashqi maktablar faoliyat ko‘rsatgan. Ichki maktablarda tug‘ilganidanoq monaxlikka mahkum qilingan bolalar ya-shab, ta’lim olganlar. Shuningdek, bu davrdagi maktablarda ilohiyot bi-lan shug‘ullanadigan yoki oddiy hayotga qaytdigan badavlat kishilar-ning farzandlari ham o‘qiganlar. Ikkala maktab ham deyarli bitta maq-sadga – lotin tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan edi. Shunga qaramasdan, VIII-IX asrlardagi savodxonlik holati to‘g‘risida Buyuk Karl qalamiga mansub bo‘lgan quyidagi misralar asosida xulosa qilish mumkin: “Impe-rator (Genrix IV) shu darajada o‘qimishli ediki, o‘ziga yuborilgan bar-cha xatlarni bemalol o‘qish va tushunish imkoniyatiga ega edi¹¹”.

¹⁰ Yo‘ldoshev S. va b. Qadimgi va o‘rta asr G‘arbiy Yevropa falsafasi. –T.: “Sharq”, 2003. 159-bet.

¹¹ Хрестоматия по истории педагогики, - М.: Учпедгиз, 1938. стр. 66-67.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining hammasidagi ta'lif muassasala-rida o'sha vaqtida biron xalq gapirmaydigan lotin tilida o'qitilgan. Ko'-pincha butun boshli maktabda bir dona kitob bo'lib, muallim uni navbat bi-lan bolalarga berib, ularning savodini chiqargan. Bolalarda o'qishga havas tug'dirishga harakat qilinmas, ammo itoatsiz talabalar qattiq kaltaklanar edi. Bugungi oliv ta'lif tizimining tarixiy ildizlari o'rta asrlar madaniyatida buyuk burilish yasagan muhim hodisa – universitetlar tashkil etilishiga borib taqaladi. Dastlab "universitet" so'zi aynan ta'lif muassasi bilan bog'liq emas edi. Universitet deb ma'lum kasb egalari bo'lgan kishilar birikmasiga, ya'ni hamkasblar, masalan, hunarmandlar uyushmalari, ittifoqlariga ta'lif beruv-chi o'qituvchi va talabalarni biriktirgan birlashmalarga aytilgan.

G'arbiy Yevropadagi dastlabki universitetlar XI asrda paydo bo'l-gan. Universitet – lotincha "majmua" ma'nosini ham anglatadi. Atama umumiylilik ma'nosini berib, unda turli sohalar birlashtirilganligi aks eta-di. Bu vaqtga kelib bilimlar hajmi shu darajada ediki, endi ularni o'z-lashtirish, ko'paytirish va saqlash uchun bu bilimlar majmuasining ay-rim qismlarini yillar davomida o'rganish zarur edi. Jamiyatda ma'lum sohalar uchun mutaxassislar, masalan, huquqshunoslar, shifokorlar, o'qi-tuvchilar tayyorlash uchun maxsus ta'lif tizimi tashkil qilish zaruriyati tug'ildi. Ilmiy darajalar (bakalavr, magistr, doktor) tizimi, umumiylilik maxsus fanlarni uzviylikda o'qitish tartiblari ham o'sha davrlarda yara-tilib, to bugungi kungacha takomillashib borgan. Darajalarning taqsim-lanishi, o'z navbatida, universitet bosqichlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ko'pchilik universitetlarda ilohiyot, huquqshunoslik va tibbiyot fakultetlari ochilib, ularda ta'lif 10 yil va undan ham ko'proq davom etardi. Shuningdek, G'arbiy Yevropa universitetlari o'ziga xos madaniyat makoni bo'lib ham xizmat qildi. Bunda barcha universitetlarda ta'lif umumiylilik (G'arbiy Yevropa uchun) – lotin tilida olib borilishi yetakchi omil bo'ldi. Universitet diplomlarini xalqaro miqyosda tan olish an'anasi ham o'rta asrlarda paydo bo'lgan. Bakalavr, magistr, doktor kabi darajalar tabaqlanishi universitet ta'limining ko'p bosqichliliga mos kelar edi. Ta'lifning birinchi bosqichi 7 ta fanni o'z ichiga olgan ikki davrdan iborat edi:

I davr – trivium (grammatika, notiqlik, mantiq);

II davr – kvadrium (arifmetika, astronomiya, musiqa, geometriya).

Oliy maktablar XIII asrda Boloniya, Monpele, Palermo, Parij, Oks-ford, Salerno va boshqa shaharlarda tashkil topdi. Umuman, ayrim ma'-lumotlarga ko'ra, XV asrga qadar Yevropa davlatlarida 60 ga yaqin universitet ochilgan. Universitetlar erkin boshqaruv va moliyaviy mustaqillik huquqlariga ega bo'lib, bu haqdagi yorliq qiroli yoki Rim Papasidan olinardi. Univer-sitetlar mustaqilligi uning ichki tartib-qoidalariga, intizomga qattiq rioya qilish bilan mujassamlashtirilgan. O'rta asrlardagi eng yirik universitet Parijda bo'lgan. Unga 1257-yili fransuz qiroli xonadoni ruhoniysi Rober de Sarbon asos solgan. Hozirgi kunda dunyoga mashhur Sarbonna uni-versiteti shu tariqa tashkil topgan. Universitetlar paydo bo'lishida talabalarining bilim va adolat izlab, ko'chib yurishlari ham katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, XII asr o'r-talarida Angliya va Fransiya o'rtasidagi siyosiy munosabatlarda ayrim ziddiyatlar yuzaga kelganda, angliyalik talabalar Parij universitetida o'z huquqlari poymol qilinayotganligini

ro'kach qilib, 1168-yilda Angliya-ning Oksford shahriga ko'chib ketganlar. Shu tariqa Oksford Universiteti vujudga kelgan. 1209 yilda ushbu universitet talabalarining g'ala-yonlari esa ularning ko'p qismining Kembrij shahriga ketishlariga va Kembrij Universitetiga asos solinishiga sabab bo'lgan. Universitetda alohida fan o'qituvchilari yig'ilib, o'z birlashmalari- fakultetlarini tuzib, unga dekan saylaganlar. Universitet rahbari-rektor o'qituvchi va talabalarning umumiy yig'ilishida saylangan. Germaniyada ham universitetlarning o'ziga xos tizimi shakllandi. Bu universitetlar, birinchidan: ta'lim berish, izlanishlar olib borish va bakalavr, magistr, doktor darajalarini berish huquqiga edilar. Bu huquq asosan diniy hokimiyat tomonidan berilgan. Ikkinchidan, ular mustaqillikka ega bo'lib, o'z Nizomi va ichki tartib-qoidalari asosida faoliyat yuritganlar. Uchinchidan, ular o'z a'zolarini o'zlari sud qilganlar, ya'ni hu-dudiy va shahar hokimiyati tomonidan berilgan imtiyozlarga muvofiq ularni turli soliq va to'lovlardan ozod qilish huquqiga ham ega edilar.

O'quv ishlarini tartibga solish, ma'ruza va imtihonlarni talab dara-jasida tashkil etish maqsadida universitetlarda diniy, yuridik, tibbiy va umumta'lim fakultetlari tashkil qilingan. Har bir fakultetga saylov asosida tayinlangan dekan rahbarlik qilgan. Fakultetning asosiy maqsadi ma'ruza-larni tashkil qilish va taqsimlash, babs-munozaralar, tajribalar o'tkazish hamda ilmiy darajalar berishdan iborat bo'lgan. Universitetlar o'z xodimlarining haq-huquqlarini himoya qilishda ham katta imtiyozlarga ega bo'lganlar. Masalan, 1231-yilda Papa Grigoriy IX tomonidan imzolangan «Parij universitetining ish tashlash huquqi to'g'risida»gi Farmonida shunday deyilgan: «Agar sizlar qandaydir hu-quqdan, masalan, yashash joyingizdan foydalanish huquqidan, mahrum qilinsangiz, kimdir o'lim yoki jahoratlanish ko'rinishida haqorat qilinsa, talab qilingan murojaatingizga 15 kun ichida javob olmasangiz, shunga erishguningizcha ma'ruzalar o'qishni to'xtatishingiz mumkin. Agar siz-lardan kimdir noqonuniy ravishda qamoqqa olinsangiz va bu nohaqlikka sizning murojaatingizdan keyin ham barham berilmasa, lozim topsangiz, ma'ruzalar o'qishni to'xtatishingiz mumkin»¹². XII asrda Yevropa universitetlaridagi ta'lim-tarbiya dastlab diniy yo'nalishda, cherkov rahbarligida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik, kam bo'lsa ham, tabiiyot, matematika ham o'rganila boshlandi. Shunday qilib, o'rtalarda universitetlar tizimining tashkil topishi va ularning faoliyati keyingi davrlardagi ilmiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun katta ahamiyat kasb etdi. Maktab va universitetlarning ko'payib borishi kitobga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Ilk o'rtalarda kitob qimmatbaho buyum bo'lib, u pergamentga – buzoq terisidan tayyorlangan maxsus varaqlarga xattotlar tomonidan yozilgan. XII asrdan boshlab alohida kitob chop etish usta-xonalarining ochilishi ularning birmuncha arzonlashuviga olib keldi. XIV asrdan qog'ozning keng qo'llanishi esa, uni yanada ko'proq chiqarish im-koniyatini tug'dirdi. Qog'oz Xitoydan Sharq davlatlari, jumladan, Samar-qand orqali Yevropaga kirib keldi. Ispaniyada dastlabki qog'oz ustaxo-nalari XII asrdan ishga tushgan. Keyinchalik, XIV asrdan esa bu soha Italiyada ham rivojlana bordi. Yevropadagi dastlabki ustaxonalarda qo-

¹² Хрестоматия по истории педагогики, - М., Учпедгиз, 1938. стр.86.

g‘oz eski lattalardan tayyorlangan. Germaniyada 1445-yil Iogann Guttenbergning kitob bosish dastgo-hini kashf etishi natijasida kitobning ommaviy tarqalishi Yevropa madaniy hayotining yanada yuksalishiga olib keldi. O‘rta asr san’ati evolutsiyasi ham chuqur o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ilk o‘rta asrlarda (V–IX asrlarda) franklar san’ati yetakchi o‘rin egallagan. Chunki bu davrda franklar davlati deyarli butun Yevropa hu-dudini egallagan. Hokimiyat merovinglar sulolasi qo‘lida bo‘lgani bois, V–VIII asrlar san’ati ko‘p hollarda merovinglar san’ati deb ham ataladi.

Mohiyat – mazmuniga ko‘ra bu san’at xristianlikkacha bo‘lgan davr-ga xos edi. Bu davrda kiyim-kechak, quroq-yaroq, naqshlar bilan be-zalgan ot-ulov anjomlarini tayyorlash bilan bog‘liq holda hunarmand-chilik yuksaldi.

MiniatURA – kitoblarni rasmlar bilan bezash keng tarqaldi. Monastirlarda diniy kitoblarni yozish va bezashga moslashtirilgan maxsus usta-xonalar-«skriptoriylar» faoliyat ko‘rsatgan. Biroq dunyoviy kitoblar hali juda kam bo‘lgan.

Bu davrga oid frank me’morchiligi namunalari juda kam saqlanib qol-gan bo‘lib, ular hozirgi Fransiya hududidagi bir nechta kichkina cherkov-lardangina iborat xolos. Varvarlar me’morchiligi (xristianlikkacha bo‘lgan davr) namunasiga Ravenndagi ostgot qiroli Teodarix (520-530-yillar) qasri misol bo‘la oladi.

Merovinglar sulolasi merosxo‘rlari Karolinglar davrida, (VIII–IX asrlar) ayniqsa «Roland haqida qo‘sish» poemasining afsonaviy qahramoni Buyuk Karl hukmronligi vaqtida O‘rta asrlar san’ati yuksak taraqqiyotga erishdi. Buyuk Karl – franklar qirolligini boshqargan (768-814-yillar davomida) yirik hukmdorlardan biri edi. «Buyuk» laqabi Karlga 53 ta yirik harbiy yu-rishlarga boshchilik qilganligi, qonunchilik sohasida amalga oshirgan sal-moqli ishlari, ilm-ma’rifat sohasidagi xizmatlari uchun berilgan baho edi. Bu davrda san’at, asta-sekin varvarlik ta’siridan xalos bo‘lib, antik davr merosiga faol murojaat qila boshlaydi. Shuning uchun bu davrni ma’lum ma’noda «Karolinglar Uyg‘onishi» deb ham aytishadi. Bunda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Buyuk Karl hissasi alohidadir. U o‘z sa-royining qoshida madaniy-ma’rifiy markaz tashkil qilib, uni Akademiya deb ataydi. Karl Buyuk akademiyada buyuk olimlar, faylasuflar, shoir va rassomlar ijodi uchun qulay sharoit yaratishga katta homiylik ko‘rsatdi. Natijada bu davrda fanlar va san’at sirlarini chuqur o‘rganish, tadqiq qi-lish, ularni yanada rivojlantirishga bo‘lgan intilish kuchayadi. Ayniqsa, antik davr madaniyati bilan mustahkam aloqa o‘rnatalishi uchun ko‘p sa’y-harakatlar amalga oshiriladi. Karolinglar davriga oid bir qancha me’moriy yodgorliklar saqlanib qolgan bo‘lib, ulardan biri – sakkiz qirrali gumbaz bilan qoplangan, sak-kiz burchakli inshootdan iborat Aaxendagi (800-yil) Buyuk Karlning ajoyib cherkovidir. Bu davrda ham miniatURA san’ati rivojlanishda davom etadi. Maz-muni asosan diniy mavzularda bo‘lishiga qaramasdan, ilk o‘rta asr oxiri-ga kelib, ularda ov, yer haydash kabi inson faoliyatiga doir boshqa mav-zular paydo bo‘la boshlaydi. Karolinglar imperiyasi qulab, mustaqil Angliya, Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari paydo bo‘lgach, o‘rta asr san’ati yangi bosqichga qadam qo‘yadi. Ilk o‘rta asrlarda xristian Yevropasida haykaltaroshlik va tasviriylar san’at taqiqlanmagan bo‘lishiga qaramasdan, ularda ham ancha vaqt davomida aso-san diniy mavzular ustunlik qilgan. Asosan bu Iso payg‘ambar,

Momo Xu-do, apostollar (payg‘ambarlar) timsollari edi. Dastlab Iso tasvirlari yu-non va rim affonalari timsollarini eslatgan. Xristianlarning ayrim tamo-yillariga qarama-qarshi bo‘lishiga qaramasdan, antik dunyoning mada-niy-tarixiy an’analari xristian dini tomonidan butunlay uloqtirib tashla-nishi mumkin emas edi. Xristian dinini qabul qilgan ko‘plab odamlarda hali eski madaniyat an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan turli estetik ehtiyoj-lar saqlanib qoladi. Eng dastlabki xristianlarda Xudo tasvirini yaratish muammozi bo‘lmagan, chunki dastlabki xristianlar yahudiylar bo‘lib, ularning dinida tasviriy san’at umuman taqiqlangan edi. Xristian dinining g‘arbga tarqalib borishi bilan yangi xristianlar Xudo timsolini ko‘rishni xohlaydilar. Diniy markaz bo‘lmaganligi bois bunday muammolarni hal qilish imkonni yo‘q edi. Isoni Orfey ko‘rinishida, chiroyli yoki xunuk qilib tasvirlashga urinishlar bo‘l-di. Ikonalarni yaratishning yo‘lga qo‘yilishi ma’lum ma’noda mazkur muammolarning yechimini topish imkonini berdi. Ikonografiya – bu Iso payg‘ambar timsolini yaratishda rassom asoslanishi, qat’iy amal qilishi lozim bo‘lgan qonun-qoidalar majmuasidir. Ikona savodsiz omma uchun xudo bilan ruhiy-hissiy bog‘lanish, aloqa shakli sanalgan. Tasvirda xu-doni bandalarning gunoh kechmishlarini mag‘firat etishga qaratilgan motamsaro ko‘rinishi ifodalangan. Ikonalar yaratishning turli milliy, hu-dudiy maktablari paydo bo‘la boshladi (masalan, Vizantiya, rus maktab-lari). Ikona chizishda rassomlar yirik tasvirlarga turli qismlar, kiyim va umumiylrangning haqiqatga yaqin bo‘lishiga intilmaganlar. Tasvir keng qamrovli bo‘lib, real hayotiylikdan chetlash orqali tomoshabin e’tiborini to‘la badiiy asarning ruhiy mazmuniga qaratish imkonini bergen. Rivojlangan o‘rta asr boshlari – X asr vengerlar, saratsin (musulmon) lar, ayniqsa normannlar yurishlari natijasida eng murakkab, og‘ir davr bo‘ldi. Yangi tiklanayotgan davlatlar chuqur inqiroz va tanazzulni bosh-dan kechirar, san’at ham shunday holatda edi. Ammo X asr oxiriga kelib ahvol ancha yaxshilanadi: feodal munosabatlar o‘rnatalib, hayotning bar-cha jahbalaridagi kabi, san’atda ham jonlanish va yuksalish kuzatiladi.

O‘rta asrlardagi tasviriy san’at asarlarida insonlarning bo‘shliq mav-judligini ongli ravishda tan olmaslikka intilishi aks etib turadi. Shu bois-dan bu davrda yaratilgan ko‘pchilik tasviriy san’at asarlarida osmon tas-virlamagan. Osmon ramzi bo‘lgan havo rang ayni chog‘da inson erki, ozodligi ramzi bo‘lgan. Shuning uchun rassomlar o‘z asarlarini turli tas-virlar, masalan, serbarg o‘simgiklar, murakkab geometrik shakllar, to‘g‘-ri va kesishgan chiziqlar, tilla rang muhit bilan bezatganlar. Rasmlardagi odamlar guruhi yaxlit bitta tanadan ko‘p boshli, ko‘p qo‘l-oyoqlidek gavdalanadi. Chunki gavdalar orasida bo‘sh joy bo‘lmashdan, ular bir-bi-riga jipslashib turgandek idrok etiladi. O‘rta asr rasmlarida mazmunan va geografik jihatdan, vaqt nuqtayi nazaridan o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan voqeahodisalarni ham birlashtirishga intilishni his etamiz. O‘rta asrlar musiqasida ham asosiy mavzu xudoni kuylash, injil aso-tirlarilari, avliyolar hayoti, ruhiy-axloqiy poklanish, gunohdan mag‘firat bo‘lish aqidalari edi. Musiqaviy madaniyat negizini cherkov qo‘shiq-kuyi (liturgiya), she’-riyat va dramaturgiyani o‘zida uyg‘unlashtirgan cherkov tantanalari tashkil etdi.

Me’morchilik ham ilohiyotning unsiz targ‘iboti tarzida namoyon bo‘ldi.

Me’morlar V-VI asrdayoq shaharlarni rejalashtirishning yangi uslub-larini yaratishdi. Yangi ko‘rinishdagi shahar markazida bosh maydon va ibodatxona

joylashib, undan shaharning turli tomonlariga ko‘chalar tar-qalgan. Xuddi shu paytdan ko‘p qavatli, peshtoqli uylar, boylarning mustah-kam koshonalar, saroylari paydo bo‘ldi. Vizantiyada cherkov va ibodat-xonalar qurilishi ham yuksak san’at darajasiga ko‘tarildi. 532-537-yil-larda imperator Yustinianning buyrug‘i bilan bunyod etilgan Muqaddas Sofiya ibodatxonasi bunga misol bo‘la oladi. Bino gumbazi diametrining o‘zi 30 metrdan ortiq bo‘lib, ibodatxona ichidagi ustunlar, uning devor-lari turli rangdagi marmarlar va mozaikalar bilan qoplangan.

Yevropada qurilish-me’morchilik sohasi, ayniqsa, XI asrdan boshlab tez rivojlandi. Dastlabki paytda binolar va, hatto, feodal zadogonlari qal’alari ham yog‘ochdan qurilgan. O‘rtalik dengizi havzasidagi shaharlar qurilishida toshni ashyo sifatida ishlatish uchun bir necha asr kerak bo‘ldi. Toshning yumshoq turlari bo‘lmagan mamlakatlarda, jumladan, Angliya va Polshada binolar pishiq g‘ishtdan qurilgan. Ibodatxonalar va monastirlar toshdan qurilgan. O‘rtalik badiiy uslub hodisasi paydo bo‘ladi. O‘rtalik G‘arbiy Yevropa me’morchiligidagi X – XIII asrlarda roman uslubi keng tarqaladi. Ro-man tushunchasi Rim, ya’ni Qadimgi Rim madaniyatiga bog‘liq degan ma’nioni anglatadi. Bu san’at asarlarida qadimgi Rim san’atining so‘nggi davriga xos uslublarga murojaat qilinganiga muhim ishora edi. Ushbu uslubning me’morchilikdagi o‘ziga xos jihat, bu yirik binolarning qat’iy geometrik shakli, tuzilishining oddiyligidadir. Roman me’morchilik bi-nosi ko‘rinishi sokinlik va mag‘rurlik hissini uyg‘otar edi. Faqat monas-tirlar, ibodatxonalariga emas, hukmdorlarning qasrlari ham roman uslu-bida qurilgan. Umuman, san’atning yangi yuksalish davri shartli ravish-da roman davri nomini olgan. Bu ko‘proq XI-XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Roman uslubi mohiyati – katta tekisliklar mavjud bo‘lgan holda, ver-tikal va gorizontal to‘g‘ri chiziqlar, eng oddiy geometrik shakllar ustunligidir. Qurilishda ark, ravoqlardan keng foydalilanilgan holda, eshik va derazalar tor qilinadi. Binoning tashqi ko‘rinishi aniqlik va oddiylik, so-vuqlik, ayrim hollarda qorong‘ulik bilan yo‘g‘rilgan, buyuklik va vaz-minlik bilan ajralib turadi.

Roman uslubi Fransiyada ayniqsa keng tarqaldi. Bunga Klyunidagi (XI asr) cherkov, Klermon-Ferandagi Notr Dam dyu Por cherkovi (XII asr) misol bo‘la oladi. Bu uslubdagi dunyoviy binolar shakli oddiy bo‘lib, ularda naqshin-kor bezaklar deyarli yo‘q. Binoning asosiy turi feodal-ritsar uchun bir vaqtning o‘zida ham uy, ham mudofaa inshooti bo‘lib xizmat qiladigan qal’a-qasrdir. Ko‘p hollarda bu – markazida minora mavjud bo‘lgan hovli-dir. Bunga bizning davrimizgacha yetib kelgan Senadagi Shato Chayar qasri xarobalari misol bo‘la oladi.

Germaniyadagi roman me’morchilik uslubida qurilgan inshootlarga O‘rtalik Reyndagi Voris, Maynts va Shpeyere shaharlarida joylashgan cherkovlar (XIII asr) misol bo‘ladi. O‘rtalik asrlar san’ati va me’morchiligidagi keyingi davr – gotika uslubini yaratilishi bilan mashhurdir. Shaharlarda XII asr oxiridan e’tiboran savdo rastalari ratushalar, shifoxonalar va mehmonxonalar qurilishi keng avj oldi. O‘rtalik asr shahri markazidagi eng chiroyli va hashamatli bino, bu ibodatxona edi. Uyg‘onish davrida paydo bo‘lgan “gotika” atamasi shartli bo‘lib, u german qabilalaridan hisoblangan gotlar nomidan olin-gan (Gotlarning asl vatani Skandinaviya bo‘lib, keyinchalik Boltiqbo‘-yida, Qora dengizi qirg‘oqlarida istiqomat qilganlar. Ularning hozirgi Moldova va Ruminiyaning sharqiy hududlarida yashaydigan qismlari vestgotlar, Shimoliy Qora dengiz bo‘yi,

Dnestrning sharqiy tomonlarida yashovchi – ostgotlarga bo‘lingan. IV asrning 70-yillarida xunnlar got-larning yerlariga hujum qilib, 375-yilda vestgot, ostgot hamda ularga qa-rashli dasht qabilalari ittifoqini tor-mor etishadi).

Yuksaklikka intilgan gotik tasvirlar, xristianlik diniy inshootlarining baland gumbazlari yuksaklikka, ma’naviyatga intilishi ramzi edi. Mazkur uslubdagi binolarning mumkin qadar balandroq qilib qurish-ga intilishning yana bir sababi bor. Gap shundaki, aholi soni oshib bor-gan, baland va mustahkam qal'a devorlari bilan o‘ralgan shahar maydo-nini kengaytirish oson bo‘lmagan. Bu esa, eniga o‘sishga imkon topa ol-magan binolarning bo‘yiga o‘sishiga olib keldi. Yarim doirali qubbali peshtoq o‘rniga endilikda uchi nayzasimon peshtoq qilinadigan bo‘ldi. Bu uchli peshtoq va gumbazlarni Yevropaga dastlab musulmon ustalari olib kirdilar. Gumbazlar sinch ustiga o‘rnatilib, ibodatxonaning baland va ko‘rkam ishlangan ustunlariga tayanib turardi. Shu tariqa, hozirgi za-mon qurilishida ishlatiladigan temir-beton va po‘lat karkaslar (sinchli) kabi qurilmalar paydo bo‘ldi.

Ibodatxonalar shahar kengashi buyurtmasi bilan qurilgan. Ular faqat cherkovning qudratini namoyish qilibgina qolmasdan, shu bilan birga, sha-harlar erkinligi timsolini ham o‘zida mujassamlashtirgan edi. Tik qoya tomlar, eng tepasiga ingichka nayza o‘rnatilgan baland minoralar – bu-larning barchasi binoni tobora yuqoriga ko‘tarilayotganday ko‘rsatardi. Gotika uslubida qurilgan eng yirik ibodatxonalar minorasining uchi 150 metrga yetadi. Fransiyadagi Shartr shahridagi butxonaning balandligi – 115 metr, Strasburgdagisi – 142 metr, ya’ni 48 qavatlari binoning bo‘yiga tengdir. Ushbu yirik inshootlar ba’zan yuzlab yillar davomida qurilgan.

XIII asrda Italiya va Germaniyada, XII asrda Fransiyada gotika uslubi to‘la hukmronlik qildi. Bu davrda me’morchilik san’atning butunlay yetak-chi turiga aylanib, bunda diniy inshootlar – cherkov va ibodatxonalar quri-lishi ustuvor yo‘nalishni tashkil qiladi. Gotik me’morchilik ikki qism – tuzi-lish (konstruksiya) va dekor (bezaklar)ning organik birligidir. Gotik tuzilishning mohiyati bino mustahkamligi va chidamligini ta’-minlovchi o‘ziga xos asos-muskul yaratishdandir. Agar roman me’morchiligida inshoot mustahkamligiga devorlar kattaligi bilan erishilsa, go-tik uslubda esa u og‘irlilik kuchini teng taqsimlash bilan ta’minlangan. Gotik tuzilish uch asosiy qismdan tarkib topadi:

Demak, gotik inshootlarning tashqi ko‘rinishidagi o‘ziga xoslik bu o‘tkir uchli minoralardan keng foydalanishdir. Gotikada devorlar asosiy rolni o‘ynamaganligi uchun bino ichiga yorug‘likning erkin kirishini ta’-minlovchi keng eshik va derazalardan foydalanilgan. Bu xristianlik uchun katta ahamiyat kasb etgan. Negaki, u yorug‘likka ilohiy, sirli hodisa sifatida yondoshadi.

Gotika beshigi Fransiya edi. Parij Momo - Xudo cherkovi (XII - XIII asrlar) ilk gotikaning haqiqiy mo‘jizasidir. Uning uzunligi 130 m., keng-ligi 50 m., balandligi 35 m. Bino bir vaqtning o‘zida 9000 kishini sig‘-dira oladi. XIII-XVI asrlar davomida qurilgan Kelndagi (Germaniya) balandligi 757 metrlik cherkov ham gotik uslubga misol bo‘la oladi. Qadimgi Rusdagagi katta gumbazli ibodatxonalaridan eng mashhurlari Kiyevdagagi Sofiya (XI asr), Vladimirdagi Uspenskiy (XII asr), Nerldagi Pokrov (XII asr) cherkovlaridir. Uning yutuqlari Amen va Reyms sobori

(XIII asr), shuningdek fransuz qirollari uchun cherkov rolini o'tagan ajoyib San Shapel Yuqori Cherkovi (XIII asr) tomonidan yanada rivojlantirildi. Germaniyaga gotika Fransiya ta'sirida tarqaldi. Bu yerdagi mashhur in-shootlardan biri Kyoindagi cherkovdir (XIII-XV, XIX asrlar). Angliya gotikasi ham ko'p jihatdan fransuz modelini davom ettiradi. Angliya qi-rollari va buyuk insonlar maqbarasi bo'lgan Vestminster abbatligi (XIII - XVI asrlar) ham ushbu uslubga misoldir.

Xulosa qilib shuni qayd etish lozimki, o'rta asrlarda qurilish-me'-morchilik sohasida ham katta burilish yuz berdi. Binolar yanada go'zal-lashib, kishilar uchun qulayliklar ortib bordi. Bu davrdagi Yevropa me'-morchiligidagi roman va gotika uslublaridan tashqari Italiyadagi Vizantiya uslubidan (Vinetsiyadagi Avliyo Mark cherkovi, qisman Dojlar saroyi va boshqalar) hamda Ispaniyadagi arab uslubidan (eng mashhur yodgorliklar: arablarning Granadagi Al-Xamro nomli sobiq saroy-masjidi, hozirgi Sevili-ya sobori va Seviliyadagi Al-Qasar - qasri) ham foydalilanilgan.

O'rta asrlarda haykaltaroshlik san'ati me'morchilik bilan uzviy bog'-liq ravishda rivojlandi. Ibodatxona va cherkovlar xudo, payg'ambar, av-liyolar, yepiskop va qirollarning yuzlab haykallari bilan bezatilgan. Hay-kallarga asosiy buyurtmachi cherkov bo'lganligi bois, ular diniy mavzu-da yaratilgan. Haykaltaroshlarni ayniqsa onaning farzandga bo'lgan mehr-muhabbatini ulug'lash qiziqtirgan. Bu hol Bibi Mariyamning ko'plab hay-kallarida o'z aksini topgan (Yevropada uni "xonim", "bekam", deb ulug'-lagan yohud "madonna" deb atash rasm bo'lgan). Inson tanasining go'zalligini ulug'lagan antik davr san'atkorlaridan farqli o'laroq, o'rta asr ustalari odamlarning fikri, his-tuyg'usi va kayfiyatlarini, ya'ni ko'proq ichki dunyosini ifodalashga harakat qilishgan. Roman uslubidagi haykallarda odamlar aytarlik darajada jozibali tasvir-lanmagan. Ustalar odamlarning qayg'u-alamlarini yoki xursandchilikla-rini, ichki his-tuyg'u va kechinmalarini bo'rttirib aks ettirish niyatida hay-kallarning holati harakatlarini ko'p hollarda g'ayritabiyy ko'rinishda (nim-jon, ozg'in, xunuk) aks ettirganlar.

Gotika uslubidagi haykallarda odamlar qiyofasi birmuncha to'g'ri tasvirlangan. Ularning qaddi-qomatlari, kiyimlari burmalaridan ham bili-nib turadi. Haykallarda ko'proq harakat holati ifodalangan. Iste'dodli ustalar hayotda ko'rgan narsalarini ko'p hollarda ishonarli qilib tasvirlashga intilganlar. Haykaltaroshlarda asta-sekin inson tashqi qiyofasining go'zalligini tasvirlashga qiziqish orta borgan.

Roman uslubida qurilgan ibodatxonalarining ichki devorlariga, shifti-ga ko'p surat solinardi. Bu suratlarda aziz avliyolar, xudo siymolari tas-virlanardi. So'nggi davrlarda qurila boshlangan gotika uslubidagi ibodat-xonalar devorlarida suratlar nisbatan kam bo'lgan. Ularning o'rniga katta derazalar, qo'rg'oshin gardish bilan bir-biriga ulangan, rangli oyna parcha-laridan ishlangan vitrajlar, surat va manzaralar ibodatxona ichidagi ustun-larda, gumbaz va polda jilvalanib, unga benihoya chiroyli hamda tantanali tus bergen. VIII-IX asrlar Yevropa adabiyotida jangovar sheriyat shakllandi. Jan-govar dostonlar asosan ikki yo'nalishda, ya'ni tarixiy voqealarga va xayoliy tasavvurlarga, xalq ertaklari va afsonalariga mos ravishda yaratilgan.

Tarixiy jangnomalarga fransuz xalq og'zaki ijodining «Roland haqida qo'shiq» yoki ispan adabiyotiga oid «Sid haqida qo'shiq» asarlarini misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Germaniyada yaratilgan «Nebelunglar haqida qo'shiq» dostoni esa tarixiy haqiqat va afsonalarini o'zida mujassamlashtirgan asardir.

O'rta asrlar madaniyatining eng yorqin sahifalari keyinchalik roman-tik tus olgan ritsarlar adabiyoti bilan bevosita bog'liqidir. Uduumlarga binoan ritsar ko'plab fazilatlarga ega bo'lishi kerak edi. Dastlab ritsarlar jasurlik, saxiylik va oljanoblik kabi xususiyatlar haqida unchalik ko'p o'ylashmagan. Ularning hayotidagi ko'p an'analari yuzaki bo'lib, bular ko'z-ko'z qilish maqsadida bajarilgan. Ritsarlar g'olib bo'-lish va shon-shuhratga erishish yo'lida hech narsadan qaytmaganlar. Ularning qahramonliklari va ishqiy sarguzashtlari ham go'yoki odatiy hollardek tasvirlangan. Ritsarlar hayoti aks ettirilgan muhabbat fojiasi «Tristan va Izolda» qissasida o'z ifodasini topgandir. XI-XII asrlarda asosiy madaniyat markazlariga aylangan monastirlar ahamiyati yanada oshadi. Aynan monastirlar qoshida maktablar, kutub-xona va kitob ustaxonalari ochiladi. Monastirlar san'at asarlarning aso-siy buyurtmachilariga aylanadi. Shu boisdan ham bu asrlar madaniyati va san'atini monastir davri nomi bilan ham atashadi.

O'rta asrlardagi Vizantiya Yevropada eng ilg'or o'ziga xos madani-yatga ega bo'lgan davlat edi. Qit'ani german qabilalari bosib olgan bir paytda, yunon-rim madaniyati davomchisi bo'lgan Vizantiyada maorif, ilm-fan va san'at yuksak darajada rivojlandi. Vizantiyaliklar ta'limning har qanday turiga, ilm-fanga katta e'tibor bilan qaraganlar. Mamlakatda davlat tili yunon tili bo'lib, Qadimgi Rim maorifi tartibi to'la saqlab qoltingan. Bolalar 6-7 yoshdan maktabga berilib, ularga 2-3 yil davomida o'qish, yozish va hisob o'rgatilardi. Diniy maktablar bilan birga davlat maktablari va xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatgan. Umuman, aholining barcha toifalari uchun boshlang'ich ta'lim olish imkoniyati mavjud edi.

Konstantinopolda IX asrda Magnavr oliy maktabi ochildi. Poytaxtda 1045-yil tashkil qilingan universitetda huquqshunoslik va falsafa fakul-tetlari, oliy tibbiyot maktabi mavjud edi. Vizantiyada matematika, ayniqsa, algebra muvaffaqiyatli rivojlandi. Matematika va astronomiyaning taraqqiyoti kundalik amaliy hayotga-hunarmandchilik, dengizchilik, savdo, harbiy ish, qishloq xo'jaligi rivoj-lanishiga bo'ysundirilgan edi. Muvaffaqiyat qozongan muhim sohalar-dan yana biri tibbiyot bo'lgan. Tibbiyot va hunarmandchilik ehtiyojlari kimyoning rivojlanishini rag'batlantirdi. Vizantiyaliklar shisha, emal bo'yoq tayyorlashning antik davrdan saqlanib qolgan sirlaridan xabardor bo'lish-gan. Imperiyada VII asrda kashf qilingan "yunon olovi" (neft va smola qo-rishmasidan tayyorlangan yonuvchi modda) dengiz floti va quruqlikda-gi janglarda vizantiyaliklarga ko'plab g'alabalar keltirgan. Vizantiyada tarix va geografiya fanlari ham taraqqiy qilgan. Geograflar yaratgan xaritalar, shaharlar loyihasi chizmalari o'z davrida ushbu sohaning yuksak muvafaqqiyati belgisi edi. Tarixchilar tomonidan yara-tilgan asarlar ham o'zining haqqoniyligi, aniqligi va xolisligi bilan ajralib turardi. Xar bir diining o'z marosimlari bo'lganidek, pravoslaviyada yetti sirli marosim alohida axamiyatga ega. Bu marosimlarning sirli deb atalishiga sabab shuki, ruhoniylarning muayyan harakatlarni bajarishlari va duolarni o'qishlari bilan ob'ektga odamning ko'ziga ko'rinxinmaydigan xudoning marhamati yo'tadi.

Sirli marosimlar kuyidagilardan iborat:

1. *Cho'qintirish marosimi*.
2. *Non va vino tortish marosimi*.
3. *Tavbo-tazarru qilish marosimi*.

- 4. Miro surtish sirm marosimi.**
- 5. Nikoh sirli marosimi.**
- 6. Muqaddas zaytun moyi surtish marosimi;**
- 7. Ruhoniylik unvonini berish marosimi.**

X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham Marvda pravoslav mitropoliyasibo'lgan. 2001 yilda O'rta Osiyo pravoslav cherkovi yeparxiyasi tashkil etilganligining 127 yilligi nishonlandi. Bu yerda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiyalar qatorida pravoslav cherkovi islom dinidan keyingi o'rinda turadi. Barcha konfessiyalar kabi cherkovi ham mintaqada tinchlik, barqarorlik, milliy totuvlik, diniy bag'rikenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, O'rta asr Yevropa madaniyati mazmun jihatidan xilma-xilligiga qaramasdan, jahon madaniyati tarixida o'ziga xos o'rin egallaydi. Yuqorida ta'kidlangandek, Uyg'onish davri O'rta asrlarga o'ta tanqidiy va qat'iy baho bergen. Ammo so'nggi davrlar bunga zarur tuzatishlar kiritib, taraqqiyotning bu bosqichiga munosib baho berdi. XVIII - XIX asrlardagi romantizm o'rta asr ritsarligida haqi-qiy insoniy timsollar va qadriyatlarni his qilib, undan ilhom olgan edi. Keyingi davrlar ayollari bo'lsa, haqiqiy erkaklar - ritsarlarni hayotda ko'rishga intiq bo'ladilar. O'rta asrlar xilma-xil, hatto qarama-qarshi g'oya va aqidalarning ajo-yib uzviyliги davri ediki, aynan shu uzviylik zamонавиy sivilizatsiya paydo bo'lishiga zamin hozirladi.

Tayanch so'z va iboralar.

An'anaviy madaniyat, evolyusiya, firavn, ehrom, papirus, astrologiya, taqvim, Veda, ellinlar madaniyati, Mahabxorat, Antik madaniyat.

Savol va topshiriqlar

1. Sizningcha, o'rta asrlar davri madaniyatining antik davr madani-yatining mantiqiy davomi ekanligi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. O'rta asrlarda ilm-fan va ma'rifikatdan din hamda cherkovning us-tunligi sabablarini Siz qanday izohlab bera olasiz?
3. O'rta asrlardagi san'at taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'lgan edi?
4. Universitetlar paydo bo'lishining asosiy omillarini tavsiflab be-ring.
5. Texnika sohasidagi taraqqiyot va yangiliklar inson turmush tarzi-da qanday aks etdi?
6. O'rta asrlar Yevropa madaniyati taraqqiyotiga doir chizmalar tay-yorlang.
7. O'rta asrlar Yevropa san'ati yutuqlarini aks ettiruvchi albom tu-zing.
8. Internet tarmog'idan foydalanib, Yevropa universitetlariga doir ma'lumotlar majmuyini tayyorlang.
9. Internet tarmog'idan olingan ma'lumotlar asosida O'rta asr ilm-fani, texnika taraqqiyotining atoqli namoyandalari hayoti va ijodini yori-tuvchi slayd va tezislar tuzing.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-engilmas kuch. T.: "Manaviyat", 2008.-176 b.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O'zbekiston», 2000 y.
2. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari T.: «Turon» 2006 y.
3. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002 y.
4. Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. T.: «Yangi asr avlodi», 2001 y.
5. Boboev H., Hasanov S. «Avesto» manaviyatimiz sarchashmasi. T.: «Adolat», 2001 y.
6. Jabbarov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994 y.
7. Kaykovus. Qobusnomi. T.: «Istiqlol», 1994 y.
8. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.: «Manaviyat», 1999 y.
9. Madaniyatshunoslik. Maruza matni. Gulmetov e. va boshqalar. T.: DITAF, 2000 y.
10. Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug'at. T.: 1998 y.
11. Umarov. E. «Madaniyatshunoslik». Yangi asr avlodi 2005 y.

VII-mavzu. Yevropa Uyg'onish davri madaniyati

1. Yevropada Uyg'onish davri madaniyati va uning asosiy xususiyatlari «Renessans» so'zining ma'nosini O'rta asr madaniyatidan voz kechish, antik (yunon-rim) madaniyat va san'at an'analariga qaytish, uning Uyg'onishi davridir. Shu bilan birga, Renessans badiiy uslub hamdir. Ikki yarim asr davomida Italiyada va so'ngra boshqa Yevropa mamlakatlari-da sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Birinchi navbatda inson tafakkuri o'z-gardi: odamlar koinotga, yerga, tabiatga o'ziga boshqacha nuqtayi nazar bi-lan qaray boshladi. Oldingi maqsadlardan farqli o'laroq boshqacha maq-sadlar paydo bo'lib, ular san'atda ham o'ziga xos ohangda tasvirlana bosh-ladi. Chunki bu davrga kelib dunyoqarashi ancha o'zgargan edi. Ammo bu-ni tushunish oson kechmadi. Bunda, ayniqsa, O'rta asr tafakkuri kishanla-ridan xalos bo'lish lozim edi. Shu bois ham, inson endilikda antik mada-niyatning boy merosiga murojaat eta boshladi. «Uyg'onish» atamasi XIX asrda ishlatila boshlangan bo'lsa ham, bu jarayonlar ancha ilgari yuz berdi. Uni quyidagi kichik davrlarga bo'lish mumkin:

1. Yuqori Uyg'onish: XV asr oxiri – XVI asrning birinchi choragi.

Uyg'onish Italiyada asosan XIV-XVI, boshqa Yevropa mamlakatla-rida XV-XVI asrlarni qamrab oladi.

Uyg'onish madaniyatining shakllanishi, birinchi navbatda, o'rta asr madaniyatining chuqur inqiroziga javoban yuz berdi. Shu bois, Uyg'onishning asosiy xususiyati bu antifeodal yo'nalish kasb etganlik hamda dunyoviylik va ratsionalizmning diniylikdan ustuvorligidir. Dinning inqirozi ayni chog'da O'rta asr madaniyatining g'oyaviy-siyosiy asosining ham inqi-rozini belgilab berdi.

Shimoliy va O'rta Italiyaning tog'li hududlarida katta yer egaligi paydo bo'lishiga sharoit bo'limgani bois, X-XI asrlardayoq bu yerlarda sha-harlar paydo bo'lib, rivojlana boshladi. Bu esa jamiyatda savdogarlar, hu-narmandlar qatlamlari, ya'ni burjuaziya vakillari mavqeyining oshishiga olib keldi. Ular XIII asrdayoq feedallarga

qarshi kurashda Florensiya, Bolonya, Siena hududlarida siyosiy hokimiyatni qo‘lga olishga ulgurgan edilar. Bu esa, o‘z navbatida, kapitalizmning dastlabki belgilari paydo bo‘lishiga olib keldi. Burjua ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishi – bu Uyg‘onish davri iqtisodiy hayotiga xos xususiyatdir. Shuningdek, aynan Italiyada antik Rim madaniyati an’analari, ayniqsa, lotin tili, antik davr shaharlari, pullari va h.k. eng ko‘p saqlanib qolgan edi. O‘tmish ulug‘vorligini tasdiqlovchi tarixiy xotiraning ham saqlanib qolganligi yangi madaniyatning shakllanishida katta ahamiyat kasb etdi. Jamiyat hayotida shaharlar rolining kuchayishi, ya’ni shaharning ij-timoiy ishlab chiqarishdagi ahamiyatining oshib borishi, savdo aloqala-rining avj olishi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi bilan hisobchi, hu-quqshunos, muhandislar, texniklar, o‘qituvchilar, shifokorlar va boshqa o‘qimishli odamlarga nisbatan talab kuchaya bordi. Shunday qilib, sha-harlarda aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi kishilarning alohida toifasi – intelligensiya paydo bo‘ladi.

2. Gumanizm, reformatsiya, yangi inson idealining shakllanishi.

Katolitsizm inqirozi shu darajada jiddiy ediki, xristian dinida paydo bo‘lgan yangi oqim – protestantizm qudratli Reformatsiya harakatining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ammo Uyg‘onish madaniyatining asosiy va muhim xususiyati gumanizm edi. Bu davr madaniyatida gumanistik (insonparvar), insonni diqqat markaziga qo‘yuvchi g‘oyalar birinchi o‘ringa chiqadi. Hayotda faqat insonning ijodiy qobiliyatlarini, aqlni tan olish yerdagi baxtga inti-lish bilan almashinadi. Bu maqsadni ro‘yobga chiqarish o‘tmish madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirishni taqozo etadi. Gumanistik g‘oyalar o‘rtasining so‘nggi, yangi davrning birinchi shoiri, buyuk siymo Dante Aligeri (1265-1321) ning «Komediya», «Ziyofat», «Monarxiya» asarlarida bayon etilgan Dante xristian aqidalarini o‘z-garmas haqiqat sifatida tan olgan holda, ilohiy va insoniy munosabatlarni yangicha talqin qiladi, ularni bir-biriga zid qo‘ymasdan, har ikkalasining o‘zaro birlikda deb biladi. U bu dunyoda insonni rohat farog‘atga quyidagi ikkita yo‘l olib boradi, deb hisoblaydi: falsafiy ta’lim, ya’ni inson tafakkuri, uning qobiliyatlarini hamda muqaddas ruhdan kelib chiquvchi «ma’naviy ta’lim». Shoир gumanizmi tarkidunyochilik (asketizm) ga qarshi qaratilgan va inson kuchiga to‘liq ishonch ruhi bilan sug‘orilgan. Dante fikricha, inson o‘z farovonligi uchun o‘zi kurashishi lozim. Boylik yoki merosga asoslan-gan nufuz va obro‘ kishi taqdirida hal qiluvchi omil bo‘lmaydi, aksincha inson o‘zining shaxsiy fazilat va sifatlariga tayanib baxt saodatga erishmog‘i lozim. «Monarxiya» asarida shoир o‘zining cherkovga nisbatan siyosiy nuqtayi nazarini bayon qilgan. Uning fikricha, cherkov odamlar turmushiga aralash-masdan, faqat «narigi dunyo» masalalari bilan shug‘ullanishi darkor. Siyo-sat esa, inson tafakkuriga, uning manfaatlariga bo‘ysunishi kerak. Atoqli filolog olim N.Komilov Dantening «Illohiy komediya» asarida Ibn Sino va Ibn Rushdlarning nomlari tilga olinishini quyidagicha ta’riflaydi: «Shoir ulug‘ hakimlar Ibn Sino va Ibn Rushdni o‘zining birin-chi darajadagi ustozlari qatoriga qo‘yib, ulardan ta’lim olgan, buyuk aql egalari ishtirokidagi tafakkur bazmi to‘ridan ular uchun joy ajratgan».¹³ Shuningdek, «Monarxiya» («Saltanat») asarida Ibn Rushd izidan borib ruhoniylar hukmronligini inkor etadi, adolatli hukmdor boshchiligidagi yagona davlat g‘oyasini ilgari suradi. Mutafakkirning

¹³ N.Komilov. Tafakkur karvonlari. –T., 1996, 73-bet.

ilg‘or dunyoqara-shi cherkovni g‘azablantiradi. Papa tarafдорлари Danteni «Gunohga bot-gan, dahriy Ibn Rushd» g‘oyalarni targ‘ib etishda ayblaydilar. Dante qa-chonlardir butun insoniyat boshini qovushtiradigan adolatli davlat qaror topishiga ishonadi. Bu ezgu orzusida shoir Ibn Rushdning quyidagi fikr-lariga asoslanadi: Inson o‘z imkoniy aqli orqali atrof-muhitni bo‘lib ola-di. Biroq bir odam har qancha donishmand bo‘lmasin, mutlaq bilimlar jamuljamini egallahga qodir emas, balki aqliy borliqning muayyan bir qis-minigina egallahsi mumkin. Binobarin, odamlar soni ko‘paygan sari bilish doiralari ham kengayadi, ammo bir davr odamlari, ular nechog‘li ulkan guruhni tashkil etmasinlar, haqiqatni to‘la anglab yetmaydilar. Butun in-soniyat bilimi esa mutlaq haqiqat tomon uzluksiz tutashib boradi. Bu – kishilik nasli kabi, o‘lmas va tunganmas imkondir.

Demakki, birlashgan sultanatga insoniyatning aql-zakovati ham jam-lanib, tajassum topadi; hikmat-haqiqat dunyoni idora etadi. Qирг‘инбарот урушлар barham topadi, kishilik hadik-qo‘rquv, muhtojlik changalidan chiqib, baxtiyor yashaydi, deydi Dante.¹⁴ Gumanizm va umuman, Renessans madaniyati asoschisi italiyalik shoir Franchesko Petrarka (1304-1374) edi. U birinchi bo‘lib antik davr madaniyatiga, Gomer va Vergiliylar ijodiga qaytish to‘g‘risida gapiradi. Petrarka xristianlikni rad etmaydi, ammo uning ta’limotida din o‘zgacha, insonparvar yo‘nalish kasb etgan. Shoir sxolastikaga, uning inson muammosiga nis-batan befarqligiga qarshi chiqadi. Petrarka she’riyat, ritorika, adabi-yot, etika, estetikaning inson axloqiy va ruhiy kamolotida tutgan o‘rni-ni, ahamiyatini ta’kidlab, ushbu sohalar rivoji madaniyat yuksalishini ta’minlaydi, deb hisoblaydi. Shoir antik davr madaniyati va ma’rifati o‘tib ketgan oltin asr, yo‘qotilgan jamiyat deb hisoblab, ushbu merosi zamondoshlariga aniq va tushunarli holda yetkazishga harakat qiladi. U avvalo, insonning ichki, axloqiy muammolariga e’tiborini qaratadi. Bu narsa uyg‘onish davri individualizmining muhim belgisi edi. «Mening sirim» nomli asarida Petrarka insonning eng chuqur ichki ziddiyatlari va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatadi. Fransuz Uyg‘onishning yorqin namoyandasini gumanist-yozuvchi, monax, botanik va shifokor Fransa Rable (1494-1553) edi. Uning aso-siy merosi «Gorgantuya va Pantragryuel» nomli satirik sarguzasht, fan-tastik romandir. Ma’lum darajada utopik g‘oyalarni o‘zida mujassam-lashtirgan bu roman tarbiya, urush va monastir hayoti mavzusiga ba-g‘ishlangan bo‘lib, unda Rablening jamiyat, uni rivojlantirish, inson hu-quqlari, jamiyatdagi ayollarning o‘rni, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro muno-sabatlarga doir qarashlari aks ettirilgan. Gumanizmning yana bir yorqin namoyandasini fransuz faylasufi Mishel Monten (1533-1592) edi. U o‘zining «Tajribalar» asarida sxolas-tikani tanqid qilib, insonni eng buyuk qadriyat deb e’lon qiladi. Monten inson shaxsining mustaqilligi va erkinligi g‘oyasini ilgari suradi. Uning ta’limoti individualizm, riyokorlik ruhidagi qarashlarga qarshi yo‘nalti-rilgan. U insonning mustaqil, erkin tafakkurini bo‘g‘uvchi loqaydlik, ri-yokorlik, taqlid qilishni qoralaydi. Xudoga nisbatan u skeptik munosa-batda bo‘ladi. Shuning uchun uning inson faoliyatiga hech qanday aloqa-si yo‘q xudo qandaydir shaxssiz mohiyatdir. Montenning din erkinligi haqi-dagi fikri taraqqiyparvar ahamiyatga ega. Uningcha, biron ta’limoti boshqa dinlar ustidan ustunlikka ega emas.

¹⁴ N. Komilov. Tafakkur karvonlari. –T., 1996, 74-75-bet.

Montenning gumanizmi ham naturalistik ruhda: inson tabiatning bir qismi, shuning uchun o‘z hayotida ona-tabiat nimani o‘rgatsa, shunga amal qilish kerak bo‘ladi. Falsafa murabbiylik vazifasini bajaradi. U odam-larni to‘g‘ri, tabiiy va oljanob hayotga yo‘naltirishi kerak. Montenning g‘oyalari falsafaning Yevropadagi kelgusi rivojiga, xusu-san, Bekon, Dekart, Gassendi ta’limotiga, fransuz ma’rifatparvarlaridan Volter, Lanetrilar ta’limotining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi¹⁵. Ingliz yozuvchisi va siyosatchisi Tomas Mor (1519-1577), italiyalik faylasuf va shoir Tomazo Kamponellalarning «Utopiya», «Quyosh shah-ri» asarlarida ham gumanistik utopik sotsializm konsepsiyalari aks ettirilgan.

Gumanizmdan farqli ravishda (inson ikkinchi Xudo) reformatsiya, insonning azaliy gunohkorligi haqidagi g‘oyani saqlab qoladi. Italiyada reformatorlik harakati yetakchisi Djon Sovnarola (1452-1498) edi. U cherkov tomonidan ta’qib qilinib, gulxanda yoqib o‘ldirildi. Reformatorlikning asosiy namoyandalari nemis ruhoniysi Martin Lyuter (1483-1546), fransuz ruhoniysi Djon Kalvin (1509-1564) va Tomas Myunser (1490-1525) edi. Tomas Myunser reformatsiyaning xalqchil qanotiga boshchilik qilib, uning xatti-harakatlari dehqon urushiga aylandi.

Reformatsiyaning aniq boshlangan sanasi Lyuter tomonidan Vitten-burgdagi cherkov eshigiga indulgensiyalarni sotishga qarshi qaratilgan 95 ta tezisni ilib qo‘yan kun – 1517-yil 31-oktabr hisoblanadi. Martin Lyuter hukmdorlarga murojaat qilib, ulardan zambaraklar tayyorlash, yo‘llar qurish, ko‘priklar bunyod etish va boshqa ishlarga sarflanayotgan xara-jatlarning ma’lum qismini yoshlar ta’limtarbiyasiga ham sarflashga chaqirdi. Uyg‘onish davridagi madaniyat, ilm-fan, savdo-sotiq yanada yuksa-lishini ta’milagan omillardan biri bu davrda amalga oshirilgan buyuk kashfiyotlar bo‘ldi. Savdo-sotiq, ishlab chiqarish rivojlanib borayotgan Yevropa shaharlari bozorlariga Sharq mollari betinim yetkazilib turilgan va bu munosabatlar savdo ahliga katta daromadlar keltirgan. Ammo turklar Vizantiyani zabit etgach, Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq alo-qalari qiyinlashdi, narx-navo ko‘tarildi. Natijada Hindiston, arab mamla-katlari, Xitoy kabi mamlakatlarga olib boradigan dengiz yo‘llarini qidirish avj oldi.

3. Yevropa Uyg‘onish davrining daholari: Leonardo da Vinci, Rafael, Mikelanjelo va boshqalar

Reformatsiya xristian dinidagi yangi oqim – protestantizmning paydo bo‘lishiga olib keldi. Protestantizmning eng asosiy tamoyillaridan bi-ri xristian dinining dastlabki davrlaridagi sofligiga erishish edi. O‘rta asrlar-dan amal qilina boshlangan qator an‘analar, urf-odatlar protestantlar to-monidan ortiqcha va noto‘g‘ri deb topildi. Ular xristian dinidan chetla-nishga olib keladi, degan g‘oya ilgari surildi. Jumladan, reformatsiya davrida aynan diniy mavzulardagi qator pyesalar taqiqlandi. Protestan-tizm ikonalarga sig‘inishni ham qoraladi. Ikonalarga sig‘inish deyarli butlarga sig‘inish bilan tenglashtirildi. Ammo protestantlar tasviriy san‘atni unchalik qoralamadilar. Haykaltaroshlik, tasviriy san‘at dunyoviy xarak-terga ega bo‘la bordi. Ularda diniy mavzular yakkahokimligiga chek qo‘yila boshlandi. Shu boisdan aynan Uyg‘onish davrida san‘at sohasi-da buyuk daholar yetishib chiqa boshladи.

¹⁵ Qadimgi va o‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa falsafasi. 185-bet.

Leonardo da Vinchi. Florensiyalik Leonardo da Vinchi (1452-1519-yillar) Italiyadagi uyg'onish davri madaniyatining eng buyuk arbobi edi. U yoshligidan yaxshi bilim oldi. U buyuk olim, iste'dodli haykaltarosh me'mor, muhandis, shoir va rassom bo'lib yetishdi.

1482-1490-yillari, eng unumli davrini u Milanda o'tkazdi. Uning lo-yihasi bilan Milan shahrini ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan katta ka-nal qurildi.

Leonardo da Vinchi 1499-yilda Milandan Venetsiyaga va 1503-yilda Florensiyaga qaytdi. Bu yerda u kanallar, uchar apparatlar loyihamalarini chizdi. Olim, shuningdek, anotomiya, geologiya, gidravlika va mexanika sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. «Monna Liza» («Djokonda») surati Leonardo da Vinchini butun dunyoga tanitdi. «Monna Liza» – yosh ayol portreti, hozirgi kunga qadar san'atning shu sohasidagi eng mashhur asaridir. Rassom bu suratda yosh ayolning tashqi qiyofasinigina emas, balki uning ichki dunyosini, kechinmalarini va kayfiyatini ajoyib, sirli tarzda aks ettirib bergen. Asarda ma'naviy va jismoniy go'zallik, xususiylik va umuminso-niyilik vobastaligi, o'zaro muvofiqlashuv mahorat bilan tasvirlangan. Uning 500 yil muqaddam yaratilganiga qaramasdan, tasvirdagi timsol yuzasidan bahslar davom etmoqda. Ayrim mutaxassislar rassom asarida o'zini tasvirlaganini qayd etadilar. Tasviriy san'atda ma'lum soniyadagi, aniq bir holat tasvirlanadi. Ammo Leonardo da Vinchi asarining o'ziga xosligi, hayratlanarli jihat shundaki, tomoshabinda ayolning yuzidagi tabassum, uning nigohi har daqiqada o'zgarib turibdi, degan fikr paydo bo'ladi. Leonardo da Vinchi ijodi shunisi bilan qimmatliki, u ijodda o'zini si-novchi, tajribachi sifatida namoyon qiladi. Ijod san'atkor uchun cheksiz izlanishlar yangidan yangi muammolar yechimini qidirishidan iborat edi. Tasvirdagi soyalar, ranglar hamohangligi, hatto bo'yoqlar tarkibi beti-nim kuzatishlar, tajribalar, sinovlar natijasida yuzaga kelardi. Odamlar holatlarining, yuz ko'rinishlarining turli shakldagi chizmalarini fikrimiz tasdig'iddir. Har bir asarida musavvir qandaydir muammoning yechimini qidirar edi. Bu yechimning topilishi asar ustidagi faoliyati davom etti-rishga bo'lgan qiziqishni susaytirardi. Aynan shu xususiyat Leonardo da Vinching olim va mutafakkirligiga isbot bo'la oladi. Alloma o'ziga xos tafakkur tizimini ishlab chiqdiki, natijada uning qator ilg'or g'oyalari (sa-molyot, vertolyot loyihamari) keyingi, yangi davrlarda XIX-XX asrlarda ro'yobga chiqli. Leonardo da Vinchi 1519-yil 2-mayda vafot etdi. Aytishlaricha, u o'limi arafasida yonida bo'lgan Fransiya qiroli Fransisk I ga odamlar uchun juda kam xizmat qilganligini aytib, uzr so'ragan.

Uyg'onish davrining buyuk arboblaridan biri haykaltarosh, rassom, me'mor, harbiy muhandis va shoir Mikelanjelo Buanarotti (1475-1564-yillar) edi.

Mashhur rassomning Vatikandagi Sikstin kapellasidagi suratlari soni 700 ga yaqin bo'lib, u uzunligi 40, eni 13 va balandligi 20 metrli xonada chizilgan.

Mikelanjelo 4 yil davomida mashaqqatli mehnat qilib, 1512-yil kapella freskalarini tantanali ochishga tayyorlaydi. Uning haykaltarosh sifatida yaratgan eng buyuk ishlaridan biri g'oyat katta marmar toshga Dovud haykali edi. Marmartoshdan qilingan haykalning balandligi 5,5 metr bo'lib, zamondoshlari uni «gigant» deb atashadi. Mikelanjelo bu hay-kalda dahshatli bir mahluqni yakkama-yakka jangga tosh bilan urib o'ldir-gan afsonaviy cho'pon (bolani) yigitni tasvirlagan. Florensiyaning marka-ziy maydoniga o'rnatilgan David haykali o'sha vaqtadan

buyon shahar-ning homiysi hisoblanib kelinadi. Umrining oxirida Mikelanjelo me'morchilik bilan shug'ullanadi. Rimda Pyotr soborining juda katta gumbazi loyihasini tuzgan, u avliyo Pyotr Sobori qurilishini nihoyasiga yetkazadi. Sobor uyg'onish davrining eng katta na-munasidir. Gumbazning balandligi 132 metr, uni ustunlar ko'tarib turgan. Italiyaning buyuk rassomlaridan biri Rafael Santi (1483-1520-yillar) edi. U o'zining qisqa, lekin mazmunli umrida insonni, uning go'zal qal-bini, aql-zakovatini, olajanobligini tasvirlashga intildi. Rafael Santi kichkina Urbino gersogligida saroy rassomi oilasida tug'ildi. U 1504-yili Florensiyaga keladi. Shu yerda u o'zining qator mash-hur suratlarini-«Madonna»larini chizdi. Oradan 4 yil o'tib Rafael Santi Rim-ga boradi. Rassom Rim papasi Yuliy II ning buyurtmasiga binoan uning saroyi-dagi dam oladigan xonalarni bezashga tushdi. Vatikanda ishslash bilan birga u qator tasviriy asarlar, portretlar chizdi. «Madonna Alba», «Kursidagi Madonna», «Madonna difol», va nihoyat 1513-1514-yillari «Sikstin madonnasi»ini yaratdi. Rafael chizgan rasmlarning eng mashhuri «Sikstin madonnasi» Italiyaning kichikroq shaharlaridan biridagi Avliyo Sikstin monastiri uchun chizilgandi. Bu buyuk asar insonga g'oyat kuchli muhabbat ruhi bilan sug'orilgan. Rassom unda odamlarning baxt saodati uchun o'zining eng aziz va sevimli farzandini bag'riga bosib, ulug'lik va oddiylik bilan odamlar oldiga yurib kelayotgan onani tasvirlaydi. «In-jil»dan olingen bu sahna tasviri hozirgi kunda Germaniyaning Drezden shahri rasmlar galereyasida saqlanmoqda.

Rimdagi avliyo Pyotr soborini loyihalashtirish va uning qurilishida ishtirot etishi, Santa Mariya Papasi cherkovini bezashda faollik ko'rsat-ganiga qaramasdan, Rafael tasviriy san'atda shuhrat qozondi. Leonardodan farqli ravishda, Rafael o'z davri ijodkori edi. Uning asar-larida jumboqli, g'ayritabiyy xususiyatlar yo'q. Hamma narsa aniq, yorqin, go'zal va barkamol. U go'zal qahramonning ajoyib timsolini yaratadi. Rassomchilikda hayotiylik, hayotni to'g'ri, haqqoniy tasvirlash tamoyili kuchli. Shu boisdan ham, uning «Madonna Konestibile» asarida ilohiy-lashtirilmagan, oddiy ayol, go'dak tomonidan varaqlanayotgan kitobga nigoh tashlagan holda tasvirlangan.

4. Tabiiy bilimlar va texnik taraqqiyot. N.Kopernik, D.Bruno, G.Galiley

XVI-XVII asrlarda tabiatshunoslik fanlarining keskin yuksalishi bosh-landi. Ishlab chiqarish, jumladan, texnikaning o'sishi ilmiy taraqqiyotga keng yo'l ochdi. Tabiatdagi voqealardan amaliy tomonlarini tadqiq qilish yo'lga qo'yildi.

Fizika fanining mexanika sohasi tez sur'atlarda rivojlandi. Bunga sa-bab, san'atning ba'zi sohalarida oddiy mexanizmlardan foydalanila boshla-ganligi, qurilish texnikasining takomillashuvi, chuqur shaxtalarning paydo bo'lishi, artelleriyaning yildan yilga kengroq qo'llanilishidir. XVI-XVII asrlarda hunarmandchilik texnikasining rivojlanishi natijasida ko'plab asbob-uskunalar ixtiro qilindi. Jumladan, mikroskop va teleskop, termo-metr, simobli barometr, gidrometrlar kashf qilindi.

Fandagi burilish, eng avvalo, astronomiya sohasida ro'y berdi. XVI asrga qadar G'arbiy Yevropada, shuningdek, Sharq mamlakatlarida ham antik davrda yaratilgan geotsentrik g'oya hukmon ediladi (Beruniy kabi allomalar qarashlari bundan mustasno). Unga ko'ra koinot markazida doira shaklida harakatsiz Yer turadi. Yerning atrofida ma'lum masofada Oy, Quyosh va boshqa sayyoralar,

yulduzli osmon aylanib turadi. Bu g‘oyaning asosi Aristotel, Gipparx va Ptolemy davrida ishlab chiqilgan edi. Allomalar orasida koinot tuzilishi haqidagi yangi gelotsentrik ta’limotni yaratgan ulug‘ polyak olimi Nikolay Kopernik faxrli, muhim o‘rin tutadi. Kopernik eng oddiy asboblar yordamida osmon jismlarini 30 yildan ko‘proq kuzatdi. Murakkab hisoblar yordamida olim Yerning Quyosh atrofida hamda o‘z o‘qi atrofida aylanib turishini aniqladi. Yangi ta’limot tufayli cherkov tomonidan ta’qib qilinishini oldindan sez-gan Kopernik o‘z kashfiyotini uzoq vaqt sir tutdi. Shu sababli olimning «Kul ustida ziyofat», «Koinot va dunyoning cheksizligi haqida», «Pegas siri», «Osmon jismlarining aylanishi haqida» va boshqa asarlar uning o‘limidan sal avvalroq nashr qilindi. Kopernik kashfiyoti fanda katta o‘zgarish yasadi. Bu kashfiyot xris-tian cherkovining obro‘ va ta’siriga katta putur yetkazdi. Kopernik g‘oyasining davomchilari katolik cherkovi tomonidan quv-g‘un qilina boshlandi. Xristian cherkovi tazyiqining birinchi qurboni Jordano Bruno bo‘ldi (1548-1600). U Kopernik ta’limotini rivojlantirib: «Koinotning chegarasi yo‘q. Olam beqiyos katta va cheksizdir», de-gan edi. Uning fikricha, Yer ham, quyosh ham koinotning markazi emas. «Olam son-sanoqsiz yulduzlardan iborat bo‘lib, ularning har biri bizdan uzoqda turgan quyoshdir. Mana shu quyoshning har qaysi atrofida o‘zi-ning aylanib turgan yo‘ldoshlari bor». Jordano Brunoning fikrlari hozirgi kunda fanda to‘liq tasdiqlandi. Cherkovning doimiy tazyiqi olimning 16 yil davomida Fransiya, Germaniya, Chexiyada safarda yurishga majbur qildi, o‘z vatanini sog‘inib, Ita-liyaga qaytgan olimni cherkov namoyandalari ushlab, o‘z g‘oyalaridan qaytishga undadi. Sakkiz yil qamoqdan so‘ng Jordano Bruno gulxanda yondirildi. 1600-yil 17-fevralda Rimda uning haykali o‘rnatalgan. Haykalga “U hamma xalqlar uchun fikr erkinligini talab qiladi va shu talabi uchun qatl etildi”, deb yozib qo‘yilgan.

Katolik cherkovi mashhur astronom va fizik Galileyni (1564-1642) ham butun hayoti davomida ta’qib qildi. Olim o‘zi kashf qilgan oddiy, 30 marta kattalashtirib ko‘rsatadigan birinchi truba teleskop yordamida ko‘plab yulduzlarni, oy ustidagi toqqa o‘xhash jismlarni, Yupiterning 4 ta yo‘ldoshini, Veneraning fazalarini, Quyosh dog‘larini kashf qildi. Galiley o‘z asarlarida N.Kopernik va J.Bruno kashfiyotlarini to‘liq tasdiqladi. Rim papasi 70 yoshli olimni inkvizitsiya sudiga berdi. Sud Galileyni o‘z g‘oyalaridan voz kechishga majbur qildi. U umrining oxiriga qadar cherkov nazoratida ishladi. Rim papasi Ioann Pavel II tomonidan 1979-1980-yillari Galileyni sud qilgan inkvizitsiya sudi hujjatlari qayta ko‘rib chiqildi va olim gunohsiz deb topildi. Katolik cherkovi o‘zining ko‘p sonli «xatolari»dan birini tan olishi uchun uch asrdan ko‘proq vaqt kerak bo‘ldi.

Shunday qilib, XVI-XVII asrlarda ilmiy bilimlarning rivojlanishi Yevropada sanoat va savdoni yuksalishiga imkon berdi.

Yupiter planetasi atrofida yo‘ldoshlar va hatto Quyoshdagi dog‘lar borligini kashf etdi. Papa Galileyni Rimga cherkov sudiga chaqirdi. 70 yashar Galiley inkivizitsiya oldida hozir bo‘ldi. 5 oy so‘roq qilindi, uni o‘z qarashlaridan voz kechishga, tavba qilishga majbur etdi (Yerning aylanishiga ishonmayman, lekin har holda aylanadi). U inkivizitsiya qo‘lida asir bo‘lib qoldi.

Demak, diniy jaholatga qarshi bosh ko‘tardi, uning changalidan qutildi. Dunyoni o‘rganish va tushuntirib berish uchun fan oldida keng imkoniyatlar tug‘ildi.

Tayanch so‘z va iboralar

Uyg‘onish davri, protestantizm, gumanistlar, reformatorlar, buyuk geog-rafik kashfiyotlar, Petrarka, Bokachcho, Rable, T.Mor, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael, N.Kopernik, J.Bruno, Galiley

Savol va topshiriqlar.

1. Yevropa Uyg‘onish davrini yuzaga keltirgan omillarni sanab bering.

Adabiyotlar ro‘yxati

12. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-engilmas kuch. T.: "Manaviyat", 2008.-176 b.Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O‘zbekiston», 2000 y.
13. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari T.: «Turon» 2006 y.
14. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002 y.
15. Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. T.: «Yangi asr avlodi», 2001 y.
16. Boboev H., Hasanov S. «Avesto» manaviyatimiz sarchashmasi. T.: «Adolat», 2001 y.
17. Jabbarov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. T.: «O‘qituvchi», 1994 y.
18. Kaykovus. Qobusnomi. T.: «Istiqlol», 1994 y.
19. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.: «Manaviyat», 1999 y.
20. Madaniyatshunoslik. Maruza matni. Gulmetov e. va boshqalar. T.: DITAF, 2000 y.
21. Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug‘at. T.: 1998 y.
22. Umarov. E. «Madaniyatshunoslik». Yangi asr avlodi 2005 y.

VIII-Mavzu . O‘rta asrlar Sharq diniy madaniyati.

Uyg‘onish davri madaniyatining buyuk namoyandalari o‘z ijodiy izlanishlarida bevosita qadimgi madaniyat merosiga tayandilar. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi yunonlar, rimliklar, mesopotamiyaliklar, hindistonliklar va xitoyliklarning madaniyati bilan yaqindan tanish bo‘l-ganligi, ularning tillarini yaxshi bilganligini qayd etish mumkin. Yurtni xarobaga aylantirgan, madaniy yodgorliklarni xonavayron qilgan, ilm ahilla-rini quvg‘in etgan, arab bosqiniga qaramay, qadimgi boy madaniyat izsiz yo‘qolmadidi. Islom butun madaniyatga, tilga, udum-an’analarga ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazgan bo‘lsada, uning mohiyati o‘zgarmadi. Bu xalqimizga xos ezgulik, mehr-shafqat, insonparvarlik, hayr-mu-

ruvvat, oqko‘ngillik, bag‘ri kenglik, ilmga tashnalik, o‘zga xalqlarga ishonch ehtirom fazilatlaridir. Yunon, Hind, Xitoy madaniyatini juda yaxshi bilgan Markaziy Osiyoning ilm ahligina o‘zga xalqlarni boshqalar madaniyati bilan tanishtirishi mumkin edi. Shuning uchun ham, mashhur matematik al-Xorazmiy hindlarning hisob tizimini, Forobiy yunonistonlik Arastuning falsafiy ta’limotini, Ibn Sino Gippokrat tibbiyotini yangi davrda yangi bosqichga ko‘tardi, Imom al-Buxoriy islomiy ta’limotni asoslab, hadis-lar ilmida Muhammad Payg‘ambardan keyingi ikkinchi shaxsga aylandi. Uyg‘onish davri (Renessans) – Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (IX-XII va XV asrlar), G‘arbiy Yevropada yuz bergen alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma’naviy yuksalish (XIV-XVI asrlar) ga nisbatan qo‘llanilgan, uni o‘rta asrchilik turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichi deb baholaganlar. Renessansning asosiy alomatlari; tafakkurda va ilm-u ijodda dogmatizm jaholat va mutaassiblikni yorib o‘tib, insonni ulug‘lash, uning iste’dodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, antik davr (yunon-rim) mada-niyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish, cherkov sxolastikasidan qutilib ada-biyot va san’atda dunyoviy go‘zallik, hayot taronalarini qizg‘in kuylash, inson erki, hurfikrlik uchun kurashish. Buning natijasida ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulug‘vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan rivojlandi. Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Arnosto, Tasso, Byome Renessans g‘oyalaring jarchilari bo‘lib maydonga chiqdilar. Keyinchalik Mi-kelanjelo, Rafael, Shekspir, Servantes Yevropaning turli mamlakatlarda buni davom ettirdilar. Ammo Renessans, ya’ni Uyg‘onish faqat Yevropa hodisasi emas, dunyo madaniyatini yaxlit olib o‘rgangan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, Osiyo markazida joylashgan Mavarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (IX-XII asrlar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergen ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan.

Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” yoki “Sharq uyg‘onishi” (N.I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq uyg‘onish davrida Yevropa uyg‘onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo‘shqin ijodiy faoliyat, ulkan bonyodkorlik ishlarini amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq uyg‘onish davri ham ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mash-hur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xoraz-miy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug‘bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliylarning fal-safiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlit-likda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari ken-gaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi. She’riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o‘lmas asarlar yaratdilar. Ishq-mu-habbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatura rassom-chiligidagi bir necha maktablar shakllandı, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo‘nalishga asos soldi. Uyg‘onish davrining yana bir

belgisi xalq ruhini ifodalaydigan «Ming bir kecha», «Kalila va Dimna», «Qirq vazir», «To‘tinoma», «Sinbodnoma» kabi qiziqarli sarguzashtlar-ga to‘la, shavq-u zavq qo‘zg‘atadigan asarlarning ko‘paygani, ikkinchi tomondan «Xamsa»larda bo‘lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g‘oyalarning tasvirlanishidir. Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha mingyllik sivilizatsiya tari-xiga ega. Zotan, qadimiyati, qadim davlatchiligi bo‘lmagan xalqda uyg‘onish davri ham bo‘lmaydi. Sharq uyg‘onish davri keng ko‘lamli: ta’lim va tahlil, madrasa – maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig‘ilgan, «xazi-nat ul-hikma», «dor ul-ulum»larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbatli bar-davom edi, olimlarning obro‘-e’tibori yuksak qadrlandi.

Sharq uyg‘onish davri yutuqlari G‘arbiy Yevropadagi uyg‘onish davriga bevosita ta’sir etgan. Chunki XII-XIV asrlarda musulmon olami bi-lan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o‘qib o‘rganganlar. Ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Ash-Shifo», Forobiyning «Ilmlar tasnifi», Ahmad Farg‘o-niyning «Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi», Muham-mad Muso Xorazmiyning «Aljabr val muqobala» asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Musiqada ham uyg‘onish davri jarayoniga xos yuksalish dastlab Sharqda yuz berdi. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi an’analari arab, hind va fors musiqiy meros asarlari, cholg‘ulari bilan o‘zaro ta’sir jarayonlari na-tijasida qaytadan jonlandi. Zero, Forobiy va uning izdoshi Ibn Sino musiqani nazariy, falsafiy va estetik masalalarini atroflicha tadqiq etib, umum-sharqiya ta’limotni yaratishgan. Xususan, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari mu-siqa amaliyatiga tayangan holda, kuy va usullar, qo‘llaniladigan so‘zlar, mu-ayyan shakl va janrlar doirasida mushtaraklik mavjudligini isbotlashgan. Fo-robiyning «Kitob ul-musiqa al-kabir» (musiqaga doir katta kitob) va Ibn Sinoning «Javome’ ilm ul-musiqa» (musiqaga oid ilmlar to‘plami) kabi asarlarida yunon olimlarining qarashlarini boyitib, tovushlar baland-pastligi munosabatlari matematik uslubda ifodalangan.

XII-XIII asrlarda ijodiy va aqliy kuchlar rivojini namoyish etgan o‘n ikki maqom tizimi yuzaga keldi. Amir Temur va temuriylar musiqaning barcha jabhalarida yangi uyg‘onish davri yuzaga kelishini ta’minlab be-rishdi. Turli mamlakatlardan Samarqand, Buxoro kabi markazlarga kel-tirilgan san’atkorlar – bastakorlik, musiqa ijrochiligi va musiqashunoslik jadal rivojlanishiga hissa qo‘sishgan. Mazkur sohalarda nainki muayyan kasb egalari, balki o‘zga badiiy ijod sohiblari, xususan, Mirzo Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Boburlar ham nom chiqarishgan. Bu davrda mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuksaldi, og‘zaki an’anadagi musiqaning boshqa rivojlangan shakllari (doston, ashula, chol-g‘u, kuy va boshqa) keng o‘rin egallab, o‘zlarining yuqori pallalariga ko‘-tarildi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, katta ashulalar shakl-lanishiga olib keldi.

Sharq Uyg‘onish davri o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra quyidagi muhim omillar va xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turadi:

1) madaniyatda dunyoviy bilimlar, islom ahkomlari, aqidalarining ri-vojlanishi, ularning jamiyat va odamlar manfaatlari nuqtayi nazaridan talqin etilishi;

- 2) turli davlatlar, xalqlarning (arab, eron, yunon, hind, turkiy va b.) madaniy meroislari, qadriyatlar, yutuqlari, ma'naviy boyliklaridan foyda-lanish zarurligi;
- 3) astronomiya, matematika, minerologiya, jug'rofiya, kimyo va bosh-qa tabiiy fanlar rivoji;
- 4) uslub (metodologiya) da ratsionalizm (oqilonalik), mantiqning us-tuvorligi;
- 5) insoniy do'stlik, yuksak axloqiylik g'oyalaring targ'ib etili-shi, komil inson shaxsini shakllantirib voyaga yetkazish;
- 6) falsafa va tarix fanlarining o'sishi;
- 7) adabiyot, musiqa, badiiy madaniyat, notiqlikning keng rivoj to-pishi;
- 8) bilimdonlik, donishmandlikning qomusiy tarzda keng e'tirof to-pishi va h.k.

Uyg'onish davrining bu asosiy omillari va xususiyatlari dunyoviy ilm-fanning rivojlanishi – bular, shubhasiz, bashariyat ma'naviyati yuksa-lishining muhim o'lchov mezonlari bo'lib xizmat qildi.

Sharq madaniy Uyg'onishining o'ziga xos muhim jihatlaridan biri shundaki, bu yuksalish jarayoni bir vaqtning o'zida ham xalifalik mar-kazida hamda uning Mag'rib-u Mashriq tomonlarida birdek namoyon bo'ldi. Masalan: IX asr boshlarida xalifalik poytaxti Bog'dod bir vaqtning o'zida ham islomiy madaniyat va dunyoviy madaniyat, ilm-u ur-fonning yirik markazlaridan biriga aylangandi. Xalifa Xorun ar-Ra-shid (766-809) davrida Bog'dodda tashkil etilgan «Bayt ul-Hikmat» («Donishmandlar uyi») – olimlarni birlashtirgan ilmiy muassasa xalifa Ma'mun (819-833) davrida yanada rivojlandi. Unda ko'p sonli qomu-siy bilim sohiblari ilmu fanning turli-tuman sohalari bo'yicha yirik tadqiqotlar olib borganlar. Bu allomalarining talay qismi O'rta Osiyo namoyandalari bo'lganliklari esa biz uchun alohida g'urur va e'tibor-ga arzirlidir. Bu davr dunyoviy ilm-fanining yana bir muhim yutug'i shundaki, arab va ajam olimlarining katta sa'y-harakatlari, izlanishlari tufayli yunon, lotin, misr, hind tillarida bitilgan son-sanoqsiz noyob ilmiy asar-lar, qo'lyozmalar topilib, ular arab tiliga tarjima etildi va hayotga ijodiy tatbiq etila bordi.

2. Islom dinining sharq madaniyatini rivojlanishidagi o'rni

Arab xalifaligi VII-VIII asrlar davomida Mag'ribu Mashriqning keng hududlarini, shu jumladan Markaziy Osiyo yerlarini ham o'z tasarrufiga kiritgan edi. Xalifalikka kirgan hududlarga asta-sekin arab madaniyati, uning ko'plab unsurlari kirib kela boshladi. Eng asosiysi, islom-ning muqaddas kitobi «Qur'oni Karim» g'oyalari turli xalqlar orasida keng yoyila boshladi. Buning uchun bu yerlarda arab tili, arab yozuvi joriy etildi. Musulmon madaniyatining ko'rki hisoblangan naqshinkor bezaklar bilan ziynatlangan salobatli masjid-u madrasalar, xonaqoyu maqbaralar, diniy va ilmiy kitoblar, qo'lyozmalarga boy kutubxonalar va boshqa inshootlar qad rostlay boshladi. Ular shu xalqlarning avvalgi moddiy madaniyati xarobalari o'rnida barpo etildi. «Qur'oni Karim» («qiroat» so'zidan olingan) g'oyalari, qadriyatlar (odamlarni to'g'rilik, rostgo'ylik, poklik, halollik, ezgulik, yaxshilik, sa-hovat, do'stlik, birodarlik, o'zaro totuvlik, hamjihatlik, tinchligu oso-yishtalikka undash va h.k.), islomiy ahkomlar, jamiyat-u odamlar hayoti-ga singdirib borilib, shu asosda ular avvalgi ko'pxudolik, g'ayridiniy sar-qitlardan, xurofot tushunchalaridan xalos bo'lib bordilar. Xalifa Usmon payg'ambarimiz o'limidan keyin og'izma-og'iz

ko‘chib yurgan “Qur’oni Karim” matnlarini bir joyga to‘plab, yagona mukammal matnni yaratib, is-lom madaniyati tarixida nom qoldirgan. U kotib Muhammad Zayd ibn Sobit ko‘magida va payg‘ambarimizning tirik sahabalari guvohligida «Qur’oni Karim»ning yagona nusxasini tuzib chiqadi. Teriga ishlangan noyob kitoblardan biri xalifa Usmon Qur’onidir. Hajmi 68x53x22 sm. So‘ng yagona nusxadan besh nusxa ko‘chirib Makka, Madina, Damashq, Kufa va Basra shaharla-rida saqlashga buyuradi. Xalifa Usmon Qur’onini Amir Temur Shom (Suriya) yurishidan o‘lja sifatida o‘z poytaxtiga olib kelgan. Hozirda O‘zbekiston musulmonlar idorasi kutubhonasida saqlanmoqda. «Qur’oni Karim» dastlabki tayyorlangan islomiy manbadir. Ayni chog‘da islom madaniyatining gultojsi hisoblangan hadisshunoslik ilmi rivoj topib bordiki, bunda ham peshqadamlikni O‘rta Osiyolik buyuk muhaddis olimlar egalladilar.

Islom dinining qator asosiy tamoyillarini o‘z ichiga olgan «E’tiqod ramzi» yaratilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- 1) *Oollohga ishonish.*
- 2) *Oollohning farishtalariga ishonish.*
- 3) *Oollohning kitoblariga ishonish.*
- 4) *Oollohning payg‘ambarlariga ishonish.*
- 5) *Oxirat kuniga ishonish.*
- 5) *Taqdiri azalga ishonish.*
- 6) *O’lgandan keyin qayta tirlishga ishonish.*

Islom olamida Qur’oni Karimdan keyin mo‘tabar manba, bu hadisi sharifdir. Sharif degan so‘z arabcha bo‘lib, sharaflı, aziz, qadrli degan ma’nolarni anglatadi. Shom (Suriya), Bog‘dod, Quddus, Mozori Sharif va Buxoro Sharif unvoniga sazovor bo‘l-gan shaharlardir. Muhammad salollohu alayhi va sallamning aytgan gap-lari, qilgan ishlari, shularning hammasi sunnat hisoblanadi. Bular haqidagi dalolat esa hadisdir.

Butun musulmon dunyosida birdan-bir to‘g‘ri, ishonchli deb tan olingan **6 nafar hadischilar**: Imom Buxoriy, Imom Muslim al Hajjoj, Iso at-Termiziy, Imom Abu Dovud Sijistoniy, Imom An-Nasafiy, Imom Ab-dulla ibn Yazib ibn Mojjalar hammasi aslan Markaziy Osiyolik bo‘lib, ularning «Qutubi sitta» («Olti kitob») asari butun dunyoga mashhurdir. Ular orasida Imom Buxoriy (810-870) va ul zotga mansub «Al jome’ as-sahih» («Ishonarli to‘plam») asari yagonadir. Bu asarni islomshunoslar «Qur’oni Karim»dan keyingi o‘ringa qo‘yadilar. 4 jilddan iborat bu mu-borak kitobga 7275 ta eng sahih (ishonarli) hadislar kiritilgan bo‘lib, ular nihoyatda qimmatli tarbiyaviy-ma’rifiy ahamiyatga ega. Allomaning «Al adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asari ham mashhurdir. Bular mustaqillik yillarida o‘zbek tilida birinchi bor chop etildi. Uning bular-dan tashqari yana 20 dan ziyod asarlari mavjud. Alloma tavalludining 1225 yilligi o‘lkamizda 1998 yilning oktabrida keng nishonlandi hamda uning hokipoyi dafn etilgan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog‘ida esa yodgorlik majmuyi barpo etildi.

Imom Buxoriyning shogirdi va izdoshi Imom at-Termiziy (824-892) ham buyuk hadisshunos allomalardan biridir. Uning mashhur asari «Al-jome’» deb ataladi. «Ash-shamoil an-nabaviyya» («Payg‘ambarning alo-hida fazilatlari», 408 ta hadisi sharifni o‘z ichiga olgan mazkur asar 1991-yilda o‘zbek tilida birinchi bor chop etilgan), «Kitob az-zuhd» («Taqvo ha-qida») va boshqa kitoblar ham bu zoti sharif qalamiga mansubdir. Islom ta’limotida shariat va uning ruknlari ham muhim o‘rin

tutadi. Shariat (arabchada to‘g‘ri yo‘l, qonunchilik ma’nosida) - islom diniy huquqi, ya’ni barcha musulmonlar uchun bajarilishi majburiy bo‘lgan qonunlar, huquqiy-axloqiy ko‘rsatmalar majmuidir. Islomiy ilm taraqqiyotida alloma Burhoniddin Marg‘inoniy (1123-1197) ning xizmati ham buyukdir. U 1178-yili «Hidoya» («To‘g‘ri yo‘l») noyob asarini yaratadi. Bu kitobda o‘sha zamonlarda, jumlayi musulmonlar duch keladigan dolzarb masalalar, jumladan, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar, mulkchilik, savdo-sotiqlari, jinoiy jazo va insonning burch va mas’uliyatla-riga taalluqli juda ko‘p murakkab muammolarni islomiy huquq nuqtayi nazaridan hal etib beradi. Mazkur kitob nafaqat Mavarounnahrda, balki butun islom Sharqida ham islom huquqshunosligi bo‘yicha nufuzli huquqiy manba – asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Alloma «Bido-yat al-mubtadiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta’lim»), «Kifoyat al-muntaxiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta’lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi ki-tob»), «Kitob al-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Manosik ul-xaj» («Haj ma-rosimlari»), Kitob ul-mashoyih («Shayxlar haqida kitob») va boshqa ko‘plab asarlar muallifidir. Bu asarlardaadolat tuyg‘usi, o‘z davrining huquqiy mezonlari asosida yashash, o‘zganing mol-mulkiga ko‘z olay-tirmaslik, haromdan hazar qilish, insof va diyonat, mehr-oqibat kabi ez-gu tushunchalarning mohiyati ochib berilgan. Allomaning ilmiy merosi jahonning ko‘plab oliv o‘quv yurtlarida musulmon huquqshunosligi yo‘-nalishida o‘rganiladi. Yaqin Sharq, Markaziy Osiyolik olim-u fuzalolar Islom ilmi rivojiga buyuk hissalarini qo‘shar ekanlar, Allohning yakka-yu yagonaligi, Allohning bir ekanligi to‘g‘risidagi tawhid bilan ham mashhur bo‘ldilar. Fanning bu jabhasida, sirlar sirida ish ko‘rgan zamon ulamolari va fuzalolari orasida buyuk qobiliyat egasi Abu Mansur Muhammad ibn Mu-hammad al Moturudiy (870-944) nomi alohida ajralib turadi. Uning mashhur asarlari jumlasiga «Tawhid» (yakkaxudolik) asarini nisbat be-rish mumkin. Ushbu asar o‘sha zamon va davr ehtiyoji sifatida dunyoga kelgan. Sababi, Moturidiy yashagan davr islom olamining «Oltin davri» hisoblangan. Ana shu davrda islom ilm markazi Bog‘doddan O‘rta Osiyoga ko‘chgan, Samarqand «Oltin davr» markaziga aylangan. Moturudiy islom ilmidagi yuksak ilmiy muvaffaqiyatlari evaziga Kalom ilmi haqida 7 asar, huquq haqida 2 ta asar muallifi¹⁶. «Abu Mansur», ya’ni «G‘olib ota» martabasiga musharraf bo‘ldi.

Islom shariati besh diniy-huquqiy mazhabdan iborat. Sunniylikda: hanafiya, molikiya, shofiiya, hanbaliya mazhablari, Shialikda esa ja’fa-riya mazhabi bor. Yer yuzida jami 1,3 mlrd. musulmonlarning 47 foizi hanafiy, 27 foizi shofiyi, 17 foizi molikiy, 7,5 foizi ja’fariy (shialar), 1,5 foizi hanbaliy mazhabidadirlar. Umumiyl qilib olganda, sunniylar 92,5 foizni, shialar esa 7,5 foizni tashkil etadi.

Shariat mazhablari (arab. – oqim, yo‘l, ta’limot) – islomdagidiniy huquq sistemalari va yo‘nalishlari. Shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik – fiqh sohasida juda ko‘p mazhablar yuzaga kelgan. Mazhablar umuman ortodoksal diniy huquq doirasidan chiqmagan xolda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Sunniylikdagi to’rt mazhab ham teng hisoblanib, yirik islom universitetlarida to’rt mazhab bo‘yicha

alohida dars o'qitiladi. Mazhablarni yana diniy-huquqshunoslik tartib usuli, ya'ni shariat usuli, islom manbalarida esa "mazhab al-sunna", mazhab muhlislarini "ahli sunna" deb ataladi. Keyinchalik shariat qonunlarining takomillashuvi jarayonida bu tushunchalar murakkablashib, barcha xatti-harakatlar shariat nuqtai nazaridan quyidagi turkumga bo'lingan:

1. **Farz** (arab. – majburiyat) bevosita Qur'onda qayd etilgan, har bir
2. **Vojib** (arab. – majburiyat, burch) xukmdorlarning amrini ijro etish ham
3. **Sunnat** (arab. – oda, xatti-harakat tarzi) bajarilishi lozim va savobli
4. **Mandub** (arab. – tavsiya etilgan, lozim topilgan) bajarish lozim va savob
5. **Muboh** (arab. – umumiyl, hech kimga taaluqli bo'lмаган) tor ma'noda
6. **Makruh** (arab. – rad etilgan, qoralangan, nomaqbul) qat'yan
7. **Mahzur yoki harom** (arab. – man etilgan, ruxsat berilmagan) qat'yan man Islomda diniy bayramlarga alohida e'tibor beriladi. Ular qatorida eng katta e'tiborga ega bo'lганлари *Ro'za hayit*, *Qurban hayit*, *Me'roj*, *Mavlud*, *Juma* bayramlaridir.

Tasavvuf – bu odamlarni halollik, poklik, tenglik, inson qadr-qimma-tini ulug'lash, o'z mehnati bilan kun ko'rish, boshqalar kuchidan foyda-lanmaslik va ijtimoiyadolat qoidalariiga da'vat etuvchi ezgu ta'limotdir. Xuroson va Movarounnahr aholisi o'rtasida tasavvuf-falsafiy ilmi taraqqiyotida Yusuf Hamadoniy katta obro'-e'tibor va hurmat qozongan. U asosan Buxoro shahrida yashab yoshlarga tasavvufdan saboqlar bergan hamda juda ko'plab shogirdlar tarbiyalagan. Yusuf Hamadoniyi pir tut-gan muridlaridan 213 tasi mashhur shayxlar bo'lib yetishganlar. Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Abdulloh Barraqiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abduholiq G'ijduvoniylar uning to'rt zabardast xalifasi hisoblanadi.

Yurtimizda ildiz otgan Yassaviya (Ahmad Yassaviy), Kubroviya (Naj-middin Kubro), Naqshbandiya (Xoja Bahovuddin Naqshband) ta'limot-lari mohiyatan shunday olajanob g'oyalar ruhi bilan sug'orilgan. Jumla-dan, «Yassaviya» tariqatining bir qator asosiy qoidalari (odoblari)ga na-zar tashlar ekanmiz, bunda insonlarning Alloh visoliga yetishish yo'lida tinimsiz izlanishlari hayotning turlituman sinov-sinoatlariga dosh be-rishlari, o'z e'tiqodlarida sobit, ezgulik, haq yo'lida hamisha sa'y-hara-katlarda bo'lishlari kerakligiga alohida urg'u berilganligi ayon bo'ladi. Shu bois Yassaviy «Hikmat»larida poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonla-ma takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan. Xuddi shunday yuksak g'oyalar Kubroviya, Naqshbandiya singari tari-qatlarning mazmuni, mundarijasini tashkil etadi. Mammuniyat bilan tilga olish lozimki, Najmuddin Kubro qalamiga mansub «Favo'ix al-Jamol va fatvotix al-Jalol», «Al-Usul al-ashora», «Risolotut-turk» kabi 30 ga yaqin noyob asarlar mavjud. Uning tariqatida diniylik bilan dunyoviylik cham-barchas bog'lanib ketgan. Uning asarlaridagi kishilarning halollik, oda-miylik, mol-u dunyoga hirs qo'ymaslik, o'z nojo'ya ishlaridan tavba qi-lishdek axloqiy-g'oyaviy, tarbiyaviy talab-qoidalari bizning kunlarimiz-da ham g'oyatda muhim ahamiyatga molikdir. O'z davrining komil insoni Bahovuddin Naqshband haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo u asos solgan Naqshbandiylikning asosiy mohiyati "Qo'l ishda, Alloh dilda", "Kam yegil, kam uxla va kam gapir!" degan

ulug‘ nasihatlari o‘ta hayotiyidir. Naqshbandiya ta’limoti halol mehnat qi-lishga, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-ma’rifat, xattot-lik, badiiy adabiyot, musiqa bilan shug‘ullanish kabi foydali kasb-hunarli va xayrli ishlar sari da’vat etadi. Zотан, mustaqillik sharofati bilan yurtimiz tarixida, uning ma’naviy sarchashmalarida sezilarli iz qoldirgan, ularni o‘z pok ruhoniylar ta’limot-lari ila boyitgan ulug‘ salaflarimiz – Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmuddin Kubro, Abdusaliq G‘ijduvoniy, Kaffol Shoshiy, Xoja Ah-ror Valiy singari bobokalonlarimiz aziz nomlari tiklanib, asarlari chop etilib, beba ho meroslaridan bahra olayapmizki, bu biz uchun katta baxtdir.

3. Me’morchilik va tasviriy san’at yuksalishi

Biz ko‘zdan kechirayotgan asrlarda Sharqda ilm-fan va madaniyat-ning yuksak darajada ravnaq topganligi ayni chog‘da boshqa sohalar-da, xususan, me’morchilik hamda tasviriy san’atda ham o‘z ifodasini topdi. Bunda ko‘p jihatdan bu davrda o‘lka hududlarida hukm surgan tinchlik, osoyishtalikning sharofati ham katta bo‘ldi. Shu davrda ma-halliy hukmdorlarning sa'y-harakatlari tufayli shaharlarda noyob tari-xiy obidalar, hashamatli binolar, ilmiy-madaniy maskanlar, kutubxo-nalar, masjid-u madrasalar qad ko‘tardi.

Ayniqsa, xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, naqqoshlar, kulol-lar, zargarlar tomonidan yurt dovrug‘ini olamga tanitgan, ajoyib me’-morchilik obidalari, tasviriy san’at namunalari yaratildi. Bu davr shaharsozligida xom g‘ishtlar va paxsalardan keng foydalilanilgan. Ularni shinamligi va ko‘rinishini yanada ko‘rkamlashtirishda ohakli qorish-malar ishlatilib, gajakdor qilib ishlov berilgan. Qurilgan ayrim masjidlar-ning mehroblari esa silliqlangan g‘ishtlar, o‘yma ganjlar va hatto tilla suvla-ri bilan ham bezatilgan. Har bir shahar markazlarida kitob do‘konlari, mada-niy mollar bo‘lishiga alohida e’tibor berilgan. O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrining yirik me’moriy obidalari sirasiga Buxorodagi Ismoil Somoni maqbarasi (X asr), Samarqand yaqinidagi Tim qishlog‘idagi Arab ota maqbarasi (977-978), Uzun (Surxondaryo) tumanidagi Xo‘ja Naxshron maqbarasi (IX-X asr), Namozgoh, Marv-dagi Sulton Sanjar (XI asr), O‘zgandagi qoraxoniyalar maqbarasi, G‘azna yaqinidagi marmar qotishmalardan tiklangan g‘aznaviyalar yozgi saroyi, Buxorodagi Minorayi Kalon (1127), Vobkent minorasi (1192), Jarqo‘rg‘on minoralari va boshqa ko‘rkam me’morchilik inshootla-rini nisbat berish mumkin. Bu davrda me’moriy binolardan tashqari yo‘-nilgan g‘isht va suvgaga chidamli qurilish qorishmalaridan turli-xil o‘lchamli, g‘oyat puxta ishlangan inshootlar, suv omborlari – bandlar, novlar, ko‘priklar, sardobalar va korizlar qurilgan. X asrdan boshlab binokorlikda sinchli imoratlar qurilishi keng tarqal-gan. Yakkasinch va qo‘sinchli binolar asosan yog‘ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi xom g‘isht yoki guvalalar bilan urib chi-qilib, somon loylar yoki qumli loylar bilan suvalgan. Bunday qurilma imo-ratlar XII asrda ham shahar me’morchiligida asosiy o‘rinni egallagan hamda zilzila silkinishlariga o‘ta chidamli bo‘lgan. Ajqdodlarimizning Uyg‘o-nish davri me’morchiligi sohasidagi bunyodkorliklari bugunga qadar ham saqlanib qolingga. Ushbu tarixiy ma’lumotlarni olimlarimiz Afrosi-yob, Varaxsha, Buxoro, Poykand va boshqa shaharlar xarobalari misolida ham tadqiq etadilar. Sharqiy o‘lkalarda IX-XII asrlarda me’morchilik bilan birga tasviriy san’at, naqqoshlik, sopol ishslash va

ganch san'ati ham ancha rivoj topib borgan. Imoratlarni o'ymakor ustun va to'sinlar bilan, devorlarni esa bo'yoqli yoki ganchkorlik naqshlari bilan bezash keng tarqalgan. Bunga misol qilib, Zarafshonning yuqori oqimidagi Oburdom degan manzilda X asrda barpo etilgan naqshinkor bino namunasini ko'rsatish mumkin. Inshootda o'ziga xos yangilik, go'zallik, ya'ni mahalliy an'ana, badiiy shakl ko'zga yaqqol tashlanadi. Shuningdek, XI-XII asrlarga tegishli Samarqand bilan Buxoro oralig'ida bunyod etilgan Roboti Malik karvonsaroyi peshtoqiga ishlangan ganch o'ymakorligi ham tahsinga loyiqidir. Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning rivoj-lanishiga ham turtki bo'ldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar ushbu sohalarda rivoj topgan markazga aylandi. Bu davrda ishlangan sopol buyumlar nihoyatda chidamli bo'lib, shahar va qish-loq aholisining kundalik hayotiga kirib borgan, shuningdek, bu mahsulotlar chet mamlakatlariga ham chiqarilgan. Kulolchilik mahsulot-larini tayyorlash jarayoni esa butun boshli ishlab chiqarish jarayonla-rini o'ziga qamrab olgan. Shu bilan birga, bu davrda kumush, mis, bronzadan naqshinkor ba-diiy san'at buyumlari, chiroyli va bejirim idish-tovoqlar, qadahlar yasash ham rasm bo'lган va ularning ko'rinishlari san'atkorona tarzda ustamonlik bilan bezatilgan. Bu sohada Samarqand, Farg'ona, Tosh-kent, Xorazm, Naxshob, Kesh shaharlarining o'ziga xos maxsus maktablari faoliyat ko'rsatgan. Bunday jarayonlarning rivojlanishi xattotlik san'atining ham keng yoyilishiga bois bo'ldi. Hali kitob bosish kashf etilmaganligi, qo'lyozma kitoblardan nusxalar hattotlar tomoni-dan qo'lda ko'chirilishi sabab xattotlik san'ati ancha rivoj topdi. Usta xattotlar va husnixat egalari o'z san'atlarini kitoblar bezash, masjid, madra-sa, xonaqolarning peshtoqlari, gumbazlari, eshiklari va devor ustunlariga har xil oyatlar yozish, saroylarda xonlar, amirlar, sultonlar va hokimlar sha'-niga madhiyalar bitish kabi ishlarda namoyon etganlar, ularning mehnat-lari esa juda qadrlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, Uyg'onish davriga xos me'morchilik va unda ishlangan me'moriy naqsh uslublari o'z navbatida ajdodlarimizning hayotda ijodkor va bunyodkor bo'lganligini to'la tasdiq etadi. Ularning yaratgan noyob ishlari san'at asarining durdonalari sifatida hozirga qadar ham ajdod-u avlodlar e'zozu hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda. Biz avlodlar o'tmishda Vatanimiz hududida shunday qo'li gul, yuksak yaratuvchilik salohiyatiga ega bo'lgan, xalqimiz va madaniyatimizni dunyoga tanitgan bunday ulug' ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Tayanch so'z va iboralar.

Farz, Vojib, Sunnat, Mandub, Muboh, Makruh, Mahzur yoki harom

Savol va topshiriqlar.

1. Me'morchilik va tasviriy san'at yuksalishi haqida nima bilasiz?
2. Tasavvuf deganda nimani tushunasiz?
3. Butun musulmon dunyosida birdan-bir to'g'ri, ishonchli deb tan olingen hadisshunoslar kimlar?

Adabiyotlar ro'yxati

23. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-engilmas kuch. T.: "Manaviyat", 2008.-176 b.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: «O'zbekiston», 2000 y.
24. Abdullaev M. Madaniyatshunoslik asoslari T.: «Turon» 2006 y.
25. Abduraxmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: «Movarounnahr», 2002 y.
26. Boboev H., Hamroev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. T.: «Yangi asr avlodi», 2001 y.
27. Boboev H., Hasanov S. «Avesto» manaviyatimiz sarchashmasi. T.: «Adolat», 2001 y.
28. Jabbarov I. O'zbek xalq etnografiyasi. T.: «O'qituvchi», 1994 y.
29. Kaykovus. Qobusnomi. T.: «Istiqlol», 1994 y.
30. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T.: «Manaviyat», 1999 y.
31. Madaniyatshunoslik. Maruza matni. Gulmetov e. va boshqalar. T.: DITAF, 2000 y.
32. Mustaqillik. Ilmiy-ommabop lug'at. T.: 1998 y.
33. Umarov. E. «Madaniyatshunoslik». Yangi asr avlodi 2005 y.

Testlar.

1. Ibtidoiy jamiyat odamlarining dunyoqarashi qanday bo'lgan?

- A) Idealistik
- B) Materialistik
- S) Sxolostik
- D) Mifologik
- E) Dualistik

2. Birinchi teatr qaysi davlatda paydo bo'lgan?

- A) Misrda
- B) Xitoyda
- S) Italiyada
- D) Hindistonda
- E) Bobilda

3. Diniy falsafa dastlab qaysi mamlakat xalqlari hayotida paydo bo'lgan?

- A) Rimda
- B) Movoraunnahrda
- S) Misrda
- D) Hindistonda
- E) Yunonistonda

4. Kishilik jamiyatida ma'naviy madaniyatning vujudga kelish sabablari nimada deb o'ylaysiz?

- A) Turmush tarzida
- B) Diniy tasavvurida
- S) Yodgorlik qoldiqlarida
- D) Tabiat Bilan aloqadorlikda
- E) Siyosiy omil

5. Qadimgi maktablar dastlab qaerda tashkil etilgan?

- A) Misrda Xitoyda
- S) Hindistonda
- D) Movoraunnahrda
- E) Rimda

6. Evropa uyg‘onish davri dunyoqarashining asosida nima yotadi?

- A) Materializm
- B) Ratsionalizm
- S) Idealizm
- D) Insonparvarlik

7. Arxitektura uslublarining qaysi biri birinchi bo‘ib paydo bo‘lgan?

- A) Barakko
- B) Roman
- S) Ampir
- D) Gotika
- E) Fales

8. Quyidagi san’at oqimlari qaysi mamlakatda paydo bo‘lgan? (Kubizm, fovizm, syurealizm).

- A) Italiyada
- B) Germaniyada
- S) Rossiyada
- D) Fransiyada
- E) Angliyada

9. Kitob bosish usuli dastlab qaysi davlatda joriy etildi?

- A) Misrda
- *B) Xitoyda
- S) Fransiyada
- D) Germaniyada
- E) Angliyada

10. Qaysi yilda O‘zbekistonda Musiqa teatri paydo bo‘lgan?

- A) 1924-1925
- B) 1926-1927
- S) 1928-1929
- D) 1930-1931
- E) 1941-1942

11. O‘zbek kinomatografiyasini qachon paydo bo‘lgan?

- A) 1924-1925
- B) 1926-1927
- S) 1928-1929
- D) 1930-1931
- E) 1941-1942

12. Qaysi asrda qog‘oz tayyorlash O‘zbekistonda hunarmandchilikning asosiy turiga aylandi?

- A) 6-7 asr
- B) 8-9 asr

- S) 10-11 asr
- D) 13-14 asr
- E) 15-1 asr

13. Barbitos, Pektis, Magadis, Musiqa asboblari qaysi turga kirishini aniqlang.

- A) Puflama
- B) Torli
- S) Chertma
- D) Urma
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

14. Milet falsafa maktabining asoschilaridan birini aniqlang.

- A) Perminit
- B) Fales
- S) Zenon
- D) Aristotel
- E) To‘g‘ri javob yo‘q

15. Qaysi asrda Samarqandni jahonga tanitgan arxitektura yodgorliklari qurildi? (Bibixonim, SHohi - Zinda, Go‘ri Amir)

- A) 6-7 asr
- B) 7-8 asr
- S) 14-15 asr
- D) 16-17 asr
- E) 18-19 asr

16. Madaniyat tushunchasi.

- A) Inson yaratgan san’at sohasi
- B) Gumanitar bilimlar
- S) Insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklari
- D) Jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyat
- E) Jamiyatda paydo bo‘luvchi demografik va etnik jarayonlar

17. Madaniyatshunoslik.

- A) Madaniyat rivojining umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi
- B) Umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganadi
- S) Insoniyat yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar
- D) Milliy urf-odatlar va qadriyatlар
- E) Insonlarning ijodkorligi

18. Qadimgi SHarqda «Aqli odam» terminini kim ishlatgan?

- A) Ibn Sino
- B) Abu Rayhon Beruniy
- S) Farobi
- D) Ahmad YAssaviy
- E) Naqshbandiy

19. Madaniyatshunoslikning vazifasi nima?

- A) Iqtisodiy qobiliyatni rivojlantirish
- B) Siyosiy ongni shakllantirish
- S) Ijtimoiy ongni rivojlantirish

- D) Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish
- E) Falsaviy ongni rivojlantirish

20. Madaniy meros tushunchasi

- A) Erishilgan yutuqlar
- B) Ma'naviy boylik
- S) Kishiarning ijodiy faoliyatları
- D) Moddiy boyliklar
- E) O'tmishdan qolgan qadriyatlar

21. Selung‘ur g‘oridan topilgan «Olergantrop»ning yoshi qancha?

- A) 900 ming yil
- B) 800 ming yil
- S) 700 ming yil
- D) 600 ming yil
- E) 500 ming yil

22. Ilk paleolitning so‘nggi davri qanday nom bilan ataladi?

- A) Antropogonez davri
- B) Teminitor davri
- S) Muste davri
- D) Neandertallar davri
- E) Ijodkorlik davri

23. Tasviriy san'atning ibtidoiy namunasi qaysi viloyatga mansub?

- A) Sirdaryo viloyatiga
- B) Surxondaryo viloyatiga
- S) Samarqand viloyatiga
- D) Jizzax viloyatiga
- E) Farg‘ona viloyatiga

24. Pentagon g‘ori qaysi davlatda?

- A) Misrda
- B) Gretsiyada
- S) Fransiyada
- D) Xitoyda
- E Hindistonda

25. Markaziy Osiyo neolit davrini aniqlang.

- A) Miloddan avvalgi 4 asr
- B) Miloddan avvalgi 5 asr
- S) Miloddan avvalgi 6 asr
- D) Miloddan avvalgi 7 asr
- E) Miloddan avvalgi 8 asr

26. «Avesto»ning yaratilish manzilini aniqlang?

- A) Eronda
- B) Bobilda
- S) Xorazmda
- D) Afg‘onistonda
- E) Ozarboyjonda

27. Kaltaminor manzilgohi qaysi viloyatga mansub?

- A) Surxondaryo
- B) Buxoro
- S) Xorazm
- D) Sirdaryo
- E) Samarkand

28. O‘zbekiston hududida jez davri qaysi davrga mansub?

- A) Miloddan avvalgi 1 ming yillik bosharida
- B) Miloddan avvalgi 2 ming yillik bosharida
- S) Miloddan avvalgi 3 ming yillik bosharida
- D) Miloddan avvalgi 4 ming yillik bosharida
- E) Miloddan avvalgi 5 ming yillik bosharida

29. Xitoy qo‘lyozmalari topilgan davrni aniqlang.

- A) Miloddan avvalgi 610 yil
- B) Miloddan avvalgi 611 yil
- S) Miloddan avvalgi 612 yil
- D) Miloddan avvalgi 615 yil
- E) Miloddan avvalgi 614 yil

30. Teatr so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

- A) Tomoshabinlar to‘planadigan joy
- B) Tadbirlar o‘tkazish joyi
- S) San’atni namoyish qilish joyi
- D) Tomoshalar joyi (Yunoncha)
- E) Aktyorlar ijod qilish joyi

31. O‘rtal Osiyo uyg‘onish davrini aniqlang.

- A) 9-10 asrlar
- B) 9-11 asrlar
- S) 9-12 asrlar
- D) 9-13 asrar
- E) 9-14 asrlar

32. Evropa uyg‘onish davrini aniqlang.

- A) 12-13 asrlar
- B) 13-14 asrar
- S) 14-15 asrlar
- D) 14-16 asrlar
- E) 16-17 asrlar

33. «Avesto» so‘zining ma’nosini ayting.

- A) So‘zlar tizimi
- B) Qadimgi kitob
- S) Asosiy matn
- D) Muqaddas kitob
- E) Diniy yo‘l-yo‘riqLar

34. Dastlabki Kushon manzil markazini aniqlang.

- A) Parfiya
- B) Baqtriya

S) Xorazm

D) Eron

E) Pokiston

35. O'rta Osiyoda metall buyumlar ishlab chiqarish davrini aniqlang.

A) 13 asr

B) 14 asr

S) 15 asr

D) 16 asr

E) 17 asr

36. Respubika ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi qachon tashkil topgan?

A) 1992 yil 23 aprelda

B) 1993 yil 23 aprelda

S) 1994 yil 23 aprelda

D) 1995 yil 23 aprelda

E) 1996 yil 23 aprelda

37. Barbitos, Pektis, Magadis, Musiqa asboblari qaysi turga kirishini aniqlang.

A) Puflama

B) torli

S) chertma

D) Urma

E) to'g'ri javob yo'q

38. Milet falsafa maktabining asoschilaridan birini aniqlang.

A) Perminit

B) Fales

S) Zenon

D) Aristotel

E) To'g'ri javob yo'q

39. Qaysi asrda Samarqandni jahonga tanitgan arxitektura yodgorliklari qurildi? (Bibixonim, Shohi - Zinda, Go'ri Amir)

A) 6-7 asr

B) 7-8 asr

S) 14-15 asr

D) 16-17 asr

E) 18-19 asr

40. Madaniyat tushunchasi.

A) Inson yaratgan san'at sohasi

B) Gumanitar bilimlar

S) Insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari

D) Jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyat

E) Jamiyatda paydo bo'luvchi demografik va etnik jarayonlar

41. Madaniyatshunoslik.

A) Madaniyat rivojining umumiyl qonuniyatlarini o'rganadi

- B) Umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganadi
- S) Insoniyat yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklar
- D) Milliy urf-odatlar va qadriyatlar
- E) Insonlarning ijodkorligi

42. Qadimgi Sharqda «Aqli odam» terminini kim ishlatsan?

- A) Ibn Sino
- B) Abu Rayhon Beruniy
- S) Farobiy
- D) Ahmad YAssaviy
- E) Naqshbandiy

43. Madaniyatshunoslikning vazifasi nima?

- A) Iqtisodiy qobiliyatni rivojlantirish
- B) Siyosiy ongni shakllantirish
- S) Ijtimoiy ongni rivojlantirish
- D) Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish
- E) Falsaviy ongni rivojlantirish

44. Madaniy meros tushunchasi

- A) Erishilgan yutuqlar
- B) Ma’naviy boylik
- S) Kishiarning ijodiy faoliyatları
- D) Moddiy boyliklar
- E) O’tmishdan qolgan qadriyatlar

45. Selung‘ur g‘oridan topilgan «Olergantrop»ning yoshi qancha?

- A) 900 ming yil
- B) 800 ming yil
- S) 700 ming yil
- D) 600 ming yil
- E) 500 ming yil

46. Ilk paleolitning so‘nggi davri qanday nom bilan ataladi?

- A) Antropogenez davri
- B) Teminitor davri
- S) Muste davri
- D) Neandertallar davri
- E) Ijodkorlik davri

47. Tasviriy san‘atning ibridoiy namunasi qaysi vilotga mansub?

- A) Sirdaryo viloyatiga
- B) Surxondaryo viloyatiga
- S) Samarkand viloyatiga
- D) Jizzax viloyatiga
- E) Farg‘ona viloyatiga

48. Pentagon g‘ori qaysi davlatda?

- A) Misrda
- B) Gretsiyada

S) Fransiyada

D) Xitoyda

E Hindistonda

49. Markaziy Osiyo neolit davrini aniqlang.

A) Miloddan avvalgi 4 asr

B) Miloddan avvalgi 5 asr

S) Miloddan avvalgi 6 asr

D) Miloddan avvalgi 7 asr

E) Miloddan avvalgi 8 asr

50. «Avesto»ning yaratilish manzilini aniqlang?

A). Eronda

B) Bobilda

A. Xorazmda

B.Afg‘onistonda

C.Ozarboyjonda

51 Kaltaminor manzilgohi qaysi viloyatga mansub?

A) Surxondaryo

B) Buxoro

S) Xorazm

D) Sirdaryo

E) Samarkand

52. O‘zbekiston hududida jez davri qaysi davrga mansub?

A) Miloddan avvalgi 1 ming yillik bosharida

B) Miloddan avvalgi 2 ming yillik bosharida

S) Miloddan avvalgi 3 ming yillik bosharida

D) Miloddan avvalgi 4 ming yillik bosharida

E) Miloddan avvalgi 5 ming yillik bosharida

53. Xitoy qo‘lyozmalari topilgan davrni aniqlang.

A) Miloddan avvalgi 610 yil

B) Miloddan avvalgi 611 yil

S) Miloddan avvalgi 612 yil

D) Miloddan avvalgi 615 yil

E) Miloddan avvalgi 614 yil

54. Teatr so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

A) Tomoshabinlar to‘planadigan joy

B) Tadbirlar o‘tkazish joyi

S) San’atni namoyish qilish joyi

D) Tomoshalar joyi (YUnioncha)

E) Aktyorlar ijod qilish joyi

55. O‘rta Osiyo uyg‘onish davrini aniqlang.

A) 9-10 asrlar

B) 9-11 asrlar

S) 9-12 asrlar

D) 9-13 asrar

E) 9-14 asrlar

56. Evropa uyg‘onish davrini aniqlang.

- A) 12-13 asrlar
- B) 13-14 asrar
- S) 14-15 asrlar
- D) 14-16 asrlar
- E) 16-17 asrlar

57. «Avesto» so‘zining ma’nosini ayting.

- A) So‘zlar tizimi
- B) Qadimgi kitob
- S) Asosiy matn
- D) Muqaddas kitob
- E) Diniy yo‘l-yo‘riqlar

58. Dastlabki Kushon manzil markazini aniqlang.

- A) Parfiya
- B) Baqtriya
- S) Xorazm
- D) Eron
- E) Pokiston

59. O‘rta Osiyoda metall buyumlar ishlab chiqarish davrini aniqlang.

- A) 13 asr
- B) 14 asr
- S) 15 asr
- D) 16 asr
- E) 17 asr

60. Respubika ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi qachon tashkil topgan?

- A) 1992 yil 23 aprelda
- B) 1993 yil 23 aprelda
- S) 1994 yil 23 aprelda
- D) 1995 yil 23 aprelda
- E) 1996 yil 23 aprelda

61. Ibtidoiy jamiyat odamlarining dunyoqarashi qanday bo‘lgan?

- A) Idealistik
- B) Materialistik
- S) Sxolostik
- D) Mifologik
- E) Dualistik

62. Birinchi teatr qaysi davlatda paydo bo‘lgan?

- A) Misrda
- B) Xitoyda
- S) Italiyada
- D) Hindistonda
- E) Bobilda

63. Diniy falsafa dastlab qaysi mamlakat xalqlari hayotida paydo bo‘lgan?

- A) Rimda

- B) Movoraunnahrda
- S) Misrda
- D) Hindistonda
- E) Yunonistonda

64 Kishilik jamiyatida ma’naviy madaniyatning vujudga kelish sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

- A) Turmush tarzida
- B) Diniy tasavvurida
- S) Yodgorlik qoldiqlarida
- D) Tabiat Bilan aloqadorlikda
- E) Siyosiy omil

65. Qadimgi maktablar dastlab qaerda tashkil etilgan?

- A) Misrda Xitoyda
- S) Hindistonda
- D) Movoraunnahrda
- E) Rimda

65. Evropa uyg‘onish davri dunyoqarashining asosida nima yotadi?

- A) Materializm
- B) Ratsionalizm
- S) Idealizm
- D) Insonparvarlik

66 Arxitektura uslublarining qaysi biri birinchi bo‘ib paydo bo‘lgan?

- A) Barakko
- B) Roman
- S) Ampir
- D) Gotika
- E) Fales

67. Quyidagi san’at oqimlari qaysi mamlakatda paydo bo‘lgan? (Kubizm, fovizm, syurealizm).

- A) Itaiyada
- B) Germaniyada
- S) Rossiyada
- D) Fransiyada
- E) Angliyada

68. Kitob bosish usuli dastlab qaysi davlatda joriy etildi?

- A) Misrda
- B) Xitoyda
- S) Fransiyada
- D) Germaniyada
- E) Angliyada

69. Qaysi yilda O‘zbekistonda Musiqa teatri paydo bo‘lgan?

- A) 1924-1925
- B) 1926-1927

- S) 1928-1929
- D) 1930-1931
- E) 1941-1942

70. O‘zbek kinomatografiyasini qachon paydo bo‘lgan?

- A) 1924-1925
- B) 1926-1927
- S) 1928-1929
- D) 1930-1931
- E) 1941-1942

71. Ibtidoiy jamiyat odamlarining dunyoqarashi qanday bo‘lgan?

- A) Idealistik
- B) Materialistik
- S) Sxolostik
- D) Mifologik
- E) Dualistik

72. Markaziy Osiyo neolit davrini aniqlang.

- A) Miloddan avvalgi 4 asr
- B) Miloddan avvalgi 5 asr
- S) Miloddan avvalgi 6 asr
- D) Miloddan avvalgi 7 asr
- E) Miloddan avvalgi 8 asr

73. «Avesto»ning yaratilish manzilini aniqlang?

- A). Eronda
- B) Bobilda
- S) Xorazmda
- D). Afg‘onistonda
- E). Ozarboyjonda

74. Kaltaminor manzilgohi qaysi viloyatga mansub?

- A) Surxondaryo
- B) Buxoro
- S) Xorazm
- D) Sirdaryo
- E) Samarkand

75. O‘zbekiston hududida jez davri qaysi davrga mansub?

- A) Miloddan avvalgi 1 ming yillik bosharida
- B) Miloddan avvalgi 2 ming yillik bosharida
- S) Miloddan avvalgi 3 ming yillik bosharida
- D) Miloddan avvalgi 4 ming yillik bosharida
- E) Miloddan avvalgi 5 ming yillik bosharida

76. Xitoy qo‘lyozmalari topilgan davrni aniqlang.

- A) Miloddan avvalgi 610 yil
- B) Miloddan avvalgi 611 yil

- S) Miloddan avvalgi 612 yil
- D) Miloddan avvalgi 615 yil
- E) Miloddan avvalgi 614 yil

77. Teatr so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

- A) Tomoshabinlar to‘planadigan joy
- B) Tadbirlar o‘tkazish joyi
- S) San’atni namoyish qilish joyi
- D) Tomoshalar joyi (Yunoncha)
- E) Aktyorlar ijod qilish joyi

78. O‘rta Osiyo uyg‘onish davrini aniqlang.

- A) 9-10 asrlar
- B) 9-11 asrlar
- S) 9-12 asrlar
- D) 9-13 asrar
- E) 9-14 asrlar

79. Evropa uyg‘onish davrini aniqlang.

- A) 12-13 asrlar
- B) 13-14 asrar
- S) 14-15 asrlar
- D) 14-16 asrlar
- E) 16-17 asrlar

80. «Avesto» so‘zining ma’nosini ayting.

- A) So‘zlar tizimi
- B) Qadimgi kitob
- S) Asosiy matn
- D) Muqaddas kitob
- E) Diniy yo‘l-yo‘riqLar

81. Dastlabki Kushon manzil markazini aniqlang.

- A) Parfiya
- B) Baqtriya
- S)Xorazm
- D) Eron
- E) Pokiston

82. O‘rta Osiyoda metall buyumlar ishlab chiqarish davrini aniqlang.

- A) 13 asr
- B) 14 asr
- S) 15 asr
- D) 16 asr
- E) 17 asr

83. Respubika ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi qachon tashkil topgan?

- A) 1992 yil 23 aprelda
- B) 1993 yil 23 aprelda

- S) 1994 yil 23 aprelda
- D) 1995 yil 23 aprelda
- E) 1996 yil 23 aprelda

84. Quyidagi san'at oqimlari qaysi mamlakatda paydo bo'lgan? (Kubizm, fovizm, syurealizm).

- A) Itaiyada
- B) Germaniyada
- S) Rossiyada
- D) Fransiyada
- E) Angliyada

14. Kitob bosish usuli dastlab qaysi davlatda joriy etildi?

- A) Misrda
- B) Xitoyda
- S) Fransiyada
- D) Germaniyada
- E) Angliyada

85. Qaysi yilda O'zbekistonda Musiqa teatri paydo bo'lgan?

- A) 1924-1925
- B) 1926-1927
- S) 1928-1929
- D) 1930-1931
- E) 1941-1942

86. O'zbek kinomatografiyasini qachon paydo bo'lgan?

- A) 1924-1925
- B) 1926-1927
- S) 1928-1929
- D) 1930-1931
- E) 1941-1942

87. «Avesto» so'zining ma'nosini aytинг.

- A) So'zlar tizimi
- B) Qadimgi kitob
- S) Asosiy matn
- D) Muqaddas kitob
- E) Diniy yo'l-yo'riqLar

88. Dastlabki Kushon manzil markazini aniqlang.

- A) Parfiya
- B) Baqtriya
- S)Xorazm
- D) Eron
- E) Pokiston

89. O'rta Osiyoda metall buyumlar ishlab chiqarish davrini aniqlang.

- A) 13 asr
- B) 14 asr

- S) 15 asr
- D) 16 asr
- E) 17 asr

90. Respubika ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi qachon tashkil topgan?

- A) 1992 yil 23 aprelda
- B) 1993 yil 23 aprelda
- S) 1994 yil 23 aprelda
- D) 1995 yil 23 aprelda
- E) 1996 yil 23 aprelda

91. Ibtidoiy jamiyat odamlarining dunyoqarashi qanday bo'lgan?

- A) Idealistik
- B) Materialistik
- S) Sxolostik
- D) Mifologik
- E) Dualistik

92. Birinchi teatr qaysi davlatda paydo bo'lgan?

- A) Misrda
- B) Xitoyda
- S) Italiyada
- D) Hindistonda
- E) Bobilda

93. Diniy falsafa dastlab qaysi mamlakat xalqlari hayotida paydo bo'lgan?

- A) Rimda
- B) Movoraunnahrda
- S) Misrda
- D) Hindistonda
- E) YUnionistonda

94. Kishilik jamiyatida ma'naviy madaniyatning vujudga kelish sabablari nimada deb o'ylaysiz?

- A) Turmush tarzida
- B) Diniy tasavvurida
- S) YOdgorlik qoldiqlarida
- D) Tabiat Bilan aloqadorlikda
- E) Siyosiy omil

95. Qadimgi maktablar dastlab qaerda tashkil etilgan?

- A) Misrda Xitoyda
- S) Hindistonda
- D) Movoraunnahrda
- E) Rimda

96. Evropa uyg'onish davri dunyoqarashining asosida nima yotadi?

- A) Materializm
- B) Ratsionalizm

S) Idealizm

D) Insonparvarlik

97. Arxitektura uslublarining qaysi biri birinchi bo‘ib paydo bo‘lgan?

A) Barakko

B) Roman

S) Ampir

D) Gotika

E) Fales

98. O‘zbekiston hududida jez davri qaysi davrga mansub?

A) Miloddan avvalgi 1 ming yillik bosharida

B) Miloddan avvalgi 2 ming yillik bosharida

S) Miloddan avvalgi 3 ming yillik bosharida

D) Miloddan avvalgi 4 ming yillik bosharida

E) Miloddan avvalgi 5 ming yillik bosharida

99. Xitoy qo‘lyozmalari topilgan davrni aniqlang.

A) Miloddan avvalgi 610 yil

B) Miloddan avvalgi 611 yil

S) Miloddan avvalgi 612 yil

D) Miloddan avvalgi 615 yil

E) Miloddan avvalgi 614 yil

100. Teatr so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

A) Tomoshabinlar to‘planadigan joy

B) Tadbirlar o‘tkazish joyi

S) San’atni namoyish qilish joyi

D) Tomoshalar joyi (Yunoncha)

E) Aktyorlar ijod qilish joyi

Xulosa.

Mustaqilligimiz sharofati bilan xalqimiz o‘zligini chuqur anglay boshladi. Vatanimiz o‘tmish madaniyatini mukammal o‘rganishiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Yangi jamiyat qurilishi ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va manaviy sohalarda chuqur o‘zgarishlarni taqozo etadi. Bu o‘zgarishlarni asosiy mezoni milliy-manaviy qadriyatlar, sharqona ruhiyat va madaniyat hisoblanadi.

"Xalqning ma’naviyati-degan: I.A Karimov - uning haqiqiy tarixi va uning xosligini qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo‘lidan muvaffaqiyatli ravishda olg‘a siljishda hal qiluvchi tabir joiz bo‘lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir".

Madaniyatshunoslik kursi jahon Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati taraqqiyoti qonunlari, o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari, madaniyatning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni va roli to‘g‘risida baxs yuritadi. Milliy ma’naviyat, qadriyatlar madaniy meros va an’analarga tayangan xolda kishilarning madaniyatni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Talabalar bu kursni o‘rganish jarayonida o‘zbek xalqi va buyuk allomalarimiz,

Mazkur fan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi, milliy madaniyat, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlar haqida keng yoritishni o‘zoldiga asosiy maqsad qilib olgan.

O‘z navbatida demoqratik, xuquqiy, insonparvarlik jamiyatini barpo etishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

Har bir talabada madaniyat tushunchasi, uning nazariy asoslari to‘g‘risida obektiv ma’lumotlar olishda bu seminar ishlanmasi katta ahamiyatga ega.

Ushbu madaniyatshunoslik fanidan seminar mashg‘ulotlari uchun tayyorlangan o‘quv-uslubiy qo‘llanma O‘zbyokiston respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim Vazirligi tomonidan 2011 yil 17sentyabr kuni tasdiqlangan namunaviy o‘quv rejasi 2011 yil 8 kuni BD – 105 son bilan ro‘yhatga olingan "Madaniyatshunoslik" fanidan namunaviy o‘quv dasturi asosida ishlangan.

Har bir amaliy mashg‘ulotga pishiq puhta tayyorgarlik ko‘rish jarayonida talabalar darsliklardan tashqari Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlaridan, Respublika hukumati, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan muhim qonun, qaror va farmoyishlardan keng foydalanib borish tavsiya etiladi.

Ushbu qo‘llanma universitet talabalari va o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, "Madaniyatshunoslik" kursini o‘rganishda dastlabki harakatdir. Qo‘llanma yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalar mualliflar tomonidan bajonidil e’tiborga olinadi.

MUNDARIJA

KIRISH.	3
1-Mavzu. Ibtidoiy davrda diniy madaniyatning shakllanishi.	4
II-Mavzu. Qadimgi Sharqda madaniyat va din uyg'unligi	13
III- Mavzu. Qadimgi davr Markaziy Osiyodagi diniy madaniyat.	26
IV-Mavzu. Antik davr madaniyat va din uyg'unligi.	39
V-Mavzu. Diniy madaniyat (IV-XVI asrlar xristian Yevropasi va musulmon Sharqi).	54
VI-Mavzu. Yevropa O'rta asrlar madaniyati. Xristianlik dini.	62
VII-Mavzu. Yevropa Uyg'onish davri madaniyati	77
VIII-Mavzu. O'rta asrlar Sharq diniy madaniyati	84
Testlar	94
Xulosa	108

